


Sotsiologiya va huquq

Ilmiy jurnal
2-jild
3/1/1-son



ISSN 2181-3221

2024

Sotsiologiya va huquq

Ilmiy jurnali

BOSH MUHARRIR

Topildiyev V.R.

O'zbekiston Milliy universitetining o'quv uslubiy bohsqarmasi boshlig'i, professor, yurid.f.d.

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

Axmedov N.X.

Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi bo'lim boshlig'i, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MAS'UL KOTIB

Mansurova S.A.

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining, jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi boshlig'i

TEXNIK MUHARRIRLAR

Xusanov X.T.

Rashidova Sh.B.

TAHRIRIYAT KENGASHI

Bekmuradov M.B.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi kafedra mudiri, professor, sot.f.d.

Isoqov H.I.

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi direktori, professor, yurid.f.d.

Kaxxarov A.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi professori, sot.f.d.

Po'latov B.X.

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professori yurid.f.d.

Rahimov F.X.

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professori yurid.f.d.

Umarov A.A.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professori, sot.f.d.

Xakimov R.R.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining birinchi o'rinbosari, professor, yurid.f.d.

Xolbekov A.J.

O'zbekiston Milliy universiteti professori, sot.f.d.

TAHRIRIYAT HAY'ATI

Adilxodjaeva S.M.

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti kafedra mudiri, professor, yurid.f.d.

Akilov A.R.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti sektor mudiri

Alekseyeva V.S.

«Ijtimoiy fikr» respublika jamoatchilik fikrini o'rganish Markazi direktori o'rinbosari, sot.f.f.d (PhD), professor

Astanov I.R.

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi kafedrasida boshlig'i

Baygabylov N.O.

L.N.Gumilyov nomidagi Yevroosiyo milliy universiteti sotsiologiya kafedrasida dotsenti, sot.f.f.d (PhD)

Bekov I.R.

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti professori, yurid.f.d.

Eflova M.Y.

Qozon Federal universiteti Ijtimoiy-falsafiy fanlar va ommaviy kommunikatsiyalar instituti direktorining ilmiy faoliyat bo'yicha o'rinbosari, professor, sot.f.f.d.

Farfiyev B.A.

Xalqaro islom akademiyasi professori, sot.f.f.d.

Ismailov B.I.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti sektor mudiri

Ivanov V.V.

Moskva innovatsion prognozlash instituti ilmiy direktori, sot.f.n.

Jiyanmuratova G.Sh.

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, sot.f.f.d. (PhD)

Kalanov K.K.

professor, sot.f.n.

Latipova N.M.

O'zbekiston Milliy universiteti kafedra mudiri, professor, sot.f.d.

Malikova G.R.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti bosh mutaxassisi

Matibayev T.B.

Toshkent shahar Kengashi rais o'rinbosari, deputat, professor, sot.f.d., Turon fanlar akademiyasi akademigi

Nasriyev I.I.

O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi kafedrasida mudiri, professor, yurid.f.d.

O'rinboev R.O'.

Lund universitetining (Shvetsiya) Huquq sotsiologiyasi kafedrasida dotsenti, yurid.f.d.

Parmanov F.Y.

Davlat xavfsizlik xizmati akademiyasi dotsenti, sot.f.d.

Raxmanova S.M.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani)

Seitov A.P.

O'zbekiston liberal demokratik partiyasi sektor mudiri, sot.f.d.

Sodiqova Sh.M.

Xalqaro islom akademiyasi professori, sot.f.d.

Solovyov P.V.

Polotsk davlat universiteti yuridik fakulteti dekani, yurid.f.n.

Ubaydullayeva R.T.

O'zbekiston Milliy universiteti professori, sot.f.d.

Xojiyev E.T.

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professori, yurid.f.d.

Xusanova X.T.

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, sot.f.d.

Yuxnevich E.

Gdansk universiteti huquq va menejment fakulteti professori (Polsha), yurid.f.d.

Yo'ldoshev A.E. Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yurid.f.d.

Manzil: Toshkent shahar Olmazor tumani,
Universitet ko'chasi 4-uy

P/I 100174

Web: <https://www.nuu.uz>, <http://www.centrlogos.uz>,

E-mail: info@centrlogos.uz

Tel. +998 71 246-95-20, + 998977418877

Социология и право

Научный журнал

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

В.Р. Топилдиев

начальник учебно-методического управления
Национального университета Узбекистана,
профессор, д.ю.н.

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Н.Х. Ахмедов,

доктор философии по социологическим
наукам (PhD), начальник отдела Центра
демократических процессов

ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ

С.А. Мансурова,

начальник отдела по связям
с общественностью Правоохранительной
академии Республики Узбекистан

ТЕХНИЧЕСКИЕ РЕДАКТОРЫ

Х.Т. Хусанова

Ш.Б. Рашидова

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

М.Б. Бекмурадов

д.соц.н., профессор, заведующий кафедрой
Академии Государственного управления при
Президенте Республики Узбекистан

Х.И. Исоков

Директор Высшей школы судей при Высшем
судейском совете Республики Узбекистан

А. Каххаров

д.соц.н., профессор Академии Министерства
внутренних дел Республики Узбекистан

Б.Х. Пўлатов

д.ю.н., профессор Правоохранительной
академии Республики Узбекистан

Ф.Х. Рахимов

д.ю.н., профессор Правоохранительной
академии Республики Узбекистан

А.А. Умаров

д.соц.н., профессор Ташкентского
государственного института искусства и
культуры

Р.Р. Хахимов

д.ю.н., профессор, первый заместитель
советника президента Республики
Узбекистан

А.Ж. Холбеков

д.соц.н., профессор Национального
университета Узбекистана

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

С.М. Адълходжаева

д.ю.н., профессор, заведующая кафедрой
Университета мировой экономики и дипломатии

А.Р. Акилов

заведующий сектором Института законодательства и
правовой политики при Президенте Республики
Узбекистан

В.С. Алексеева

д.ф.соц.н. (PhD), профессор, заместитель директора
республиканского Центра изучения общественного
мнения «Ижтимоий фикр»

И.Р. Астанов

начальник кафедры Правоохранительной академии
Республики Узбекистан

Н.О. Байгабылов

PhD по социологическим наукам, ассоциированный
профессор кафедры социологии Евразийского
национального университета имени Л.Н. Гумилева

И.Р. Беков

д.ю.н., профессор Ташкентского государственного
юридического университета

М.Ю. Ефлова

д.соц.н., профессор, заместитель директора по
научной деятельности Института социально-
философских наук и массовых коммуникаций
Казанского федерального университета

Б.А. Фарфиев

д.соц.н., профессор Международной исламской
академии

Б.И. Исмаилов

заведующий сектором Института законодательства и
правовой политики при Президенте Республики
Узбекистан

В.В. Иванов

к.соц.н, директор по исследованиям Московского
Института Инновационного Прогнозирования

Г.Ш. Жиянмуратова

д.ф.соц.н. (PhD), доцент Национального университета
Узбекистана

К.К. Каланов

к.соц.н., профессор

Н.М. Латипова

д.соц.н., профессор, заведующая кафедрой
Национального университета Узбекистана

Г.Р. Маликова

главный специалист Института законодательства и
правовой политики при Президенте Республики
Узбекистан

Т.Б. Матибаев

д.соц.н., профессор, академик академии наук Турон,
депутат, заместитель председателя Ташкентского
городского Кенгаша

И.И. Насриев

д.ю.н., профессор, заведующий кафедрой Высшей
школы судей при Высшем судейском совете

Р.У. Уринбоев

д.ю.н., доцент кафедры социологии права Лундского
университета (Швеция)

Ф.Й. Парманов

д.соц.н., доцент Академии службы государственной
безопасности Узбекистана

С.М. Рахманова

уполномоченный Олий Мажлиса Республики
Узбекистан по правам ребенка (Детский омбудсмен)

А.П. Сеитов

д.соц.н., заведующий сектором либерально-
демократической партии Узбекистан

Ш.М. Содикова

д.соц.н., профессор Международной исламской
академии

П.В. Соловьёв

к.ю.н., декан юридического факультета Полоцкого
государственного университета

Р.Т. Убайдуллаева

д.соц.н., профессор Национального университета
Узбекистана

Э.Т. Хожиев

д.ю.н., профессор Правоохранительной академии
Республики Узбекистан

Х.Т. Хусанова

д.соц.н., доцент Национального университета
Узбекистана

Э. Юхневич

д.ю.н., профессор факультета права и управления,
Гданьского университета (Польша)

А.Э. Йўлдашев

к.ю.н., доцент Ташкентского государственного
юридического университета

Адрес: 100174, р-н Алмазар, ул. Университет
4-дом

Web: <https://www.nuu.uz>, <http://www.centrlogos.uz>,

E-mail: info@centrlogos.uz

Тел.: +998 71 246-95-20, +998977418877

Sociology and law

Scientific journal

CHIEF EDITOR

V.R. Topildiev

head of the educational and methodological department of the National University of Uzbekistan, professor, doctor of legal sciences

DEPUTY CHIEF EDITOR

N.H. Akhmedov

PhD in Sociological Sciences, Head of Department at the Center for Analysis of Democratic Processes

EXECUTIVE SECRETARY

S.A. Mansurova

Head of the Public Relations Department of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

TECHNICAL EDITOR

H.T. Khusanova

Sh.B. Rashidova

EDITORIAL COUNCIL

M.B. Bekmuradov

Doctor of Sciences (Sociology), Professor, Head of the Department of the Academy of Public Administration under the President of Republic of Uzbekistan

F.Kh. Rakhimov

Doctor of Legal Sciences, Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

X.I. Isokov

Director of the Supreme School of Judges under the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan

A.A. Umarov

Doctor of Sciences (Sociology), Professor of the Tashkent State Institute of Art and Culture

A. Kakhkharov

Doctor of Sciences (Sociology), Professor of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

R.R. Khakimov

Doctor of Law, Professor, Deputy Advisor to the President of the Republic of Uzbekistan

B.H. Pulatov

Doctor of Legal Sciences, Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

A.Zh. Kholbekov

Doctor of Sciences (Sociology), Professor of the National University of Uzbekistan

EDITORIAL BOARD

S.M. Adylkhodzheva

Doctor of Legal Sciences, Professor, Head of the Department of University of World Economy and Diplomacy

A.R. Akilov

Head of the Sector of the Institute of Legislation and Legal Policy under the President of the Republic of Uzbekistan

V.S. Alekseeva

Deputy Director of the Republican Center for the Study of Public Opinion «Ijtimoiy fikr», PhD, professor

I.R. Astanov

Head of the Department Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

N.O. Baygabylov

PhD in Sociological Sciences, Associate Professor of the Department of Sociology of the Eurasian National University named after L.N. Gumilyov

I.R. Bekov

Doctor of Legal Sciences, Professor of Tashkent State University of Law

M.Yu. Eflova

Doctor of Social Sciences, Professor, Deputy Director for Scientific Activities of the Institute of Social and Philosophical Sciences and Mass Communications of Kazan Federal University

B.A. Farfiev

Doctor of Sciences (Sociology), Professor of the International Islam Academy

B.I. Ismailov

Head of the Sector of the Institute of Legislation and Legal Policy under the President of the Republic of Uzbekistan

V.V. Ivanov

PhD, Research Director, Moscow Institute of Innovation Forecasting

G.Sh. Zhiyanmuratova

PhD in Sociological Sciences, Associate Professor of the National University of Uzbekistan

K.K. Kalanov

PhD in Sociological Sciences, Professor

N.M. Latipova

Doctor of Sciences (Sociology), Professor, Head of the Department of the National University of Uzbekistan

G.R. Malikova

Chief specialist of the Sector of the Institute of Legislation and Legal Policy under the President of the Republic of Uzbekistan

T.B. Matibaev

Doctor of Sciences (Sociology), Professor, Academician of the Academy of Sciences Turon, deputy, deputy chairman of the Tashkent City Kengash

I.I. Nasriev

Doctor of Legal Sciences, Professor, Head of the Department of Higher School of Judges of the High Judicial Council

R.U. Urinboev

Associate Professor, Department of Sociology of Law, Lund University (Sweden), Doctor of Law

F.Y. Parmanov

Doctor of Sciences (Sociology), Associate Professor of Academy of State Security Service of Uzbekistan

S.M. Rakhmanova

Commissioner of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan for Children's Rights (Children's Ombudsman)

A.P. Seitov

Doctor of Sciences (Sociology), Head of Sector of the Liberal Democratic Party of Uzbekistan

Sh.M. Sodikova

Doctor of Sciences (Sociology), Professor of the International Islam Academy

P.V. Solovyov

Dean of the Law Faculty of Polotsk State University, Candidate of Legal Sciences

R.T. Ubaydullaeva

Doctor of Sciences (Sociology), Professor of the National University of Uzbekistan

E.T. Khozhiev

Doctor of Legal Sciences Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

H.T. Khusanova

Doctor of Social Sciences, Associate Professor of the National University of Uzbekistan

E. Juchniewicz

Professor, Faculty of Law and Management, University of Gdansk (Poland), Doctor of Law

A.E. Yuldashev

PhD in Legal Sciences, Associate Professor of Tashkent State University of Law

Address: Universitet street 4, 100174, Olmazor district

Web: [www.https://nuu.uz](https://nuu.uz), <http://www.centrlogos.uz>,

E-mail: info@centrlogos.uz

Tel.: +998 71 246-95-20, +998977418877

MUNDARIJA

OLIJ TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM VA TARBIYA JARAYONLARINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS MUAMMOLARI Topildiyev V.	12
DIN VA MADANIYAT INSTITUTLARI ALOQADORLIGINING SOTSIOLOGIK TAHLILI Farfiyev B.	22
IJTIMOY HIMOYANING TIZIM SIFATIDA TARKIBIY TUZILMASI VA FUNKSIYALARI Sodiqova Sh.	29
NIKOHDAN AJRALISHGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOY OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI Abduramanov X.	37
IJTIMOY HIMOYA TIZIMIDA SOTSIOLOGIK POTSEDURALARNI QO'LLASH SAMARADORLIGI Xusanova X.	51
SOTSIOLOGIYADA YOSHLARNING SIYOSIY INSTITUTLARGA NISBATAN ISHONCHI MASALASI Jiyanmuratova G.	58
TALABA-QIZLARNING INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH Saliyeva N.	66
O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BOR SHAXSLARNI TURMUSH SIFATINI OSHIRISHGA QARATILGAN IJTIMOY SIYOSATINING INSTITUTSIONAL ASOSLARINING TAHLILI Abduxalilov A.	73
YOSHLAR ORTASIDA AXBOROT ISTE'MOLI KOMPETENSIYASINI OSHIRISH MUAMMOLARI Raximova Sh.	81
TA'SIS SHARTNOMASI VA KORPORATIV HUQUQ XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR Raximjonov A.	87
ZAMONAVIY BOSHQARUV TIZIMINI SOTSIOLOGIK O'RGANISH SAMARADORLIGI Xakimova A.	93
BANDLIK VA MEHNAT SOHASIDAGI QONUNCHILIK: HOLAT VA MUAMMOLAR Islambayev R.	99
XAYRIYA FONDLARI, XAYRIYA TASHKILOTLARI VA ULARNING SHAKLLANISH TARIXI Boboyev S.	105
O'ZBEKISTON MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI Xomidjonov U.	110
IJTIMOY TARMOQLAR VA DEVIANT XATTI-HARAKATLAR: GURUH DINAMIKASI VA TENGDOSHLARNING O'SMIRLAR O'RTASIDAGI DEVIANT ME'YORLAR SHAROITLARIGA TA'SIRI Rashidova Sh.	117

СОДЕРЖАНИЕ

ОСОБЕННОСТИ ПРОБЛЕМЫ ОРГАНИЗАЦИЯ УЧЕБНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ВУЗАХ В. Топилдиев	12
СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВАЗАИМООТНОШЕНИЯ ИНСТИТУТОВ РЕЛИГИИ И КУЛЬТУРЫ В. Фарвиев	22
СТРУКТУРА И ФУНКЦИИ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ КАК СИСТЕМЫ Ш. Содикова	29
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНЫХ ФАКТОРОВ ВЛИЯЮЩИХ НА РАСТОРЖЕНИЕ БРАКА Х. Абдураманов	37
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ СОЦИОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕДУР В СИСТЕМЕ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ Х. Хусанова	51
ВОПРОС ДОВЕРИЯ МОЛОДЕЖИ К ПОЛИТИЧЕСКИМ ИНСТИТУТАМ В СОЦИОЛОГИИ Г. Жиянмуратова	58
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТА СТУДЕНТОК Н. Салиева	66
АНАЛИЗ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ ОСНОВ СОЦИАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ НАПРАВЛЕННОЙ НА ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ЖИЗНИ ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ В УЗБЕКИСТАНЕ А. Абдухалилов	73
ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПОТРЕБЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ Ш. Рахимова	81
НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ ПО УЧРЕДИТЕЛЬНОМУ ДОГОВОРУ И КОРПОРАТИВНОМУ ПРАВУ А. Рахимжонов	87
ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОЦИОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ А. Хакимова	93
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО В ОБЛАСТИ ЗАНЯТОСТИ И ТРУДА: СОСТОЯНИЕ И ПРОБЛЕМЫ Р. Исламбаев	99
БЛАГОТВОРИТЕЛЬНЫЕ ФОНДЫ, БЛАГОТВОРИТЕЛЬНЫЕ ОРГАНИЗАЦИИ И ИСТОРИЯ ИХ СТАНОВЛЕНИЯ С. Бобоев	105
МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В СИСТЕМЕ ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА У. Хомиджонов	110
СОЦИАЛЬНЫЕ СЕТИ И ДЕВИАНТНОЕ ПОВЕДЕНИЕ: ВЛИЯНИЕ ГРУППОВОЙ ДИНАМИКИ И СВЕРСТНИЧЕСТВА НА ФОРМИРОВАНИЕ ДЕВИАНТНЫХ НОРМ СРЕДИ ПОДРОСТКОВ Ш. Рашидова	117

TABLE OF CONTENT

SPECIFIC PROBLEMS OF ORGANIZING EDUCATIONAL AND EDUCATIONAL PROCESSES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS V. Topildiev	12
SOCIOLOGICAL ANALYSIS OF THE RELATIONSHIP OF INSTITUTIONS OF RELIGION AND CULTURE B. Farfiyev	22
STRUCTURAL STRUCTURE AND FUNCTIONS OF SOCIAL PROTECTION AS A SYSTEM Sh. Sodiqova	29
ECONOMETRIC ANALYSIS OF SOCIAL FACTORS INFLUENCING THE DISSOLUTION OF MARRIAGE X. Abduramanov	37
THE EFFECTIVENESS OF THE USE OF SOCIOLOGICAL PROCEDURES IN THE SOCIAL PROTECTION SYSTEM X. Xusanova	51
THE ISSUE OF YOUTH TRUST IN POLITICAL INSTITUTIONS IN SOCIOLOGY G. Jiyamuratova	58
IMPROVING THE MECHANISMS FOR DEVELOPING THE INTELLIGENCE OF FEMALE STUDENTS N. Saliyeva	66
ANALYSIS OF THE INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF SOCIAL POLICY AIMED AT IMPROVING THE QUALITY OF LIFE OF PERSONS WITH DISABILITIES IN UZBEKISTAN A. Abduxalilov	73
ISSUES OF INCREASING THE COMPETENCE OF INFORMATION CONSUMPTION AMONG YOUNG PEOPLE Sh. Raximova	81
SOME CONSIDERATIONS REGARDING THE FOUNDING CONTRACT AND CORPORATE LAW A. Raximjonov	87
THE EFFECTIVENESS OF THE SOCIOLOGICAL STUDY OF THE MANAGEMENT SYSTEM A. Xakimova	93
LEGISLATION IN THE FIELD OF EMPLOYMENT AND LABOR: STATUS AND PROBLEMS R. Islambaev	99
CHARITABLE FOUNDATIONS, CHARITABLE ORGANIZATIONS AND THE HISTORY OF THEIR FORMATION S. Boboiev	105
MECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF HUMAN CAPITAL IN THE SCHOOL EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN U. Xomidjonov	110
SOCIAL NETWORKS AND DEVIANT BEHAVIOR: THE INFLUENCE OF GROUP DYNAMICS AND PEERS ON THE FORMATION OF DEVIANT NORMS AMONG ADOLESCENTS Sh. Rashidova	117

Voxidjon TOPILDIYEV,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Huquqiy fanlar kafedrası professori, yurid.f.d.

OLIJ TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM VA TARBIIYA JARAYONLARINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS MUAMMOLARI

Annotatsiya. Muallif mazkur maqolada oliy ta'lim tashkilotlarida mavjud ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishdagi zamonaviy muammolarni bir necha toifaga ajratgan holda nazariy va amaliy jihatdan tahlil etgan. Shuningdek, OTMlarda ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning o'ziga xos muammolarini har tomonlama o'rgangan holda ularni bartaraf etish, ular haqida ilmiy asoslangan nazariy xulosalar ishlab chiqish, oliy ta'lim sohasidagi davlat siyosatini mustahkamlash bo'yicha o'zining taklif va tavsiyalarini ilgari surgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, oliy ta'lim, mustaqil ta'lim, malakaviy amaliyot, moddiy-texnik baza, o'quv binolari, auditoriyalar, o'quv yordamchi xonalar, laboratoriya xonalari, laboratoriya jihozlari, kredit-modul tizimi, davlat granti, davlat buyurtmasi, to'lov-kontrakt, oliy ta'lim muassasasi, fakultet, kafedra, ta'lim sifati.

ОСОБЕННОСТИ ПРОБЛЕМЫ ОРГАНИЗАЦИЯ УЧЕБНО- ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ВУЗАХ

Аннотация. В данной статье автор проанализировал современные проблемы организации образовательно-воспитательных процессов в организациях высшего образования, разделив их на несколько категорий с теоретической и практической точки зрения. А также, всесторонне изучив конкретные проблемы организации образовательно-воспитательных процессов в вузах, выдвинул свои предложения и рекомендации по их устранению, разработке научно обоснованных теоретических выводов о них, усилению государственной политики в сфере высшего образования.

Ключевые слова: образование, высшее образование, самостоятельное образование, профессиональная практика, материально-техническая база, учебные корпуса, аудитории, учебно-вспомогательные помещения, лабораторные помещения, лабораторное оборудование, кредитно-модульная система, государственный грант, государственный заказ, платежный договор, высшее учебное заведение, факультет, кафедра, качество образования.

SPECIFIC PROBLEMS OF ORGANIZING EDUCATIONAL AND EDUCATIONAL PROCESSES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Abstract. In this article, the author analyzed the modern problems of organizing educational processes in higher education organizations, dividing them into several categories from a theoretical and practical point of view. And also, having comprehensively studied the specific problems of organizing educational processes in universities, he put forward his proposals and recommendations for their elimination, the development of scientifically based theoretical conclusions about them, and the strengthening of state policy in the field of higher education.

Key words: education, higher education, independent education, professional practice, material and technical base, educational buildings, classrooms, educational and auxiliary premises, laboratory premises, laboratory equipment, credit-modular system, state grant, state order, payment agreement, higher educational institution, faculty, department, quality of education.

Hozirgi vaqtda ta'limni rivojlantirishning jahon an'analari ta'sirida oliy ta'limga bo'lgan munosabatni o'zgartirish jarayonlari jadal ravishda davom etmoqda. Ta'lim har qanday mamlakatda inson kapitalini rivojlantirish orqali barqaror taraqqiyotni ta'minlaydigan muhim omildir. Jahon ta'lim maydonida raqobat kuchayib borayotgan bir sharoitda dunyo OTMLari oldida juda katta jiddiy va o'z yechimini kutayotgan vazifalar turibdi. Ular nafaqat o'quv va ilmiy jarayonlarni tashkil etishda, balki innovatsiyalarni yaratish, iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatish, jahondagi asosiy muammolarni hal etishda sog'lom raqobat muhitini vujudga kelishiga zamin yaratmoqda. Bu esa dunyo mamlakatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalari tomonidan strategik rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini aniq belgilab olish, strategik ahamiyatga ega bo'lgan normativ-huquqiy va me'yoriy-uslubiy hujjatlarini takomillashtirish, ta'lim tashkilotlarini rivojlantirishning uzoq muddatli dastur va konsepsiyalarni ishlab chiqish va oliy ta'lim tizimida o'z yechimini kutayotgan muammolarni bar-taraf etish masalasini kun tartibiga qo'ymoqda.

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda oliy ta'lim tizimida o'quvchilar o'zlari tanlagan yo'nalish yoki mutaxassislik bo'yicha OTMLarga o'qishga kirgandan so'ng ularda tez vaqt ichida o'qishga bo'lgan qiziqish susayadi, ular tomonidan darslar sababsiz qoldiriladi va berilgan uy vazifalari lozim darajada bajarilmaydi. Shu o'rinda xaqli ravishda savol tug'iladi, ya'ni nima uchun bunday holatlar sodir bo'lmoqda? Ta'lim jarayoniga bunday munosabatda bo'lishning zamirida nimalar yotibdi?

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida oliy ta'limning eng asosiy zamonaviy o'ziga xos muammolarini tahlil etamiz. Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimi ko'p yillar davomida dunyodagi eng yaxshi tizimlardan biri sifatida xisoblanib kelingan. Yurtimizning OTMLarida ko'plab xorijiy mamlakatlarning fuqarolari kelib taxsil olishgan va yuqori malakali kadrlar bo'lib yetishishgan. Bugungi kunda ham mahalliy OTMLarimizning faoliyati xorijlik hamkorlarimiz va raqobatchilarimizni o'ziga jalb etib kelmoqda. Buni oliy ta'lim muassasalarimiz ishtirokida o'tkazilayotgan ko'plab xalqaro anjumanlar hamda xorijiy OTMLar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan amaliy ishlar tasdiqlaydi.

Har bir ta'lim tashkilotining o'ziga xos yutuqlari va kamchiliklari mavjud. Shuning uchun mamlakatimizdagi OTMlarning birinchi navbatda, o'ziga xos bo'lgan ayrim zamonaviy muammolarini ko'rib chiqaylik.

Bu muammolarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) OTMlarning moddiy-texnik bazasi.
- 2) Professor-o'qituvchilar axloqi va etikasi.
- 3) Zerikarli o'qitish jarayonlari.
- 4) O'qitish jarayonida eskirgan metodikalar (uslublar)ni qo'llanilishi.
- 5) Mustaqil ta'limni talab darajasida tashkil etilmaganligi va innovatsion mexanizmlarni amaliyotga joriy qilinmaganligi.
- 6) OTM platformasiga joylashtirilgan o'quv resurslarining sifat darajasini pastligi.
- 7) Mutaxassislarni tayyorlashda malakaviy amaliyotlarning yetarli emasligi va boshqalar.

Mazkur muammolarning birinchisini ko'rib chiqaylik. Ta'lim sifatiga ta'sir etadigan eng asosiy omillardan biri bu har bir OTMning moddiy-texnik bazasi hisoblanadi. Ya'ni, moddiy-texnik baza deganda birinchi navbatda o'quv binolari, auditoriyalar, o'quv yordamchi xonalar, mebel jihozlari hamda xonalarning ta'mirdan chiqarilganligi kiradi. Shuningdek, ushbu ro'yxatga laboratoriya xonalari va laboratoriya jihozlari; studiyalar; kompyuterlar, multimedia va texnik vositalar; axborot resurs markazlari va o'quv zallari; o'quv-uslubiy adabiyotlar; sport zallari, stadionlar, sport inventarlari; oshxonalar va bufetlar va boshqalar kiradi.

Bir so'z bilan aytganda moddiy-texnik baza bilan yaxshi ta'minlanganlik ta'limning sifati, materiallarni o'zlashtirish va ta'lim oluvchilarni sog'lig'i va xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Afsuski OTMlarning, xususan dalat oliy ta'lim muassasalarining eng muammoli nuqtalaridan biri ta'lim muassasasini moddiy tomondan yetarlicha ta'minlanmaganligi, ya'ni OTMlarda mablag' yetishmasligi hisoblanadi.

Ajratilgan mablag'lar ko'pincha OTMlarni sifatli ta'mirlash, zamonaviy mebel va jixozlar, o'quv adabiyotlari, laboratoriya jihozlari, reaktivlar hamda texnik vositalar bilan ta'minlashga yetarli bo'lmaydi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalar ijrosini izchil ta'minlash, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining mustaqilligini kengaytirish, ular faoliyatida davlat ma'muriy boshqaruvini keskin kamaytirish hamda shu orqali o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga javob bera oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlovchi davlat oliy ta'lim muassasalarini shakllantirish maqsadida Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2021 yil 24 dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"[1] gi PQ-60 son, xamda Oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, davlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalalarini mustaqil hal etish, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga mablag'larni jalb etish imkoniyatini kengaytirish hamda oliy ta'lim muassasalari o'rtasida raqobat muhitini rivojlantirish maqsadida "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"[2]gi PQ-61 son qarorlari qabul qilindi. Yuqoridagi PQ-61-son qarorga muvofiq moliyaviy mustaqillik berilgan 41 ta davlat oliy ta'lim muassasalari quyidagi moliyalashtirish tartibiga o'tkazilishi belgilandi:

barcha ta'lim yo'nalishlari va bosqichlari bo'yicha bir talaba uchun to'g'ri keladigan o'rtacha xarajat miqdori hisoblab chiqiladi;

davlat buyurtmasi (davlat granti) asosida kadrlar tayyorlash uchun Davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lar Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartib asosida bir talabaga to'g'ri keladigan o'rtacha xarajat miqdoridan kelib chiqib belgilanadi;

davlat granti asosida ta'lim olayotgan talabalar uchun budjet mablag'lari bo'ysunuvi bo'yicha tegishli vazirlik va idora hamda oliy ta'lim muassasasi o'rtasida imzolanadigan bitim asosida ajratiladi (bundan maqsadli mablag'lar, shu jumladan stipendiya to'lovlari, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning ijtimoiy himoyasi uchun qonunchilikda belgilangan mablag'lar, oliy ta'limdan keyingi ta'lim xarajatlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining alohida qarorlari asosida ajratiladigan boshqa mablag'lar mustasno);

davlat granti asosida ta'lim olayotgan talabalar uchun ajratilgan budjet mablag'lari (bundan maqsadli mablag'lar mustasno) oliy ta'lim muassasasining budjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkaziladi va hisobot davri oxirida mablag'larning qoldig'i oliy ta'lim muassasasi ixtiyorida qoldiriladi;

davlat buyurtmasi sifatida ajratilgan mablag'lar hamda to'lov-kontrakt mablag'lari bo'yicha daromadlar va xarajatlari smetasi tegishliligi bo'yicha yuqori turuvchi vazirlik va idorada ro'yxatdan o'tkaziladi hamda ulardan foydalanish Budjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi uchun belgilangan tartibga o'xshash tartibda amalga oshiriladi. Bunda, moliya yili davomida daromadlar va xarajatlari smetasiga kiritiladigan o'zgartirishlar Moliya vazirligi bilan kelishilmaydi;

to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymati bir talaba uchun to'g'ri keladigan o'rtacha xarajat miqdoridan kelib chiqib, biroq oliy ta'lim muassasasini o'zini o'zi to'liq moliyaviy ta'minlash, istiqbolda rivojlantirish hamda ta'lim xizmatlari bozoridagi o'zaro raqobat asosida belgilanadi. Shuningdek, moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim muassasalari yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan budjet mablag'larini oluvchi davlat tashkiloti hisoblanadi;

talabalarni to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymati oliy ta'lim muassasasi tomonidan ta'lim xizmatlari bozoridagi talab va taklifdan kelib chiqib, biroq tegishli yo'nalish bo'yicha davlat oliy ta'lim muassasalarida belgilangan bazaviy to'lov-kontrakt qiymatidan uch baravardan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilanadi;

bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura va klinik ordinatura mutaxassisliklari kesimida qabul shartlarida to'lov-kontrakt qiymati tabaqalashtirilgan miqdorlarda belgilanishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan va me'yoriy hujjatlarda belgilangan normalardan kelib chiqqan holda moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim muassasalarida ularning rahbarlari tomonidan ta'lim siyosati to'g'ri olib borilsa va strategik ahamiyatga ega bo'lgan qarorlar o'z vaqtida to'g'ri qabul qilinsa binolar va xonalarni sifatli ta'mirlash, OTMlarni zamonaviy mebel va jihozlar, o'quv adabiyotlari, laboratoriya jihozlari, kompyuter va boshqa texnik vositalar bilan ta'minlash muammolari hal etilishi mumkin.

Ikkinchi muammo bu professor-o'qituvchilar axloqi va etikasi, ya'ni OTM professor-o'qituvchilari tomonidan talabalar bilan muloqot qilish jarayonidagi axloq normalari va o'qituvchi etiketi bilan bog'liq muammolar hisoblanadi. OTMda tahsil olayotgan har bir talaba o'ziga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish, ish jarayonidagi muloqot me'yorlariga rioya qilish, shuningdek, o'z bilimini xolis va adolatli baholanishini talab qilish huquqlariga ega. Ammo amaliyotda ya'ni, o'quv jarayonlarini tashkil etishda bu holat umuman realikka mos kelmaydi. Shunday holatlar bo'ladiki, professor-o'qituvchilar talabalar bilan muloqot qilish jarayonida ularga nisbatan turli xil kesatliq gaplar bilan behurmatlik qilib, ularning erishgan yutuqlarini qasddan pastga urishga harakat qilishadi.

Ayrim professor-o'qituvchilar o'zlarining intellekti va hayotiy tajribalari asosida talabalarni bilimi juda past ekanligini ta'kidlagan holda bosim o'tkazsalar, boshqalari esa men sizlarga "3" bahodan yuqori baho qo'ymayman yoki sizlar meni 30 yillik ish faoliyatida uchragan eng kuchsiz guruhsizlar, sizlarning 50-60 foizingiz keyingi kursga o'tamaysizlar, degan vajlarni keltirishadi. Bu bosim o'tkazish va kamsitish jarayonlari shu bilan tugamaydi. Ayrim professor-o'qituvchilar talabalarga baqirish, ularni turli xil so'zlar bilan haqoratlash, agar talabalar o'qituvchilarning fikri bilan hisoblashmasa ahvol bundanda yomon bo'lishi mumkin. Bir so'z bilan aytganda bunday talabalarga nisbatan bir qator professor-o'qituvchilar o'z prinsiplaridan kelib chiqqan holda ochiq qarshilik ko'rsatishni va bosim o'tkazishni boshlashadi.

Shu o'rinda haqli ravishda savol tug'iladi, nima sababdan OTMlar bunday o'qituvchi va xodimlarni ushlab o'tirishadi? Yoki ularga nisbatan chora ko'rishmaydi? Axloq normalari va etika qoidalariga rioya qilmaydigan bunday toifadagi professor-o'qituvchilarga ular o'zlarining dars beradigan fani bo'yicha kuchli va tajribali mutaxassis bo'lganligi sababli OTM rahbariyati talabalar bilan o'zini tutishda yo'l qo'ygan xato va kamchiliklariga ko'z yumib kelishmoqda.

Axir amaldagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining 46-moddasida professor-o'qituvchilarga quyidagi: ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi; o'quv mashg'ulotlarini sifatli o'tkazishi; axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi; ta'lim oluvchilarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e'tibor qaratishi; voyaga yetmagan ta'lim oluvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borishi; ta'lim tashkilotining ustaviga va (yoki) boshqa ta'sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etishi; o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o'tishi; tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi shartligi; qonunchilikka, shuningdek ta'lim oluvchi va ta'lim tashkiloti o'rtasida tuziladigan shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkinligi; pedagog xodimlarga pedagogik faoliyatni amalga oshirishda axloq va etika normalariga zid harakatlar sodir etish ta'qiqlanishi belgilab qo'yilgan[3]. Shuningdek, boshqa qonunosti hujjatlarida[4]: 1. Tegishli ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lish; 2. bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining ishchi o'quv rejalarini, ishchi o'quv dasturlari, magistrat tayyorgarligining shaxsiy rejalarini tuzish; 3. o'quv jarayonini ta'minlashda faol qatnashish, darslik, o'quv, o'quv-uslubiy qo'llanmalar va ma'ruza matnlarini yozish; 4. tegishli fan yoki fanlar bo'yicha dasturlar, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyalari ustida ishlash bo'yicha ko'rsatmalar va uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqish; 5. o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarni joriy etish; 6. yuqori ilmiy-uslubiy saviyada talabalar o'qishini amalga oshirish; 7. bitiruv malakaviy ishiga va magistrlik dissertatsiyasiga rahbarlik qilish; 8. ta'lim, fan, texnika integratsiyasining tashkiliy, ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqishda qatnashish; 9. ilmiy yo'nalish va ilmiy maktablar ochish; 10. magistrat, tayanch doktorantlar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va stajyor o'qituvchilarga rahbarlikni amalga oshirish; 11. o'qituvchi va talabalarning ilmiy o'quv-tadqiqot ishlarini tashkil qilish va ularning natijalarini o'quv jarayonini ishlab chiqishga tatbiq etish; 12. ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarni olib borish; 13. fanlar bo'yicha ishchi o'quv dasturlarni ishlab

chiqish, ularga taqrizlar berish; 14. ilmiy, o'quv-uslubiy ish natijalarini nashr qildirish; 15. fanlarni metodik jihatidan ta'minlashni nazorat qilish; 16. kafedraning ilmiy-tadqiqot mavzusi bo'yicha mualliflik kurslarini o'qish; 17. oliy ta'lim muassasasi, fakultet va kafedra ichki tartib qoidalariga rioya qilish; 18. kafedra o'qituvchilarining malakasini oshirishda faol ishtirok etish va ularning pedagogik mahorat va kasbiy malakaga ega bo'lishi uchun metodik yordam ko'rsatish; 19. talabalarda yuqori madaniyat va ma'naviyatni, o'z kasbiga, Vataniga, tabiatga muhabbatni, vatanparvarlik, fuqarolik nuqtai nazarni shakllantirish; 20. o'quv tarbiya va ilmiy jarayonlarning yuqori samaradorligini ta'minlash; 21. ilmiy-texnik, ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiy va huquqiy bilimlarni tashviqot qilishda qatnashish kabi oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilarining funksional majburiyatlari ko'rsatilgan. Fikrimizcha, bugungi kunda ayrim professor-o'qituvchilar o'zlariga yuklatilgan funksional majburiyatlarni lozim darajada bajarmasdan yoki mazkur talablarni zamirida qanday ma'no yotganligini teran anglab yetmasdan o'z faoliyatlarini olib borishmoqda. Yuqoridagi holatlarni bartaraf etish uchun bizning fikrimizcha OTMLarda professor-o'qituvchilar uchun doimiy ravishda oliy ta'limning normativ-huquqiy hujjatlari, pedagogik mahorat, talabalar bilan muloqot psixologiyasi bo'yicha davra suhbatlari, seminar treninglar yoki qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etish ijobiy natija berishi mumkin.

Uchinchi muammo – bu zerikarli o'qitish jarayonlari hisoblanadi. OTMLarda o'tilayotgan ma'ruza darslarining juda ko'p qismi zerikarli holda ya'ni, bir xil tonda auditoriyadagi talabalarni qiziqitira olmaydigan, o'z ustida muntazam ishlamaydigan, mutaxassisligi bo'yicha zamonaviy bilimlarga yetarlicha ega bo'lmagan professor-o'qituvchilar tomonidan olib borilmoqda. Dars jarayonlarida yetarlicha bilim berilmaydi, o'quv adabiyotlari ma'nan eskirgan, zamonaviy darsliklari esa yetishmaydi, elektron kutubxona to'laqonli shakllantirilmagan bu holatda faqatgina talabani darsda qatnashishga majburlash emas, balki muammoning mohiyatini o'rganish zarur.

Dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabalarni mustaqil o'qib-o'rganish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir. Talabalar olib borilayotgan darslardan qoniqish hosil qilishlari, yangi ma'lumotni o'rganishga harakat qilishlari kerak. Buning uchun professor-o'qituvchilar talabalarda bilim olishga bo'lgan qiziqishni va dars olib borayotgan predmeti bo'yicha talabalarda qiziqish uyg'ota bilishi, dars jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanishi lozim.

Ammo, bugungi kunda ko'plab OTMLarda professor-o'qituvchilar dars jarayonida materiallarni zerikarli og'zaki bayon etish usuli bilan chegaralanmoqdalar. Hattoki seminar va amaliy mashg'ulot darslarida ham muammolar mavjud ya'ni, talabalar tomonidan yozib kelingan materiallar qog'ozdan o'qib berilish holatlari mavjud. Seminar mashg'ulotlari – bu muhokama qilish, bahs-munozara, fikr almashish, qiziqarli savollar orqali yechimni topishga qaratilgan bo'lishi kerak. Amaliy mashg'ulotlarga kelsak, juda ko'plab OTMLarda moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi laboratoriya mashg'ulotlarini lozim darajada o'tkazilishiga shart-sharoit yo'qligi tufayli talabalar ko'proq o'quv adabiyotlari va uslubiy qo'llanmalar orqali olishi mumkin bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishmoqda. Ya'ni, oliy ta'lim muassasalarining zamonaviy o'quv va ilmiy laboratoriyalar bilan jihozlanish darajasi yetarli emas, xalqaro standartlarga javob beradigan o'quv laboratoriya uskunalarining salmog'i atigi 10 foizni tashkil etadi, shu bilan birga o'quv jarayoni laboratoriya materiallari (reaktivlar, kimyoviy idish, butlovchi, biologik materiallar va boshqa obyektlar) bilan yetarlicha ta'minlanmagan. Bunday muammolar barcha fanlarga

tegishli emas. Masalan, o'z kasbini ustasi bo'lgan mahoratli va tajribali professor-o'qituvchilar eng kichik imkoniyatlar bilan ham dars jarayonlarini ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llab talablarni qiziqtirgan holda olib borishmoqda. Ming afsuski o'z sohasini fidoyisi bo'lgan bunday mutaxassislar juda ham ko'p emas bu esa zamonaviy OTMLarning asosiy muammolaridan biridir.

To'rtinchi muammo o'qitish jarayonida eskirgan metodika (uslub)larning qo'llanilishi hisoblanadi. Ko'rinib turibdiki, hozirgi kunda aksariyat davlat OTMLarida professor-o'qituvchilar tarkibi har doim ham zamonaviy voqealikka moslasha olmaydi. Oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari borasida ham shunday fikrlarni aytish mumkin. Bu holat esa OTMLarda o'qitish jarayonlari professor-o'qituvchilar tomonidan eskirgan usullar bo'yicha zerikarli tarzda olib borilishidan dalolat beradi hamda ta'lim sifatiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Shunday qilib, OTM talabalari o'qituvchilardan eskirgan va bugungi talablarga javob bermaydigan ta'lim dasturlari asosida tegishli fanlarni o'zlashtirishda davom etadilar. Bo'lg'usi yuqori malakali kadrlarning ko'pchiligi bunday ta'lim ularga kelajakdagi ish jarayonlarida zarur bo'ladigan bilim va ko'nikmalarni bermasligini tushunib yetishadi. Buning natijasida aksariyat talabalarning ta'lim olishga bo'lgan munosabati o'zgaradi, oliy ta'lim olishdan ko'ngli qoladi, o'qishini tashlab ketishga yoki xususiy OTMLarga ko'chirib ketishga majbur bo'lib qoladi.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimiga innovatsion o'qitish usullari kirib keldi. Zamonaviy innovatsion usullarning mohiyati o'quv jarayonini muloqot tarzida tashkil etishdan iborat bo'lib, u talabalarga o'z fikrlarini ifodalab berishga, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga va ularni hal etishning samarali usullarini topishga yordam beradi. Bunday usullar ta'lim sifatini oshirish, talabalarni o'z ustida ishlashlarini rivojlantirish, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida qo'llaniladigan ko'nikma va malakalarni shakllantirish imkonini beradi. Jumladan, ma'ruza mashg'ulotlari suhbat, baxs munozara, fikrlar almashinuvi, aqliy hujum, muammolarni birgalikda hal etish shakllarida olib boriladi. Mazkur usullar orqali o'quv mashg'ulotlari olib borilganda o'tilgan materiallarni mustahkamlash, mustaqil fikrlash, bir soxadagi bilimlarni ikkinchi sohada qo'llanilishiga erishish va kommunikativ rivojlanishga erishish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Beshinchi muammo OTMLarda mustaqil ta'limni talab darajasida tashkil etilmaganligi va mustaqil ta'lim bo'yicha innovatsion mexanizmlarni amaliyotga joriy qilinmaganligi hisoblanadi. Oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim talabalarda tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, o'quv jarayonida talabalarda tashkilotchilik qobiliyati, kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish zamon talabi hisoblanadi. Mustaqil ta'lim talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantiradi. O'z tadqiqotlarini tengdoshlari bilan muhokama qilish orqali tanqidiy fikrlash ko'nikmalari ham rivojlanadi. Talabalar fanga tegishli bilimlarni 40-60 foizini bevosita mustaqil o'rganish orqali o'zlashtiradi. Mustaqil ta'lim talabalarga tabaqalashtirilgan topshiriqlar berish imkonini ham beradi. Mustaqil ta'lim individual yondashuv, akademik tanlovning xilma-xilligi bilan talabani ko'proq jalb etadi. Mustaqil izlanish natijasida turli manbalar bilan tanishish talaba dunyoqarashi rivojlanishiga xizmat qiladi. Tashabbuskorlik ko'nikmalari shakllanadi. Shuningdek, mustaqil o'qish muammolar yechimi bo'yicha jamoaviy muhokamalarda yetakchi mavqeni egallash uchun zamin yaratadi.

Ammo bugungi kunda OTMLarda talabalarning mustaqil ta'limni amalga oshirishga motivatsiyaning kamligi, bajarilgan mustaqil ta'lim natijalariga e'tiborsizlik, mustaqil ta'lim hajmi bo'yicha tizim mavjud emasligi, mustaqil ta'limda xulosa chiqarish va uni tahlil qilish bo'yicha ko'nikmalar yetishmasligi, mustaqil ishni bajarishga zaruriy fundamental adabiyotlar yetishmasligi, fan yuzasidan baholash mezonlari mustaqil ta'lim samara-

dorligiga va amaliyotga joriy qilish darajasiga qarab belgilanmaganligi, fanlar bo'yicha mustaqil ish mavzulari maqsadsiz yoki ma'lum muammoni hal qilishga yo'naltirilmaganligi, mustaqil ta'limni baholash va topshiriqlarni sifatli darajada qabul qilishga professor-o'qituvchilar tomonidan mas'uliyatsizlik bilan yondashish, mustaqil ishni baholash tizimida ham muammolar namoyon bo'lmoqda. Fikrimizcha, bunday muammolarni bartaraf etish va ta'lim jarayonlarini bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda tashkil etish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son hamda "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2020 yil 2 martdagi PF-5953-son farmonlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2020 yil 31 dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan 2020/2021 o'quv yilidan boshlab respublika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish tartibi joriy etilishi belgilab qo'yildi.

Ma'lumki kredit-modul tizimida 1 kredit o'rtacha 25-30 akademik soatlik o'quv yuklarni o'z ichiga oladi. Ya'ni talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni to'plashi uchun ma'lum miqdordagi o'quv yuklarni o'zlashtirishi zarur. O'quv yuklari bakalavriatda – 40-50% auditoriya soati, 50-60% mustaqil ish soatiga, magistraturada – 30-40% auditoriya soati, 60-70% mustaqil ish soatiga bo'linadi[5]. OTMlar tomonidan tayyorlanadigan har bir fanning o'quv dasturida "Mustaqil ta'lim va mustaqil mashg'ulotlar" qismida mustaqil ta'limning shakli va mazmuni, mustaqil ishga mo'ljallangan mavzular va topshiriqlar, mustaqil mashg'ulotlar jarayonida ta'lim oluvchilar tomonidan tayyorlanishi zarur bo'lgan ishlar keltirilishi lozim.

Talabalarni mustaqil ishini tashkil etishda har bir talabani akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi; o'quv adabiyotlarini mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash; amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish; tegishli mavzu bo'yicha referat yoki esse tayyorlash; kurs ishi (loyihalari)ni bajarish; bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyasi uchun materiallar to'plash; hisob-kitob va grafik ishlarni bajarish; maket, model va badiiy asarlar ustida ishlash; amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, testlar, savollar va topshiriqlarni tayyorlash; ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash; uy vazifalarini bajarish va boshqalar.

OTMlarda mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Oltinchi muammo OTM platformasi HEMIS (Higher Education Management Information System) – oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi platformasiga joylashtirilgan o'quv resurslari sifat darajasining pastligi hisoblanadi. Mazkur platformaga professor-o'qituvchilar tomonidan joylashtirilgan o'quv resurslarini ko'pchilik qismi talab darajasida tayyorlanmagan ya'ni, nomigagina tegishli platformani to'ldirish uchun joylashtirilgan xolos. Muhtaram Prezidentimiz tomonidan 2019 yilning 8 oktyabrida

"O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi [6] Farmoni imzolandi. Ushbu muhim dasturilamal hujjatda "Respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish va oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish" belgilab berildi. Shuningdek, 2030 yilga qadar respublikadagi barcha oliy ta'lim muassasasi (OTM) ning 85 foizi, kredit-modul tizimiga o'tkazish ko'rsatib o'tildi va bugungi kunda deyarli barcha OTMlar kredit-modul tizimiga o'tishdi. O'rinli savol tug'iladi. Xo'sh, bundan ko'zlangan maqsad nima? Bugun va kelajak uchun mazkur mexanizm qay darajada foyda keltiradi? U Yangi O'zbekistonning strategik maqsadlariga qanchalik mos? Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28 fevraldagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni alohida o'rin tutadi [7]. Ilm-fan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal taraqqiy etib borayotgan bugungi sharoitda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida davlat va jamiyat boshqaruvi, huquq, iqtisodiyot, sanoat, ijtimoiy himoya, ta'lim, tibbiyot, bandlik, qishloq xo'jaligi, mudofaa, xavfsizlik, turizm va boshqa sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish urfga kirmoqda.

2022 yilda qabul qilingan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmon islohotlarning mantiqiy davomi va ularning natijasini belgilash, mamlakatimizni yanada yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarish, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy sohalarda muvaffaqiyatlarga erishish jarayonining me'yoriy-huquqiy asoslarini ta'minlash nuqtai nazaridan ulkan ahamiyatga ega bo'ldi.

Kredit-modul tizimi, bu – ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimni reyting asosida baholash. Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi; o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish; bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash; talabalar bilimni reyting bali asosida baholash; talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish; ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish; ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish mumkinligi va boshqalar.

Bugungi kunda har bir professor-o'qituvchi o'zining o'quv mashg'ulotlarini olib boradigan fanlaridan quyidagi: 1.Ma'ruza matnlari. 2.Amaliy mashg'ulot uchun materiallar. 3.Har bir mavzu bo'yicha taqdimot. 4.Glossariy. 5.Nazorat uchun test savollari. 6.Audio, video materiallar, virtual ishlanmalar. 7.Vaziyatli masalalar (keysar). 8.Mavzuni yorituvchi internet manbalari. 9.Esperess savol-javoblar. 10.Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar. 11.Foydalanish uchun adabiyotlar ro'yxati va boshqa resurslarni sifatli tayyorlab HEMIS (Higher Education Management Information System) – oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi platformasiga joylashtirishi lozim [8, b. 8-14].

Zamonaviy texnologiyalar muntazam takomillashib borgani sayin, tabiiyki, sohaning qonunchilik asoslari ham mustahkamlanib boraveradi. Bu borada Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va

zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda[9].

Yettinchi muammo – bu OTMlarda tegishli ta'lim yo'nalishlarida malakaviy amaliyotlarning yetarli emasligi hisoblanadi. Ya'ni, olingan nazariy bilimlarni amalda amaliyotda qo'llash masalasiga e'tiborni sustligidir. Ma'lumki biror bir kasbni egallashning tamal toshi bu amaliyot hisoblanadi. Oliy ta'lim tizimida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlashning muhim qismi bo'lgan talabalarning amaliyoti – fan-texnika, texnologiya va ishlab chiqarishdagi zamonaviy usullar, tajribalarni o'rgangan holda, kasbiy ko'nikma va amaliy malakalarni shakllantirishga asoslanadi. Malakaviy amaliyot talabalarda kasbiy faoliyatning mazmuni, maqsadi va usullarini chuqur anglashlarini ta'minlab, o'z navbatida ularning ishlab chiqarish jarayoni muhitiga kirishishi, adaptatsiyalashuviga hamda tegishli sifatlarini shakllantirishga zamin yaratadi.?

O'rinli savol tug'iladi – nega OTMlarda malakaviy amaliyotlarga yetarlicha e'tibor qaratilmagan? Buning javobi oddiy – OTMlarda olingan nazariy ta'limning talabalar tomonidan amaliyotda qo'llash uchun moliyaviy imkoniyatlar yetarli emas. Oliy ta'lim tizimidagi kadrlar siyosatining bir qismi talabalarning malakaviy amaliyoti hisoblanadi. Uni to'g'ri tashkil etish kelajakda kadrlar bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishga yechim bo'ladi. Shuning uchun talabalarning o'quv-tanishuv, ishlab chiqarish, pedagogik, dala, bitiruv oldi va boshqa turdagi amaliyotlarini mazmunli tashkil etish borasida uslubiy bazani ishlab chiqish va rivojlantirib borish hamda ishlab chiqarish korxonalarida mutaxassislik kafedralari filiallari, oliy ta'lim muassasalari huzurida ishlab chiqarish korxonalarini tarkibiy bo'linmalarini, texnoparklar, biznes inkubatorlar, kovorking markazlari faoliyatini tashkil etish, texnologiyalar transferini amalga oshirish orqali ta'limning ishlab chiqarish bilan samarali hamkorligini, bir so'z bilan aytganda, nazariya va amaliyot uzviyligini ta'minlashni rag'batlantirish lozim.

Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar ta'lim jarayonlarini jahon andozalariga moslashtirishni va eng samarali usullarga asoslanishni taqozo etmoqda. O'zbekiston ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y berayotgan, ta'lim jarayonini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatdan takomillashib borayotgan bir vaqtda turli ta'lim shakllari qatori masofadan o'qitishning talabalar bilan ishlashda keng qo'llanilayotganligi quvonchli hol. Albatta, ta'lim tizimining asosiy maqsadi ham yetuk, malakali, ma'naviyatli, ma'rifatli, mustaqil fikr yurita oladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iborat. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 16-moddasida masofaviy ta'limga quyidagi norma belgilab qo'yilgan: Masofaviy ta'lim o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan[10, b. 47-62]. Hozirda hayotning deyarli barcha sohalari kompyuter va axborot texnologiyalari ta'sirida tubdan o'zgardi. Bu kabi o'zgarish ta'lim sohasida ham o'z aksini topdi va an'anaviy ta'lim shakllari bilan bir qatorda, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan masofaviy ta'lim shakli ham paydo bo'ldi[11, b. 51-60].

Yangilanayotgan O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi tubdan isloh etilmoqda. Jumladan, xususiy oliy o'quv yurtlari ochilmoqda, xorijiy universitetlar filiallari soni ortmoqda, olis hududlarda ham universitet filiallari tashkil etilmoqda, 41 ta davlat oliy o'quv yurtlariga akademik va moliyaviy mustaqillik berildi. Shuningdek, oliygohlarga qabul so'nggi olti yilda 5 baravarga ortib, talabalar soni 1 milliondan oshdi. Qamrov esa 9 foizdan 41 foizga

oshdi. Misol uchun, 2016 yilda O'zbekistonda 77 ta oliygoh bo'lgan bo'lsa, hozirda ularning soni 216 tani tashkil qilmoqda. Oxirgi olti yilda grantlar soni 2 baravar ko'payib, 40 mingtaga yetdi. Shundan, magistratura uchun grantlar soni 5 baravar ko'paydi. Yuqoridagi holatlar oliy ta'lim tizimidagi mavjud muammolarni har jihatdan va atroflicha ilmiy tadqiq etish zarurati mavjudligini anglatadi. Oliy ta'lim sohasidagi muammolarni har tomonlama o'rganish ular haqida ilmiy asoslangan nazariy xulosalar ishlab chiqishga, uning mohiyatini anglab yetishga, oliy ta'lim sohasidagi davlat siyosatini mustahkamlashga hamda ularni huquqiy tartibga solish mexanizmini ishlab chiqishga zamin yaratgan bo'lar edi.

Iqtiboslar/Snoski/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-60 son Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2021 yil 25 dekabr.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-61 son Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2021 yil 25 dekabr.

3. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son).

4. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2016 yildagi "Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan muvaqqat malaka talablari" tasdiqlash to'g'risidagi 332-son va Vazirlik tasarrufidagi oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining lavozimlariga qo'yiladigan malaka talablarini tasdiqlash to'g'risidagi 2017 yildagi 240-son buyruqlari.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 824-sonli Qarori.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yilning 8 oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5847-son Farmoni.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28 fevralda "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" gi PF-27-son Farmoni.

8. Topildiyev V.R. Oliy ta'lim tizimini isloh qilishning me'yoriy-huquqiy ta'minoti xususida ayrim mulohazalar. 2017. Jurnal, Sovremennoye obrazovaniye (Uzbekistan), (6). – b. 8-14.

9. Topildiyev V.R. Zamonaviy texnologiyalarni fuqarolik-huquqiy fanlarning rivojlanishi va fuqarolik huquqiy munosabatlarga ta'siri // "Fuqarolik huquqiy fanlarini rivojlantirish tendensiyalari va fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish istiqbollari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. -T., 2022. – b. 47-62.

10. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son).

11. Topildiyev V.R. Masofaviy ta'lim xususida ayrim mulohazalar. 2023. Journal of Integrated Education and Research, 2 (2). – b. 51-60.

Baxramdjan FARFIYEV,

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi professori v.b.,

sotsiologiya fanlari doktori

e-mail: farfiyev_b@mail.ru

tel:+998935371341

DIN VA MADANIYAT INSTITUTLARI ALOQADORLIGINING SOTSIOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya. Ijtimoiy hayot bevosita sotsial institutlar tomonidan amalga oshirilayotgan funksiyalar tomonidan tashkil etilar ekan, bunda jamiyat ma'naviy hayoti bevosita din va madaniyat institutlarining hamkorligi bilan uzviy bog'liqligi masalasi dolzarb sotsial muammo sifatida gavdalanadi. Mazkur ilmiy maqolada aynan din va madaniyat institutlari o'zaro munosabatlari tadqiq etildi. Ayniqsa, jamiyat a'zolari mentalitetini shakllantirishda din va madaniyat institutlarining ijtimoiy funksiyalari katta ahamiyat kasb etishi ochib berilgan. Aynan ushbu nuqtai nazardan bu ikki muhim sotsial institutlarning zamonaviy jamiyatlardagi faoliyatlari nazariy va amaliy jihatlarda tahlil qilindi.

Tayanch iboralar: sotsiologiya, sotsial tizim, sotsial institutlar, funksiyalar, din, madaniyat, integratsiya.

СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЗАИМООТНОШЕНИЯ ИНСТИТУТОВ РЕЛИГИИ И КУЛЬТУРЫ

Аннотация. Поскольку общественная жизнь непосредственно организована функциями, выполняемыми социальными институтами, вопрос духовной жизни общества, непосредственно связанный с сотрудничеством религиозных и культурных институтов, интерпретируется как актуальная социальная проблема. В данной научной статье исследованы процессы взаимоотношения между религиозными и культурными институтами. Выявлено, что социальные функции религиозных и культурных институтов имеют особое значение в формировании менталитета членов общества. Именно с этой точки зрения, социальные функции этих двух важных социальных институтов в современных обществах анализируются в теоретическом и практическом аспектах.

Ключевые слова: социология, социальная система, социальные институты, функция, религия, культура, интеграция.

SOCIOLOGICAL ANALYSIS OF THE RELATIONSHIP OF INSTITUTIONS OF RELIGION AND CULTURE

Abstract. Since public life is directly organized by the functions performed by social institutions, the issue of the spiritual life of society, directly related to the cooperation of religious and cultural institutions, is interpreted as an actual social problem. This scientific article examines the processes of relationship between religious and cultural institutions. It has been revealed that the social functions of religious and cultural institutions are of particular importance in shaping the mentality of members of society. It is from this point of view that the activities of these two important social institutions in modern societies are analyzed in theoretical and practical aspects.

Key words: sociology, social system, social institutions, function, religion, culture, integration.

Kirish. Sotsial institut mavzusi sotsiologiyada dolzarb masalalarni qamrab oladi. Institut tushunchasi aslida sotsiologiya faniga huquqshunoslikdan o'tgan bo'lib, u lotincha "institutum" so'zidan olingan va ilmiy adabiyotlarda muassasa, o'rnatish, belgilash hamda tartiblash kabi ma'nolarini ifodalaydi [6, b. 116-118].

Tor ma'noda esa institut tushunchasi konkret oliy ta'lim muassasa, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradigan tashkilotning nomini belgilaydi. Masalan, Toshkent davlat farmatsevtika instituti, O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasining tarix instituti va hokazolar. Keng ma'noda esa sotsial institut jamiyat a'zolarining shaxsiy va ijtimoiy hayotlarini me'yorlaydi, muvofiqlashtiradi va tartiblaydi. [9, b. 146]

Shu sababli sotsial institutlar bajarayotgan funksiyalari tufayli jamoalar, sotsial guruhlar va sotsial qatlamlar a'zolarining o'zaro aloqalarining barqaror va asosli munosabatlari amalga oshadi. Chunki jamiyat yaxlit sotsial tizim sifatida mavjud ekan, uning barcha tarkibiy elementlari sotsial institutlar faoliyati asosida o'zaro hamkorlikka kirishadi. Buning natijasida esa sotsial tizim faoliyatining barqaror holati ta'minlanadi.

Xususan, din instituti ham mazkur sotsial tizimda o'zining munosib o'rniga egadir. Zero, u boshqa sotsial institutlar orasida eng ko'hnasi hisoblanadi. Din institutining ijtimoiy hayotdagi o'rniga sotsiologiya klassiklari ham o'z ilmiy asarlarida katta e'tibor qaratganlar. Taniqli frantsuz sotsiologi Emil Dyurkgeym din insonning mavjudligi uchun emas, aksincha, jamiyat mavjudligi uchun faoliyat ko'rsatadi degan fikrini ilgari surib, bunda dinning integratsiyalashtiruvchi funksiyasini alohida ajratib ko'rsatadi [5, b. 121].

Uning quyidagi xulosasi e'tiborga sazovordir: har qanday jamiyat o'zining yaxlitligini saqlashga muhtojdir va bu vazifa din bilan bog'liq jarayonlar yordamida amalga oshiriladi. Aynan shu nuqtai nazardan dinning ushbu sotsial vazifasini hech nima bajara olmaydi. Din huddi huquq va axloq kabi sotsial institut sifatida, real kuch tariqasida jamiyatning barqaror holatini belgilab beradi. Diniy e'tiqod va rasm-rusumlar tarixiy davrning barcha sharoitlarida o'zgarib borishidan qat'iy nazar jamiyatning integratsiyalashuv jarayonini amalga oshirish dinning funksiyasi tasarrufida qoladi. Zero, Dyurkgeym uchun din avvalambor, muhim sotsial hodisa sifatida jamiyat barqarorligi, yaxlitligi va tartibining asosidir [5, b. 120].

Tadqiqot metodologiyasi. Madaniyat muhim sotsial institut sifatida jamiyat a'zolarining mentalitetini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bunda u din instituti

bilan chuqur hamkorlikka kirishidi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mentalitet hodisasini tahlil qilish natijasida har qanday millatning mentaliteti strukturasi diniiy element ishtirokini kuzatish mumkin. Aynan shu holat bois, madaniyat milliiy mentalitetni shakllantiruvchi asosiy institutlardan biri sifatida din instituti bilan chambarchas bog'liqdir. Ammo ilmiy adabiyotlarda mazkur jarayonda ushbu ikki institutlardan qaysi bir dominantlik xususiyatiga ega degan savol azal-azaldan kun tartibiga qo'yib kelinayapti.


Ayrim olimlar din madaniyatning tarkibiy elementidir, degan pozitsiyada turadilar. Natijada ijtimoiy tafakkurda din madaniyat tizimining bir bo'lagi, degan qarashlar shakllana boshlandi. Biroq ba'zi tadqiqotchilar bunday yondashuvlarga qarshi bo'lib, din madaniyat tizimining elementi emas, balki aksincha, din madaniyatdan yuqori turadi va uning o'zi madaniyatning shakllantiradi, degan fikrni himoya qilishadi. Masalaga shu nuqtai nazardan yondashgan ingliz mutafakkiri Kristofer Douson dinni bejiz "tarixning kaliti", deb aytmagan. Uning ta'kidlashicha, diniy g'oyalarni tafakkur yordamida anglamasdan turib, madaniyat hodisasini tushunib bo'lmaydi. Douson dinning madaniyatga salohiyatli ta'sirini namoyish qilish maqsadida islom dinining vujudga kelishi sabablarini tadqiq qildi. Uning fikricha, yangi din yangi madaniyatni shakllantiradi. "Ovloq madaniy joyda yashovchi bir kishi (fikrimizcha, u Muhammad s.a.v. ni nazarda tutmoqda) ma'lum bir ijtimoiy harakatni paydo bo'lishiga sababchi bo'ladi. Bu harakat nisbatan juda qisqa vaqt ichida tarixiy imperiyalarni yakson etib, Senegaldan to Borneogacha bo'lgan masofada istiqomat qiluvchi millionlab kishilarning xulq-atvorini aks ettiradigan yangi turmush tarzini shakllantiradi... Badaviy arab, g'arbiy afrikalik qora tanli, malaylik qaroqchi, forsiy faylasuf, turk askari, hind savdogari kabi barcha kishilar yagona diniy tilda gapirishadi, yagona teologik arkonga e'tiqod qilishadi, yagona axloqiy qadriyatlarga ega bo'lishadi, yagona ijtimoiy kelishuvga bo'ysinishadi. Binobarin, musulmon arxitekturasi har bir mamlakatda o'zgachadir, lekin unda xuddi adabiyot, nutq va xulq-atvorda bo'lganidek qandaydir umumiy musulmonchilik barq urib turadi. Shunday qilib, islom hayotga yangicha qarash va yangi diniy ta'limotlar tufayli madaniyatda transformatsiya sodir bo'lishi natijasida asrlar davomida konservativ hisoblangan, irqiy va geografik doiradan chiqib ketgan yangi shakldagi sotsial institutlar paydo bo'lganligining yorqin namunasini ko'rsatib bera oldi" [4, b. 95].

Mamlakatimizning birinchi Prezidenti I. Karimov ingliz mutafakkirining yuqoridagi fikriga mos mulohazalarini ilgari surgani diqqatga sazovor: "Menga O'zbekistonda nima uchun madaniyat qadimiy, deb savol bersa shunday derdim: Avvalambor, dinimiz tufayli. Islom dini bo'lmasa agar, bizlar hech qanaqa bunday madaniyatga ega bo'lmasdik" [10].

Darhaqiqat, islom dinining milliiy madaniyat bilan bevosita va bilvosita aloqalari mentalitetimizda muhim o'rin tutadi. Shu bois, o'zbek milliiy mentalitetida o'z ifodasini topgan rasm-rusmlar, marosimlar, an'analar va urf-odatlarini islom dinining qadriyatlaridan sira ajratib bo'lmaydi. Bu holat esa milliiy mentalitetimizning salohiyatini yanada yuqori saviyaga ko'tarib, milliiy o'zligimizning negizini tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. Shu nuqtai nazardan qaraganda, diniy mazmundagi adabiyotlar milliiy-madaniy saviyamizning yuksalishiga xizmat qiladi. Buning uchun esa aholimiz, jumladan, ota-onalar diniy qadriyatlarni tarannum etuvchi bunday adabiyotlar bilan muntazam tanishib borishi lozim. Aks holda, farzand tarbiyasida jiddiy muammolar yuzaga keladi. Olib borilgan empirik sotsiologik tadqiqotimiz natijalari esa ushbu fikrimizga asos bo'ladi.

Tadqiqot 2018 yilning may-iyun oylarida "Ijtimoiy taraqqiyot va uning omillari" mavzuida reprezentativ tanlov asosida o'tkazildi va unda 1147 nafar respondent qatnashdi. Kishilarda diniy tafakkur shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiladigan omil –



1-rasm. Diniy mazmundagi adabiyotlarni o'qishga munosabat, %.

diniy savodxonlik holatini aniqlash maqsadida respondentlar e'tiboriga "O'zbekistonda chiqadigan, dinga taalluqli, davlat tomonidan ruxsat etilgan kitob va jurnallarni o'qib turasizmi?" degan savolni havola qildik.

Yuqoridagi diagrammada (1-rasm) o'z aksini topgan natijalardan yaxshi ma'lum bo'layaptiki, aksariyat respondentlar bunday mazmundagi kitob va jurnallarni o'qishga moyil ekanlar. Zero, islom dinida har bir musulim va musulimaning ilm olishi farz darajasida ko'tarilgan. Ushbu mantiqqa asoslanib, tadqiqotda ishtirok etgan erkaklar va ayollarning fikrlari bilan ham qiziqdik.

Jadval 1

Jinslar o'rtasidagi diniy mazmundagi adabiyotlarni o'qishga munosabat, %

No	Javoblar	Erkak	Ayol
1	Ha, o'qib turaman, chunki kishining diniy ilmga ega bo'lishi zarur	39,4	41,6
2	Yo'q, o'qimayman va bunga hojat yo'q, deb hisoblayman	19,2	15,6
3	Qiziqaman, lekin kasbim bilan shug'ullanish tufayli vaqt topolmayman	41,4	42,8

Erkaklar va ayollar o'rtasida bu masalada farq katta bo'lmasa-da, lekin ayollarda erkaklarga nisbatan diniy adabiyotlarni o'qishga qiziqish darajasi biroz yuqoriligi aniqlandi. Zero, tarix lavhalaridan ma'lumki, yurtimizda taniqli olimlar ko'plab yetishib chiqqani aynan islom dinida ayollarning erkaklar bilan teng darajada ilm olishga haqli bo'lish imkoniyatlari asosida sodir bo'lgan. Boshqa mamlakatlarda esa faqat XIX asrdan boshlab erkak va ayollarning ilmi bo'lish masalasidagi tengligi masalasi kun tratibiga qo'yila boshlandi.

Shu yerda bir jihatga e'tiborni qaratish joiz. Tadqiqotda ishtirok etganlarning 60% ga yaqini bunday adabiyotlar bilan tanishmasligini ma'lum qilgan ekan, demak, yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq ayrim jiddiy muammolar aynan ota-onaning islom dini ta'limotidan yetarlicha ma'lumotga ega bo'lmaganligi bois sodir bo'lmoqda.

Ayrim yoshlar diniy bilim sohasida o'zini bilag'on hisoblab, ota-onasining xohish-istagiga qarshi boradigan, o'zini ulardan aqlli deb hisoblaydigan bo'lib qolishdi. Fikrimizcha, bunga ota-onalarning o'zlari aybdor. Chunki har bir ota-ona farzandining birinchi ustoz bo'lishi kerak. Agar ota-ona farzandiga uni go'daklikdan islom dini madaniyati haqida ma'lumotni bersa, unda u ota-onasiga mehrlanib bo'lib voyaga yetadi. Buning uchun ota-onaning o'zi islom dini bo'yicha yetarli savodxon bo'lishi lozim. Natijada milliy madaniyatimizning muhim yo'nalishi – bolalar tarbiyasi qat'iy nazorat ostida bo'ladi va ularni begona kishilarning islom dini hukm va ko'rsatmalarini soxtalashtirishga yo'naltirilgan tashviqotining ta'siriga tushish xavf-xatari barham topadi. Bu borada mamlakatimiz rahbari Sh. Mirziyoevning quyidagi fikri ahamiyatlidir:

"Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz, ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim" [2, b. 125].

Mamlakatimiz rahbarining yuqorida bildirilgan fikrlariga tayanib, islom dini o'zining qadriyatlari bilan jamiyat madaniy hayotida, jumladan yurtimiz sharoitlarida ham muhim o'rin tutadi degan xulosani dadil ilgari surish mumkin. Buning asosiy sabablaridan biri – islom o'zining ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlari asosida fuqarolar ongiga faol ta'sir qilish imkoniga ega dindir. Rossiyalik olim G. Mirskiyning mazkur fikrlarimizga mos tarzda quyidagi ilmiy qarashlari diqqatga sazovor: "Islomni zamonamizning eng kuchli va hayotbaxsh dini, deb hisoblash mumkin. Hech bir boshqa dinda islomdagidek o'z e'tiqodlariga zo'r ixlos va butun vujudi bilan sodiq bo'ladigan ko'p sonli kishilar birlashmasi uchramaydi. Islom hayot asosi va barcha narsalarning mezoni bo'lib gavdalanadi. U o'ziga ko'plab tarafdorlarni jalb etmoqda. Mazkur din asoslarining oddiyliigi va ziddiyatli bo'lmaganligi, unda murakkab metafizik konstruksiyalarning mavjud emasligi, dunyo va jamiyatning to'liq hamda tushunarli manzarasini bera olishga qodirligi – bularning barchasi yangi kishilarni islomga ommaviy tarzda qiziqishiga xizmat qilmoqda. Islomni nima, deb atashmadi "kambag'allar sivilizatsiyasi", "qoloq din", "eng urishqoq din", "toqatsizlik va fanatizm dini", "sahroliklar dini", "insonni poyonsiz tarzda kamsituvchi din". Biroq, ushbu yorliqlarning hech biri musulmon e'tiqodining asl mohiyatini aks ettira olmaydi" [7, b. 1].

Masalaning mazmun-mohiyatini ochib berishda eronlik tadqiqotchi F. Muslixabadining mantiqiy fikrini maqsadga muvofiq hisoblaymiz. U o'z tadqiqotida jumladan, quyidagilarga alohida urg'u beradi: "Ma'lumki, din insoniyat tarixining barcha bosqichlarida madaniyat, san'at va adabiyotning shakllanishida muhim rolni o'ynadi. Ayniqsa, Sharq xalqlarining madaniyat qadriyatlari strukturasi o'z o'rnini topishga muvaffaq bo'ldi.

Albatta, O'rta asr musulmon jamiyati g'oyaviy hayotining ommaviy shakli bevosita ma'naviy-diniy mazmun kasb etgan. Biroq, jamiyat taraqqiyotining keyingi davrlarida islom faqat diniy e'tiqod shakli sifatida qolmadi. Aksincha, endi u jamiyat hayotini muvofiqlashtiruvchi muhim sotsial omil hamda Sharqdagi ko'plab xalqlarining madaniy boyligi bo'lib gavdalandi" [8, b. 58].

Mamlakatimiz Konstitutsiyasining 75-moddasida diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgani belgilab qo'yilgan [1].

Biroq, diniy jamiyatimiz hayotidan aslo ajratib bo'lmaydi. Shuning uchun din va madaniyat institutlari mutaxassislarining o'zaro hamkorligi jamiyatimizda uchrab turgan qonunbuzarlikning har xil turlarini sodir etilishining oldini olish uchun o'z kuch-g'ayratlari, bilim va malakalarini sarflayotganliklari ijobiy holdir. Olib borilgan amaliy tadqiqotimiz natijalari yuqoridagi fikrimizga empirik ma'lumot sifatida xizmat qiladi.

Jamiyat a'zolarining ibratli ma'naviy qiyofasi ijtimoiy taraqqiyotga ulkan ta'sir ko'rsatishi azaldan ma'lum ekan, shuning uchun kishilarni axloqsizlikdan qaytarish jamiyat oldida turgan eng asosiy masalalardan biri bo'lib gavdalanadi. Ayniqsa, hozirgi kunda G'arb jamiyatidan mamlakatimiz hududiga kirib kelishga astoydil harakat qilayotgan "Ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'sirlariga qarshi kurashish dolzarb ijtimoiy vazifa hisoblanadi. Ushbu xulosamizga tayanib, tadqiqot so'rovnomasida **"Kishini axloqsizliklardan tiya oladigan asosiy omil nima?"** degan savolni qo'ydik va respondentlarning javoblari hududlar bo'yicha quyidagi ko'rinishni hosil qildi.


Jadval 2.

Kishini axloqsizliklardan tiya oladigan asosiy omillar,%

No	Javoblar	Jizzax	Buxoro	Xorazm	Namangan	Qashqadaryo	Nukus shahri	Amudaryo tumani	Toshkent shahri
1	Milliy axloq-odob va ma'naviylikka tayangan oilaviy tarbiya	50,9	44,8	57,2	58,0	71,6	76,1	79,6	38,9
2	Diniy tarbiya va uning asosida gunoh ishlarni qilishdan qo'rqish	22,6	31,2	24,8	32,0	7,9	20,9	7,4	47,4
3	Mahalla va jamoatchilik oldidagi sharmandalikdan qo'rqish	21,7	24,0	8,9	6,6	10,2	0,0	12,9	6,8
4	Javob bermagan	4,8	0,0	9,1	3,4	10,3	3,0	0,1	6,9

Demak, olingan natijalar tahliliga ko'ra, milliy axloq-odob va ma'naviylikka tayangan oilaviy tarbiya bu masalada yetakchilik qilgan. Lekin o'zbek oilalaridagi milliy axloq-odob va ma'naviylikka tayangan oilaviy tarbiya har doim dunyoviylik va diniylikni o'zaro uyg'unlashgan shaklida olib borilganini e'tirof etish joiz. Mazkur fikrimizni tasdiqlash maqsadida navbatdagi savolni "Jinoyatchilik, giyohvandlik, alkogolizm, fohishabozlik, poraxo'rlik kabi muammolarni bartaraf qilishda islom axloqi muhimmi?", deb nomladik. Unga olingan natijalar diagrammada (2-rasm) o'z aksini topdi.

Baxtga qarshi, mazkur muammolar bizning jamiyatda ham uchrab turibdi. Ularni bartaraf qilish uchun esa davlatimiz tomonidan katta amaliy ishlar olib borilmoqda. Bu jarayonda turli soha mutaxassislari astoydil faoliyat olib borishmoqda. Jumladan, muammo yechimiga mos mexanizmlarni ishlab chiqish maqsadida olib borilayotgan islohotlarda diniy soha vakillari ham chetda qolishmayapti. Zero, bu muammolar va ularning oqibatlarini islom dinida ham keskin qoralanadi. Hududlarimizda istiqomat qilayotgan aholimiz ham unga qarshi kurashda islom dinining qadriyatlariga tayanish zarurligini alohida ta'kidlashmoqda.



2-rasm. Jinoyatchilik, giyohvandlik, alkogolizm, fohishabozlik, poraxo'rlik kabi muammolarni bartaraf qilishda islom axloqining muhimligi, %.

Xulosa va takliflar. Demak, din va madaniyat institutlari o'zaro aloqalarining tarixi uzoq o'tmishdan boshlanib, hozirgi kunda ham barqaror tarzda davom etmoqda degan xulosaga kelishimiz mumkin. Mazkur aloqadorlik esa ijtimoiy hayotimizdagi mavjud dolzarb muammolar yechimiga mos keladigan yondashuvlarni ishlab chiqishda sermahsullik kasb etadi. Ayniqsa, hozirgi kunda aholining asosiy qismini tashkil qilayotgan yoshlarga oid qatlamini ular dunyoqarashining shakllanishi jarayonida duch kelinayotgan jiddiy sotsial muammo – "Ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'siridan munosib tarzda himoyalashda diniy va dunyoviy-madaniy qadriyatlarining uyg'unligi bosh omil bo'lib xizmat qilishi isbot talab qilmaydigan aksiomadir.

Shuningdek, har qanday jamiyatning barqarorligi oila mustahkamligi bilan bevosita bog'liq ekan, bunda oilaning ijtimoiy ahamiyati ham oshib boraveradi. Oilaning mustahkamligi bir qator omillarga bog'liqligini e'tirof etib, ular ichida islom qadriyatlarining o'rni qanday ekanligini respondentlar juda yaxshi ko'rsatib berdilar.

Tadqiqotimizning aksariyat qatnashchilari o'zbek oilalari mustahkamligiga islom dini ta'sirini ijobiy baholadilar. Masalaga shunday mantiqdan yondashilsa, ya'ni joylarda mutasaddi kishilar oilaviy nizolarni bartaraf qilishda islom dini va milliy-madaniy qadriyatlari yanada chuqurroq tayansalar, ajab emaski, bunday nizolarni kelib chiqish ildizlari o'z vaqtida kesiladi

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. // Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – Toshkent: "O'zbekiston". 2018.
3. Гараджа В.И. Социология религия. – Москва:"ИНФАРМА", 2007.
4. Доусон К. Религия и культура. // Пер. с англ. – СПб: "Алетейя", 2000.
5. Дюркгейм Э. Социология религии и теория познания. //Христоматия по социологии религии. Под ред. Гараджа В.И. – Москва:"Аспект-Пресс", 1996.
6. Современная западная социология (словарь). – Москва:"Политиздат".1990. -С. 116-118.
7. Мирский Г.И. Ислам: история и современность. 2010/ http://www.hist.msu.ru/Journals/NNI/pdfs/Mirskij_2010.pdf
8. Муслихабади Ф.М. Основные аспекты сбалансированного подхода в исламском рационализме. //Вестник КазНУ. Серия востоковедения. №2 (59). 2012.
9. Farfiyev B.A. Sotsiologiya. – Toshkent:"O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2022.
10. <https://kun.uz/news/2018/08/21/video-islom-karimov-islom-dini-akida>

Shoxida SODIQOVA,
Ozbekiston xalqaro islom akademiyasi professori,
sotsiologiya fanlari doktori
E-mail: sodiqova_s@gmail.com

IJTIMOY HIMOYANING TIZIM SIFATIDA TARKIBIY TUZILMASI VA FUNKSIYALARI

Annotatsiya. Maqolada ijtimoiy himoya tizimini sotsiologik o'rganishda asos bo'lib xizmat qiluvchi nazariy yondashuvlar tahlil qilingan. Bunda mumtoz sotsiologiya vakillari tomonidan ijtimoiy stratifikatsiya, ijtimoiy himoya, ijtimoiy nochorlik, kambag'allik, ijtimoiy tahlikalar kabi tushunchalar sotsiologik tadqiqotlarda alohida ahamiyatli ilmiy kategoriyalar sifatida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: metodologiya, nazariya, empirika, himoya, muhtojlik, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy nochorlik, kambag'allik, ijtimoiy himoya, sotsiologik protsedura, ijtimoiy tahlika, ijtimoiy tahdid.

СТРУКТУРА И ФУНКЦИИ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ КАК СИСТЕМЫ

Аннотация. В статье анализируются теоретические подходы, служащие основой в социологическом исследовании системы социальной защиты. При этом такие понятия, как социальная стратификация, социальная защита, социальная беспомощность, бедность и социальные опасности, анализировались представителями классической социологии как особо важные научные категории в социологических исследованиях.

Ключевые слова: методология, теория, эмпирика, защита, нужда, социальная политика, социальная беспомощность, бедность, социальная защита, социологическая процедура, социальная опасность, социальная угроза.

STRUCTURAL STRUCTURE AND FUNCTIONS OF SOCIAL PROTECTION AS A SYSTEM

Abstract. The article analyzes the theoretical approaches underlying the sociological study of the social protection system. At the same time, such concepts as social stratification, social protection, social helplessness, poverty, and social threats were analyzed by representatives of classical sociology as particularly important scientific categories in sociological research.

Key words: methodology, theory, empiricism, protection, need, social policy, social helplessness, poverty, social protection, sociological procedure, social threat, social threat.

Kirish. Ijtimoiy himoyaning turlari va shakllari borasida ilm-fanda turli-tuman fikrlar mavjud. Xalqaro mehnat tashkilotining ta'rifida ushbu tizim nafaqat ijtimoiy tahlikalardan kishilarni himoyalash, balki sog'liqni saqlash, ta'lim olish, maishiy darajadagi muammolar yechimini topishda ko'maklashishni ham nazarda tutadi. Boshqa ta'riflarda esa ijtimoiy himoya davlatning har bir shaxs rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan faoliyati va aholining kam ta'minlangan qatlamlarini himoyalash sifatida tavsiflanadi. Bunda ijtimoiy himoya jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy tartibot sifatida qabul qilinib, kishilar jamiyatda o'z o'rni (maqomi)ni shakllantirishi va mustahkamlanishidan manfaatdorlikni ifodalaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ayrim mualliflar ijtimoiy himoyaning tashkiliy komponentlari sifatida ijtimoiy sug'urtalash, ijtimoiy yordam, ijtimoiy xizmat, deb ko'rsatsalar (A.Yakovleva, V. Yuodeshko), boshqa mualliflar ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minotni nazarda tutadilar (M.Stepanova, L.Laskina, A.Yakovleva, G.Suleymanova). Bunda ijtimoiy himoya jamiyatning har bir a'zosining hayotiy muhim ijtimoiy huquqlarini himoyalovchi iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy kafolatlarning sohalararo aloqadorlikdagi yaxlit tizimi sifatida tavsiflanadi. Uning maqsadi esa barchaga teng ijtimoiy imtiyozlarni kafolatlashdan iborat. Ijtimoiy himoya chora-tadbirlari davlat ijtimoiy siyosati komponenti sifatida: a) tibbiy-ijtimoiy xizmat, ijtimoiy kafolatlar, ijtimoiy sug'urtalanishda teng imkoniyatlar; b) ijtimoiy himoya chora-tadbirlarining uzluksizligi, fuqarolarning individual ehtiyojlariga yo'naltirilganligi, ijtimoiy adaptatsiyaning ustuvor yo'nalishi sifatida olinadi (A.Savinov, T.Zaremba)[1]. Biz 200 dan ortiq maxsus ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy himoyaning tashkiliy komponentlari haqida fikrlarni kontent-tahlil qilish davomida ijtimoiy himoyaning tashkiliy-tuzilmasini quyidagi mezonlar asosida turkumlab oldik, bular:

1) Qamrov ko'lami bo'yicha: a) yalpi (aholining barcha qatlamlarini istisnosiz qamrab oluvchi); b) maxsus yoki differensiallashgan (kategorial) – aholining alohida qatlamlariga yo'naltirilgan; v) favqulodda holatlarda (maxsus normativ aktlarga o'rnatilgan holatdan kelib chiqib, baxtsiz hodisalar, tabiiy-texnogen ofatlar) himoyalash.


2) Funktsional vazifalari bo'yicha: a) kompensatsiyalovchi – aholining turli qatlamlariga mansub shaxslar uchun teng imkoniyatlarni yaratishdan iborat (nogironlar, yetimlar); b) stimullovchi – kishilarni ijtimoiy foydali faoliyatga undashni maqsad qilib oladi.

3) Oraliq bo'g'inning mavjudligi bo'yicha: a) bevosita (pensiya, ko'mak pullari, ijtimoiy xizmat ko'rsatish va h.k.); b) bilvosita (masalan, imtiyozlarni taqdim etish).

4) Fuqarolarning ishtiroki darajasiga ko'ra: a) faol (bandlik xizmati orqali ishga joylashish, jamoatchilik ishlarida qatnashish, jamg'arilib boruvchi pensiya to'lovlarini amalga oshirish, ijtimoiy sug'urtaning qo'shimcha shakllaridan foydalanish); b) passiv (pensiya, ko'mak pullari, ijtimoiy xizmatlarning passiv foydalanuvchisi).

5) Ijtimoiy himoya obyekti bilan o'zaro ta'sir vositalariga ko'ra: a) individual – (social casework) markaziy konsepsiyasiga binoan inson muammolari yechimining eng samarali strategiyasi individning irodaviy xususiyatlarini mustahkamlash va qo'llab-quvvatlashdan iborat; b) guruhli – kishiga uning jismoniy va ma'naviy kuchini rivojlantirish maqsadida guruhli tajribani uzatish orqali yordam berish, guruhli faoliyatni tashkil qilish va guruh a'zolarining ijtimoiy faolligini oshirish yoki intensiv muloqotda individual tajriba hamda o'z-o'zini anglash ko'lamini kengaytirish; v) jamoaviy – turli jamoatchilik tashkilotlari va guruhlari hamda mahalliy, mintaqaviy yoki umumdavlat darajadagi tashkilotlar vakillari bilan o'zaro munosabatiga asoslanadi.

6) Ijtimoiy himoya shakllari bo'yicha: a) ijtimoiy ta'minot (davlat ta'minoti); b) ijtimoiy sug'urta; v) ijtimoiy yordam; g) ijtimoiy xizmat shaklidan iborat ekanligi va ushbu shakllar muayyan davlatning ijtimoiy himoya tizimida farqlanishi.



1-rasm. Ijtimoiy himoya tizimining tashkiliy tuzilmasi va tarkibiy elementlari.

7) Ijtimoiy himoya subyekti-obyekti o'rtasida munosabatlarning reglamentlari: a) shartnoma asosida (pullik yordam va xizmat turlari); b) normativ aktlar asosida shartnomasiz – bepul va imtiyozli ta'minot hamda xizmatlar (1-rasm).

Ijtimoiy himoya tizimlar nazariyasida dinamik va strukturali-funksional modelni hosil qiladi[2]. Ijtimoiy himoyaning dinamikligi uning zamon (vaqt) davomida xatti-harakatini anglatadi, strukturali-funksionalligi ijtimoiy himoyaning funkcionalligi, harakati, holati va tarkibning o'zgarib borishini nazarda tutadi. Ushbu modelga muvofiq, ijtimoiy himoya tizimining ichki elementlari va uning davlat ijtimoiy siyosatining komponenti sifatida o'zaro munosabatlar yig'indisi shakllanadi.

Tahlil va natijalar. Ijtimoiy himoya – davlat fuqarolarning konstitutsion huquqlari va "minimal kafolatlar" (davlatning minimal ijtimoiy standartlariga kiruvchi mehnatga haq to'lash, pensiya ta'minoti, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, ijtimoiy xizmat, maishiy-turar joy xizmati)ni ta'minlash bo'yicha yuritiladigan siyosati bo'lib, unda aholining ayrim toifalari (yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, kam ta'minlangan oilalar) ijtimoiy to'lovlar va ijtimoiy xizmat birligi asosida qo'llab-quvvatlanadi. "Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug'ati"da ijtimoiy himoya jamiyatda qaror topgan va mamlakat aholisining ijtimoiy hamda moddiy muhofaza qilinishini ta'minlaydigan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmui", – deb izohlangan[3]. Bunda ijtimoiy yordam manzilli xususiyat kasb etib, unga da'vogarlik qilayotgan shaxslarda muhtojlik darajasi oldindan tekshirib ko'riladi. Mazkur jarayonda kishining yashash uchun zaruriy daromad manbayiga ega emasligi yoki oylik maoshi "yashash minimum"idan past ekanligi asosiy mezon sanaladi. Ijtimoiy yordam pullik yoki moddiy (natura – oziq-ovqat, dori-darmon va h.k.) bo'ladi. Ijtimoiy yordam moddiy jihatdan qiynalgan fuqarolar va oilalarni davlat yoki jamiyat mablag'lari hisobidan moddiy-ijtimoiy himoyalash shakli hisoblanadi.

Ijtimoiy yordamning tashkiliy asosi davlatning ijtimoiy dasturlari sanaladi. Ushbu dasturlarda aholiga ko'rsatiladigan majburiy yordam turlariga ijtimoiy tahlikalarning oqibatlarini bartaraf qilish yoki salbiy ta'sirini susaytirishga yo'naltirilgan moddiy yordam

turi kiradi. Ijtimoiy yordam dasturlari murakkab vaziyatga tushib qolgan kishilarga yo'naltiriladi[4]. Bulardan kam ta'minlanganlik, kambag'allik va bolali oilalarga ko'mak pullarini ajratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy yordamning qo'shimcha turlari jamoatchilik tashkilotlari va xayriya jamg'armalari, ixtiyoriy shaxslar faoliyati orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy yordamning asosiy yo'nalishlaridan biri kam ta'minlangan aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlash dasturlari bo'lib, ular davlat mablag'lari evaziga moliyalanadi. Shuningdek, kam ta'minlangan aholi qatlamlariga turar-joy subsidiyalari ajratiladi.

Ijtimoiy yordamning faol yoki sust shakllari tafovutlanadi. Faol ijtimoiy himoya differensial-preventiv xususiyat kasb etadi. Aholini muhtojlikka tushiruvchi ijtimoiy tahlikalarning oldini olish va ularning salbiy oqibatlaridan himoyalashga qaratiladi. Bu esa mehnatga yaroqli aholiga qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish, yangi kasb-hunarga o'qitish, doimiy daromad manbayiga ega bo'lish uchun shart-sharoit yaratish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash kabilarni tashkil qiladi. Ijtimoiy yordam muddatli xususiyat kasb etib, uning bosh maqsadi uzoq muddatli moddiy ta'minot emas, muayyan davrda moddiy ta'minlab turish evaziga kishining muhtojlik (kambag'allik)dan chiqib, mustaqil daromad topish imkoniyatini qo'llab-quvvatlashdan iborat. Sust chora-tadbirlarga ijtimoiy ojiz qatlamlarning turmush darajasini qo'llab-quvvatlash maqsadida ishsizlikdan, kam ta'minlanganlik, bolalar parvarishi uchun posobiyalarni to'lab berish, uy-joysiz qatlamlarni moddiy qo'llab-quvvatlash kiradi.

Ijtimoiy ta'minot – davlat tomonidan qonunchilikda o'rnatilgan tartibda yuridik faktlar asosida muayyan kishilarga ko'rsatiladigan tashkillangan yordam turi. Uning ommalashgan shakli bu – pensiya ta'minoti bo'lib, keksalik, nogironlik, yetimlik, kam ta'minlanganlik, ishsizlikdan himoyalash shakli moliyaviy to'lovlar sanaladi. "Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug'ati"da bu to'lovlar ijtimoiy nafaqa, deb tavsiflanadi. U mehnat faoliyati bilan shug'ullanmaganligi tufayli, davlat ijtimoiy sug'urtasi bilan sug'urtalanmagan va tegishli mehnat stajiga ega bo'lmagan fuqarolarga davlat tomonidan beriladigan budjet hisobidan amalga oshiriladigan to'lov turi hisoblanadi[5]. Ijtimoiy ta'minot Mehribonlik uylari, Muruvvat uylari, maxsus maktab-internatlar, Saxovat uylari kabi institutsionallashtirilgan muassasalarda yoki mehnat layoqatiga ega bo'lmagan nogironligi bo'lgan shaxslarga pul to'lovlari yoki dori-darmon va protezlash uskunalari bilan ta'minlashni nazarda tutadi. Bunday shaxslar o'zini-o'zi mustaqil moddiy ta'minlash imkoniyati cheklanganligi bois davlatning uzoq muddatli moliyaviy ta'minotida qoladi. Uzoq muddat davomida ta'minlab turish ijtimoiy ta'minot sohasini iqtisodiyotning tarmog'iga aylantirdi. Maxsus adabiyotlar va turli ilmiy tadqiqotlarda ijtimoiy yordam hamda ijtimoiy ta'minot tushunchasining chalkash tavsiflarini ko'ramiz. Biz bu boradagi fikrlarni umumlashtirish asosida ushbu ikki tushuncha o'rtasidagi tafovutni quyidagicha izohlaymiz: "Ijtimoiy ta'minot" davlat tomonidan kishilarni uzoq muddatli yoki doimiy moliyaviy ta'minotini nazarda tutsa (shu sababli ayrim manbalar "davlat ta'minoti" tushunchasi ishlatiladi), ijtimoiy yordam murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan aholi qatlamlarida muhtojlikning real mezonlari asosida o'rnatish muddatli to'lovlar bilan manzilli qo'llab-quvvatlash va ularning muhtojlik (kambag'allik)dan chiqib ketishiga zaruriy shart-sharoitlar, imtiyozlarni yaratib berishga yo'naltiriladi.

Ijtimoiy sug'urtalash – ijtimoiy tahlikalarni boshqarishni ta'minlashga yo'naltirilgan iqtisodiy munosabat shakli sanaladi. Ijtimoiy sug'urtaning majburiy va ixtiyoriy shakllari farqlanadi. Majburiy ijtimoiy sug'urta iqtisodiy faol aholi qatlamini keksalikda, farzand tug'ilishi, ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalar, yoki kasb kasalligi bois mehnat qobiliyatining butkul yoki qisman yo'qotilishida, boquvchisi yo'qotilganda, ishsizlikdan himoyalashda davlatning budjetdan tashqari (pensiya) jamg'armasidan to'lab beriladi. Bular

ishsizlik posobiyalari, kasallik varaqalarini to'lab berish, pensiya to'lovlari bo'lib, ular kishining shaxsiy mehnati evaziga to'plangan pensiya jamg'armalari yoki vzoslar hisobidan qoplanganligi bois xayriya yoki g'amxo'rlik shakli hisoblanmaydi. U kishining ixtiyoriy tanlovi asosida hayotini, tibbiy xizmatlarni sug'urtalash nodavlat sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urtalanuvchi shaxsning vzos to'lovlarini amalga oshirib borish sharti evaziga kafolatlanadi. "Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug'ati"da ijtimoiy sug'urta xodimlar qariganda, mehnat qobiliyatini qisman yoki to'liq yo'qotganida, boquvchidan mahrum bo'lganida, shuningdek, ularning yo'qotilgan ish haqlarini qoplash hamda sog'liqlarini muhofaza qilish maqsadlarida moddiy ta'minot olishlari uchun maxsus yordam ko'rsatish tizimi sifatida tavsiflanadi. Ijtimoiy sug'urtalash tizimi Yevropa ittifoqi davlatlarida rivojlangan bo'lib, kishining Yevropaning qaysi davlatida ishlashidan qat'i nazar ish beruvchilar tomonidan bepul tibbiy yordam olish, kompensatsiya va posobiya, pensiya to'lovlari paketi kafolatlandi. Ushbu ta'riflardan ko'rib turganimizdek, ijtimoiy sug'urta ijtimoiy ta'minot kabi aksar holatda iqtisodiy munosabat shakli sifatida olinadi. Uning ijtimoiy yordamdan farqlanuvchi jihati ham shunda bo'lib, ijtimoiy sug'urta aholining mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan iqtisodiy faol qismiga nisbatan qo'llaniladi. Ijtimoiy sug'urta nuqtali (bir martalik) pulli to'lov shaklida amalga oshiriladi. Ijtimoiy tahlikalarning oqibatlarini bartaraf etishda ijtimoiy sug'urtalashning ahamiyati katta. Ijtimoiy sug'urtalash tizimi mehnat qobiliyatining vaqtinchalik yo'qotilishi, ishlab chiqarish shikastlanishlari va baxtsiz hodisalar, kasb kasalliklaridan sug'urtalanadi. Bunda sug'urtalangan ishchi-xodimlarning standartlashtirilgan guruhi mehnatga qobiliyatsizlik kunlari, mehnat qobiliyatining yo'qotilganlik darajasi, mehnat qobiliyatini yo'qotgan va nogiron bo'lib qolgan shaxslarning o'rtacha yoshi hisob-kitob qilinadi.

Ijtimoiy xizmat – bu professional kasbiy intizomga asoslangan faoliyat turi bo'lib, uning asosiy maqsadi muhtoj (murakkab hayotiy vaziyatdagi) kishilarga professional ko'maklashish orqali jamiyat farovonligini yaxshilashga qaratilgan. Ijtimoiy xizmatning obyekti ijtimoiy risk holatidagi oilalar bo'lib, ularning u yoki bu subyektiv-obyektiv sabablar bois ijtimoiy faoliyati murakkablashgan bo'ladi. Ijtimoiy xizmat xodimlari insonlarni qo'llab-quvvatlash, ularga kompleks yordam berish uchun sog'liqni saqlash, ta'lim xizmatlarini jalb etish maqsadida ular bilan hamkorlik qiladi va buni qonuniy amalga oshiradi. Ijtimoiy xizmat ko'rsatish obyekti, ota-ona qaromog'isiz qolgan bolalar, kam ta'minlangan va ko'p farzandli oilalar, tarkibida nogironligi yoki mehnatga layoqatsiz uzoq muddatli kasal a'zosi bo'lgan oilalar, tabiiy-texnogen ofatlardan aziyat chekkanlar, ishsiz fuqarolar, murakkab vaziyatdagi keksa kishilar. Bu sohalararo yordam ko'rsatishning professional zamonaviy usuli bo'lib, tibbiy-reabilitatsion, huquqiy, psixologik, pedagogik va ijtimoiy-huquqiy masalalarda alohida ehtiyojga ega bo'lgan kishilarni qo'llab-quvvatlash hamda yordam ko'rsatish bo'yicha kompleks ish olib borishdir.

Ijtimoiy himoyaning qayd etilgan tashkiliy shakllari yordamni tashkil etish va amalga oshiruvchi subyektlar, yordamning aholining muayyan qatlamiga yo'naltirilganligi, yordam ko'rsatishning maqsad-vazifalari va moliyalash manbalari bilan farqlanadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ijtimoiy himoyaning shakllari borasida o'rganilgan fikrlar va yondashuvlar bizga uning ijtimoiy ta'minot hamda ijtimoiy sug'urta shakli, asosan, iqtisodiyot fanlari doirasida o'rganiluvchi va iqtisodiy-moliyaviy ahamiyati yuqori bo'lgan shakli sifatida talqinlaymiz. Dissertatsiya ishi doirasida ijtimoiy himoyaning ijtimoiy yordam va ijtimoiy xizmat ko'rsatish shaklini tom ma'noda sotsiologik ahamiyatga ega, deb bilamiz. Ijtimoiy yordam va ijtimoiy xizmat birligida amalga oshiriluvchi ijtimoiy himoya chora-tadbirlarini ilmiy tadqiqot ishimizning nazariy-empirik asosida yotuvchi kategoriyalar sifatida olamiz. Ijtimoiy himoyaning barcha turdagi shakllari va yo'nalishlari aholining

instisnosiz barcha qatlamlari uchun birdek daxldor bo'lgan quyidagi minimal kafolatlarini ta'minlaydi, bular quyidagilardan iborat:

a) "optimal yashash minimumi" – ishsizlikdan himoyalash, imkon qadar bandlikni ta'minlash, mehnatga haq to'lashda adolatli minimal darajani o'rnatish, mazmunli hordiq uchun real imkoniyatlarni taqdim etishga yo'naltirilgan;

b) yosh, nogironlik, kambag'allik va boshqa turdagi hayotiy muhim ko'rsatkichlar asosida qat'iy reglamentlashgan sifatli hamda qamrovli ijtimoiy ta'minotni taqdim etish;

v) ijtimoiy boshpana huquqi asosida ijtimoiy normalariga munosib turar-joyga da'vogarlik huquqi;

g) bepul va sifatli tibbiy xizmat (tibbiy xizmatlar nomenklaturasida ko'rsatilgan imtiyozli turlaridan foydalanishda);

d) bepul va sifatli ta'lim olish;

e) iste'molchi sifatida sifatsiz va kontrafakt mahsulotlar ishlab chiqaruvchilardan himoyalash.

Bunda ijtimoiy himoya subyektlari (davlat boshqaruv organlari, davlat, nodavlat va biznes tuzilmalari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari) tomonidan mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy zahiralarni oqilona taqsimlanadi va aholining turmush sifati oshirib boriladi. Ijtimoiy himoya tizimini boshqarish davlat, jamoatchilik va mahalliy boshqaruv tizimlarida iyerarxik va geterarxik tamoyil asosida tizimosti tuzilma sifatida quriladi. Sotsiologiya fanlari doktori T. Matibayev: "Ijtimoiy himoyalash tizimini boshqarishda infrastruktura yo'nalishlari, xususan, maishiy-kommunal xo'jalik, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ta'lim va madaniyat, maishiy xizmat... Savdo, passajir transporti, aloqa, tabiatni muhofaza etish muassasalari faoliyatida hamkorlik tamoyillari muhim ahamiyat kasb etadi[6]. Zero, aholini ijtimoiy muhofazalash subyektlarining o'zaro aloqalari va munosabatlarining shunday murakkab tizimidirki, ularning yalpsi davlatning o'z fuqarolariga nisbatan olib boradigan aniq harakatlarida namoyon bo'ladi. Bu ma'noda, davlatning unikalligi shundaki, u jamiyatda barqarorlik, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash, aholining turli qatlamlari o'rtasida tengsizlikni bartaraf qilishda keng qamrovli siyosiy va huquqiy vakolatlarga ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat va mansabdor shaxslar jamiyat hamda fuqarolar oldida mas'uldirlar"[7], – deb o'rnatilgan. Davlat boshqaruvi ijtimoiy himoyaning yaxlit, muvozanatlashgan tizimi sifatida aholining birlamchi ehtiyojlarini qondirishga yo'naltiradi, taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini oshiradi va ko'lamini kengaytiradi. Davlat ijtimoiy himoya tizimini boshqarishda subyektlar va obyektlarning rejali tashkillangan, tizimli o'zaro munosabatlarini tartiblaydi, tizimni moliyalash ishlarini nazorat qiladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, zamonaviy jamiyatlarda davlat ijtimoiy siyosatning bosh subyekti sanalsa-da, davlat bu borada yagona subyekt emas.

Xususan, postmodern tanqidchilik doirasida fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy siyosat subyekti sifatida sotsiologik tavsiflandi (L.V.Konstantinova). Bunda "uchinchi sektor" modeli yangi, ijtimoiy progressiv g'oyalarni amaliyotga tatbiq etishda multi-hamkorlikni nazarda tutadi. O'zini-o'zi boshqarish organlari, NNTlar aholi uchun ijtimoiy xizmatlarni yetkazib beruvchi ijtimoiy provayderlardan biri sifatida ta'riflanadi. Ijtimoiy himoya tizimi, asoson, davlat budjeti hisobidan moliyalanadi. Aholining ijtimoiy-moddiy ahvolini yaxshilash vazifalarini hal qilishda davlat manbalari bilan bir qatorda mehnat jamoalari, jamoat va xayriya tashkilotlarining mablag'larini yanada keng jalb qilish, nodavlat-notijorat tashkilotlar tomonidan ijtimoiy himoyani kengaytirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining roli va mavqeyini oshirish bilan bog'liq faoliyatni

yanada kuchaytirish talab etiladi[8]. Aholini ijtimoiy himoyalashda nodavlat subyektlarining ijtimoiy salohiyatidan davlat ijtimoiy tizimining jamiki modellarida faol qo'llaniladi. Aynan nodavlat va jamoatchilik tashkilotlari hamda xususiy sektor bilan ijtimoiy sherikligi ijtimoiy himoya tizimining yangi darajaga ko'tarilishida sotsial impuls rolini o'taydi. Ijtimoiy siyosatning nodavlat subyektlari, bir tomondan, ijtimoiy siyosatning aksariyat davlat doirasida cheklanuvchi ilmiy tadqiqotlari ko'lamini kengaytirsam, ikkinchi tomondan, nodavlat tashkilotlari, jamoatchilik institutlarining nostandart va dinamik o'zgaruvchan shakllarini o'rganish imkonini beradi. Bunda NNTlar davlatning ijtimoiy vazifalarining muayyan qismini o'z zimmasiga olib, ularning yaqin ko'makchilariga aylanadi.

Xulosa va takliflar. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, zamonaviy ijtimoiy himoya tizimida gorizont va vertikal o'lchamdagi strategiyalarning uyg'un holda ifodalanishi davlat ijtimoiy siyosatning bosh tamoyillarida o'z aksini topadi. Ushbu tamoyillar va yondashuvlar Xalqaro mehnat tashkilotining ijtimoiy himoya tizimining ikki o'lchamli strategiyasida o'z ifodasini topdi[9]. Xususan, gorizont o'lcham – milliy davlatlarning ijtimoiy ta'minot tizimi negizida yordam turlarining minimal darajasini to'liq yaratish va mustahkamlash. Vertikal o'lcham – aholining turli qatlamlarini qamrab olish evaziga ijtimoiy himoya ko'lamini oshirib borish. Xalqaro mehnat tashkiloti hujjatlari va boshqa ilmiy adabiyotlarda ko'rsatilishicha, zamonaviy ijtimoiy himoya tizimi quyidagi tamoyillar asosida quriladi va tartiblanadi[10]. Bular:

insonparvarlik va ijtimoiy adolat tamoyili – milliy, irqiy, diniy mansublik va ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlardan qat'i nazar inson qadr-qimmatining ustuvor qadriyat sifatida tan olinishi. Ushbu tamoyil amalda insonga munosib turmush tarzini ta'minlash orqali huquqiy-demokratik davlat qurilishiga xizmat qiladi;

tizimlilik va komplekslilik tamoyili – ijtimoiy himoyaning o'zaro tartiblangan komponentlar yig'indisidan iborat yaxlit tizim sifatida ifodalanadi. Uning subyekti va obykti o'rtasida integratsiyalashgan aloqadorlikni ta'minlaydi. Shuningdek, ijtimoiy himoyaning funksional maqsadlari, vazifalari, yo'nalishlarining yig'indisi, ijtimoiy himoya subyektlarining muvofiqlashgan faoliyati kompleks ahamiyatli tamoyilni ifodalaydi. Komplekslilik tamoyilida aholini qo'llab-quvvatlashning retrospektiv xususiyatlari zamonaviy ijtimoiy himoya amaliyotida uyg'unlashgan bo'ladi;

Xulosa qilib aytganda, har qanday inson o'z umri davomida og'ir hayotiy vaziyatlarga tushib qoladiki, oqibatda o'rnatilgan va odatga aylangan hayotiy faoliyat modeli buziladi. O'rnatilgan sotsial aloqalar va munosabatlar uziladi, uning sotsial muhiti o'zgaradi. Bunday sharoitda ijtimoiy himoya chora-tadbirlari kishiga nafaqat yangi shart-sharoitlarga moslashish, balki yo'qotilgan sotsial maqomi, jismoniy, hissiy va psixologik zahiralirini tiklashga yordam beradi.

Davlat – ijtimoiy siyosatning bosh subyekti sifatida o'z fuqarolarining ijtimoiy xavfsizligini ta'minlash mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi.

Ijtimoiy sheriklikni ijtimoiy himoya subyektlariaro o'zaro munosabatlarning optimal shakli sifatida talqinlaymiz va ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirishda sotsiologik ahamiyatini alohida baholaymiz.

Ijtimoiy himoyaning ijtimoiy yordam va ijtimoiy xizmat ko'rsatish tamoyillari, uning aholining aynan bir xil qatlamlariga yo'naltirilganligi, ko'rsatilayotgan yordam shakli va turining maqsad-vazifalaridagi uyg'unlik, yordam va xizmatning davomiyligi kabi mezonlar asosida mohiyatan bir-birini ideal to'ldiruvchi komponentlarni hosil qiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Яковлева А.В. Экономическое поведение участников страхового рынка в отношении страхования безработицы: социологический подход / Научный журнал НИ У ИТМО, 2015. № 1. – С. 258-264; Юодешко В.И. Социальная защита семей с детьми как фактор демографического развития. Автореф. дисс. канд. экон. наук... – Минск, 2019. – С. 9.
2. Садыкова Ш.М. Актуальные вопросы социальной защиты пожилых людей в Узбекистане // НАУ. 2015. №4-6 (9). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/aktualnye-voprosy-sotsialnoy-zaschity-pozhilyh-lyudey-v-uzbekistane> (дата обращения: 18.04.2024).
3. Хусанова Х. Институциональные основы социальной защиты нуждающихся слоев населения // ОИИ. 2021. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/institutsionalnye-osnovy-sotsialnoy-zaschity-nuzhdayuschih-sloev-naseleniya>.
4. Kholmamatovich Z. E. The essence and significance of the neighborhood in the development of the national mentality. // European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2023. – Т. 21. – С. 271-277.
5. Madvaliyev A. va boshqalar. Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: SHAFFOF nashriyoti, 2020. – В. 96.
6. Matibayev T.B. O'zbekistonda davlat va jamiyat hayotining demokratlashuvi jarayonida ijtimoiy hamkorlik tizimini rivojlantirish omillari. Sots. f. d. (DSc) diss. – Toshkent: O'zMU, 2017. – В. 172.
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 1-bo'lim, 1-bob, 2-modda. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.03.2019-y., 03/19/527/2706-son.
8. Sodiqova Sh.M. Jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida keksalarni ijtimoiy himoyalashning sotsiologik tahlili. Sotsiologiya fanlari bo'yicha fan doktori diss. avtoref. – Toshkent: O'zMU, 2016. – В. 18. – 63 b.
9. Социальное обеспечение для всех. Стратегия Международной организации труда. Создание минимальных уровней социальной защитыи всеобщих систем социального обеспечения. Международное организация труда, 2013. – С. 3-5.
10. Занина О.В. Современные принципы социальной защиты населения. / Научный результат. Сетевой научно-практический журнал. №2. 2005. – С. 57.; Азарян К.А. Дифференцированный подход в социальной работе с различными категориями населения. //Материалы VII Международной научной конференции. <https://scienceforum.ru/2015/article/2015017953>.; Камышова Е.В. Дифференцированный подход в социальной работе с неполными семьями: теоретические и практические аспекты. /Вестник Мордовского университета. Социальная работв, система социальной защиты и благотворительность. 2007. №2. – С. 131.

Xamid ABDURAMANOV,

"Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti direktori o'rinbosari,

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

E-mail: khamid.abduramanov@bk.ru

NIKOH DAN AJRALISHGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOYIY OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI

Annotatsiya. Maqolada nikohdan ajralishga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar ekonometrik tahlil qilingan bo'lib, nikohdan ajralishlarni keltirib chiqaruvchi asosiy omillar guruhi tanlandi, korrelyatsion-regression tahlil usuli yordamida ekonometrik modelda qatnashadigan omillar aniqlab olindi. "Eng kichik kvadratlar usuli" yordamida tuziladigan modelning parametrlari aniqlab olindi, modelning sifati ko'plikdagi korrelyatsiya koeffitsiyenti va determinatsiya koeffitsiyenti yordamida baholandi, modelning ahamiyati, xatoligi va Gaus Markov mezonlar yordamida baholandi. Tadqiqot bo'yicha ekonometrik tenglamalar "panel" ma'lumotlaridan foydalanilgan holda Pooled OLS estimator (POLSE), Fixed effects estimator (FEE) hamda Random effects estimator (REE) modellari asosida ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: nikohdan ajralish, ijtimoiy omillar, ekonometrik tahlil, regressiya tenglamasi, ekonometrik tenglama, ekonometrik modellashtirish, multikollinearlik, matritsa, model.

ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНЫХ ФАКТОРОВ ВЛИЯЮЩИХ НА РАСТОРЖЕНИЕ БРАКА

Аннотация. В статье проведен эконометрический анализ социальных факторов, влияющих на развод, выделена группа основных факторов, вызывающих развод, выявлены факторы, входящие в эконометрическую модель, с использованием метода корреляционно-регрессионного анализа. Определены параметры модели, создаваемой с помощью «метода наименьших квадратов», качество модели оценивалось с помощью коэффициента множественной корреляции и коэффициента детерминации, ошибка значимости модели оценивалась с помощью критериев Гаусса Маркова. Эконометрические уравнения для исследований с использованием «панельных» данных Pooled OLS estimator (POLSE), Fixed effects estimator (FEE) и Random effects estimator (REE) разработано на основе моделей.

Ключевые слова. Развод, социальные факторы, эконометрический анализ, уравнение регрессии, эконометрическое уравнение, эконометрическое моделирование, мультиколлинеарность, матрица, модель.

ECONOMETRIC ANALYSIS OF SOCIAL FACTORS INFLUENCING THE DISSOLUTION OF MARRIAGE

Abstract. In the article, the social factors affecting divorce were analyzed econometrically, the group of main factors causing divorce was selected, the factors involved in the econometric model were identified using the correlation-regression analysis method. The parameters of the model to be created using the "least squares method" were determined, the quality of the model was evaluated using the multiple correlation coefficient and the coefficient of determination, the importance of the model was evaluated using the Gauss Markov criteria. The econometric equations for the study were developed based on the Pooled OLS estimator (POLSE), Fixed effects estimator (FEE) and Random effects estimator (REE) models using panel data.

Key words: divorce, social factors, econometric analysis, regression equation, econometric equation, econometric modeling, multicollinearity, matrix, model.

Kirish. Innovatsion rivojlanish sharoitida oilalar juda tez-tez o'zgaradi, axloqiy omillarning oila barqarorligiga ta'siri kuchaymoqda, oilalarning yangi shakllari, jamiyatda oilalarning barqarorligi va parchalanishining yangi motivlari va omillari paydo bo'lmoqda.

O'zbekistonda oilalarda ajrim muammosi, uning rivojlanish qonuniyatlari bo'yicha chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish va uni mustahkamlash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish nihoyatda muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida nikohdan ajralishning salbiy ijtimoiy-demografik tendensiyalari demografik o'tishning oraliq bosqichida bo'lgan oilalarning ajralishini o'rganishda yangi demografik yondashuvni talab qiladi.

Mamalakatimizda ajrim holatlarining yildan-yilga oshib borayotgani, ayniqsa yosh oilalarda sezilarli ko'payib borayotgani dolzarb muammolardan biridir. Oilaviy ajrim holatlarini oldini olish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada Oliy Majlis Senati Kengashining 2020 yil 13 iyuldagi №KQ-105-IV-son "Erta turmush va erta tug'ruq holatlari hamda oilaviy ajralishlar bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori muhim ahamiyatga bo'lib, adliya vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda bir oy muddatda oilaviy ajralishlarning oldini olish, oilalarning mustahkamligini ta'minlash hamda ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish masalalariga oid normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish bunda, yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, er-xotin munosabatlari haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lishini ta'minlash maqsadida majburiy o'quv kurslarini bepul asosda tashkil etish, oilaviy nizolarni sudgacha hal qilishda mediatsiya institutini keng jalb qilish, ajrashish haqida sudga murojaat qilgan paytda majburiy ravishda hal qilish tartibini o'rnatish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilangan[1]. Ushbu yo'nalishlardan kelib chiqib tadqiqotda dolzarb vazifalar ko'rib chiqilgan.

Mazkur tadqiqotda quyidagi gipoteza ilgari surilgan: taraqqiyotning ijtimoiy omillari bilan oilaviy ajralish darajasi o'rtasida bog'liqlik mavjud bo'lib, buni oilaviy ajralish tendensiyasi qonuni deb atash mumkin. Bu gipoteza jamiyat rivojlanishi bilan (fan, madaniyat, aholining urf-odatlarini, an'analari, oilalar hayotiga yangi hayotiy qadriyatlarining kirib borishi, jinslar o'rtasidagi tenglik, oila a'zolari o'rtasidagi mustaqillik) er-xotindan oilaviy hayotning yangi standartlari talab qilinadi. An'anaviy oilaviy hayot standartlari bilan

rivojlanayotgan yangi oilaviy hayot standartlari o'rtasida qarama-qarshilik paydo bo'ladi. Ushbu qarama-qarshilikning yechimi oilaning faoliyatini yangi asosda saqlab qolish imkonini beradi. Ammo barcha oilalar ham buni uddalay olmaydi, shuning uchun yosh oilalarda ajralishlar rivojlana boshlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. So'nggi yillarda nikohdan ajralish ehtimolini baholashga qaratilgan qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, iqtisodchi olim Burges o'zining ilmiy tadqiqotlarida yosh amerikaliklar orasida daromad darajasining nikohdan ajralishga ta'sirini baholagan. Unga ko'ra, erkaklar daromadining o'sishi nikoh ehtimolini oshiradi, ajralish ehtimoli esa pasayadi. Ikkinchi tomondan, daromad darajasining o'sishini qayd etayotgan ayollar uchun nikoh ehtimoli pasayganligi, ajralish o'zgaruvchisi bo'yicha esa statistik ahamiyati mavjud emasligi ta'kidlagan[2, b. 455-475].

Xorijlik olim Andreea-Ionela Ruminiya davlatida nikohdan ajralish hodisasi va ijtimoiy o'zgaruvchilar o'rtasidagi ekonometrik tahliliga ko'ra ajralishlarning umumiy soni, qishloq va shahar joylaridagi ajralishlar, erkaklar va ayollar nikoh yoshi, ish haqi, shahar aholisi zichligi, oliy o'quv yurti bitiruvchilari soni, ishsizlik darajasi, yangi uy-joylar sonini ta'sir etuvchi omillar sifatida ishlab chiqqan[3, b. 104-119]. Unga ko'ra, ekonometrik modelni ishlab chiqishda panel ma'lumotlari asosida Fixed Effect modelidan foydalanilgan holda tenglamalarni ishlab chiqqan.

Xorijlik olim J.Nunli o'z tadqiqotlarida AQShda nikohdan ajralishni statistik nuqtai nazardan baholangan. Olim o'z tadqiqotida inflyatsiya, ishsizlik darajasi, yalpi ichki ishlab mahsulot va ayollar ta'lim darajasining nikohdan ajralishga ta'siri sezilarli ekanligini aniqlagan[4, b. 3367-3381]. Tadqiqot natijalariga ko'ra, nikohdan ajralishlar sonining ko'payishi iqtisodiy rivojlanish va mehnat bozorida ayollarning ishchi kuchi ulushi bilan bog'liqligi alohida ahamiyatga molik.

Xorijlik olim M.Maysam "Eronda nikohdan ajralish va ijtimoiy o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabat" mavzusida amalga oshirgan ilmiy tadqiqotida mamlakatda aholi daromad taqsimoti va nikohdan ajralish o'rtasida sezilarli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatib bergan, ya'ni daromad taqsimotidagi tengsizlikning kuchayishi nikohdan ajralish ko'rsatkichining ortishiga olib kelishini, erkaklarning daromad va ta'lim darajasining oshishi natijasida nikohdan ajralishlar darajasi kamayadi, degan fikrni ilgari surgan[5, b. 598-602].

Xitoylik iqtisodchi olimlar L.Siu, Ch.Liang va X.Yanglar mamlakatda nikohdan ajralishlarni ekonometrik modellashtirishda quyidagi o'n bitta omilni ta'sir etuvchi sifatida o'rgangan:

1. YalMdagi sanoat ulushi.
2. Aholi oqimi koeffitsiyenti.
3. Aholining iste'mol darajasi.
4. Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot.
5. Oliy ma'lumotli aholi ulushi.
6. Shahar aholisining ulushi.
7. Savodsizlik darajasi.
8. Tug'ilish darajasi.
9. Oilalar soni.
10. Aholining ko'payish koeffitsiyenti.
11. 15-64 yoshdagi ayollarning tirik qolgan bolalari soni.

Olim nikohdan ajralishga yuqoridagi omillar ta'sirini aniqlash uchun oddiy eng kichik kvadratlar (OLS) regressiya tenglamasini ishlab chiqqan[6]. Tadqiqot natijalariga ko'ra, nikohdan ajralish koeffitsiyentining o'sishiga yalpi ichki mahsulotdagi sanoat ulushlari koeffitsiyenti sezilarli ta'sir ko'rsatgan va Xitoyning hozirgi holatiga mos kelgan. Urba-

nizatsiya darajasining jadallashishi bilan shaxsiy moddiy mustaqillik, tez-tez kasbiy harakatchanlik va boshqa omillar ijtimoiy ta'sirni zaiflashtiradi, shaxsiy ijtimoiy cheklavlarni kamaytiradi va nikoh munosabatlarining buzilishi jarayonini tezlashtiradi, degan xulosaga kelingan.

Yevropalik olimlar Linda Klark va An Beringtonlar nikohdan ajralishning ijtimoiy-demografik omillarini tahlil qilganda, mamlakatda oilaviy ajralishlarga ijtimoiy holat, aholining ma'lumotlilik darajasi, shart-sharoitlar, ayollarning ish bilan bandligi, uy-joy, din, xulq-atvor va hissiy muammolar kabi omillar ta'sir qiladi, degan xulosaga kelingan[7].

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi keltirilgan nazariy va uslubiy yondashuvlardan kelib chiqib O'zbekistonda nikohdan ajralishlarga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillarni ekonometrik modellar asosida baholash bo'yicha tadqiqot olib borildi.

Tadqiqot quyidagi tartibdagi ketma-ketlikda amalga oshirildi:

1. Nikohdan ajralishlarni keltirib chiqaruvchi asosiy omillar guruhi tanlandi, korrelyatsion-regression tahlil usuli yordamida ekonometrik modelda qatnashadigan omillar aniqlab olindi.

2. "Eng kichik kvadratlar usuli" yordamida tuziladigan modelning parametrlari aniqlab olindi, modelning sifati ko'plikdagi korrelyatsiya koeffitsiyenti va determinatsiya koeffitsiyenti yordamida baholandi, modelning ahamiyati xatoligi va Gaus Markov mezonlar yordamida baholandi.

3. Tadqiqot bo'yicha ekonometrik tenglamalar "panel" ma'lumotlaridan foydalanilgan holda *Pooled OLS estimator (POLSE)*, *Fixed effects estimator (FEE)* hamda *Random effects estimator (REE)* modellari asosida ishlab chiqildi.

Ekonometrik modellashtirishda panel ma'lumotlari aynan vaqtli qatorlarda yoki fazoviy ma'lumotlarda aniqlanmaydigan ta'sirlarni yanada yaqqol aniqlash va o'lchash imkoniyatini hosil qiladi.

Umumilmiy jihatdan panel ma'lumotlar modellari quyidagicha talqin qilinadi: panel ma'lumotlari ko'plab kuzatuvlarni o'z ichiga oladi, shuning uchun ilmiy izlanuvchilarga ko'proq ma'lumot beradi, ular belgi omillarning ko'proq o'zgarishi va kamroq kollinearligi bilan ajralib turadi, ular ko'proq erkinlik darajalarini ta'minlagani holda yanada optimal baholash imkoniyatini beradi.

Tadqiqotlar olib borilganda ekonometrik modellashtirishda vaqtli qatorlarni tahlil qilish jarayonida ko'pgina hollarda omillarning multikollinearligiga duch kelinadi.

Panel ma'lumotlar bir xil obyektlar to'plami haqida ketma-ket bir necha vaqt oraliqida statistik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlar deb ataladi[8]. Panel ma'lumotlari individual xatti-harakatlar to'g'risida ma'lumot berib ular ham kesma, ham vaqtli qatorlar o'lchovlarini namoyon etadi.

Ko'plab ilmiy ishlanmalarda, jumladan, ijtimoiy, yadro fizikasi, tibbiyot va kimyo sohalaridagi tadqiqotlarini ekonometrik modellashtirishda ayniqsa panel ma'lumotlari fazoviy ma'lumotlar va vaqtli qatorlarga qaraganda murakkabroq modellarini loyihalash, baholash va ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi[9, b. 495-504].

Shuningdek, vaqtning har bir ko'rib chiqilgan nuqtasida barcha obyektlar uchun kuzatuvlar mavjud bo'lganda panellar muvozanatlanadi.

Tadqiqotlarni ekonometrik modellashtirishda panel ma'lumotlar xususiy tavsifdagi ma'lumotlarni ta'minlash orqali fazoviy ma'lumotlar va vaqtli qatorlarga ega bo'ladi. Panel ma'lumotlar tahlili T davr mobaynidagi N ta kuzatuvlarni o'z ichiga oladi.

Ani Katchova Panel ma'lumotlarni quyidagi turlarga ajratgan:

- qisqa panel: ko'p kuzatuvlar soni va kam vaqtli qatorlar;
- uzun panel: ko'p vaqtli qatorlar va kam kuzatuvlar soni;

– birgalikdagi panel: ko'p vaqtli qatorlar va ko'p kuzatuvlar soni[10].

Ijtimoiy munosabatlarni makrodarajada tahlil qilinganda panel ma'lumotlari ko'plab vaqtli qatorlarni namoyon etadi va panellarni birlik ildizga testlari vaqtli qatorlar tahlilida birlik ildiz testlariga ega standart asimptotik taqsimotlari mavjud.

Pooled OLS – bu turli birliklar bo'yicha ma'lumotlar individual farqlar bo'yicha hech qanday taxminlarsiz birlashtiriladigan modeldir.

Pooled OLS modelida g'oya shundan iboratki, har yili tegishli populyatsiyadan yangi tasodifiy tanlama olinadi. O'zgaruvchilar taqsimoti vaqt o'tishi bilan o'zgarib turishi sababli, bir xil taqsimot taxmini, odatda, haqiqiy emasligi, lekin mustaqillik faraz mavjud bo'ladi[11].

Pooled OLS modeli – panel ma'lumotlarida turli birliklar bo'yicha ma'lumotlar individual farqlar bo'yicha hech qanday taxminlarsiz birlashtirilgan. Pooled OLS modeli panel ma'lumotlar modelini baholash uchun oddiy eng kichik kvadrat (OLS) yondashuvidan yoki eng kichik kvadratlar usulidan foydalanishi mumkin[12, b. 81-91].

Pooled OLS modeli, i omil va t vaqt bo'yicha ma'lumotlari asosida regressiya tenglamasi hosil qilinadi.

Unga ko'ra, Pooled OLS estimator model ko'rinishi quyidagicha aks etadi:

$$y_{it} = \alpha + \beta_1 x_{1it} + \dots + \beta_k x_{kit} + u_{it} \quad (1),$$

bu yerda:

y_{it} – bog'liq o'zgaruvchi;

x_{kit} – k ning i omilni t vaqtdagi mustaqil o'zgaruvchi;

u_{it} – xatoliklar;

α – kesishuvchi;

$\beta_1 \dots \beta_k$ – strukturaviy parametrlar.

Fixed effects (ruxsat etilgan ta'sirli) modeli – bu panel ma'lumotlari asosida ekonometrik modellarni ishlab chiqishda qat'iy ta'sir modeli bo'lib, unga ko'ra, ushbu model parametrlari qat'iy yoki tasodifiy bo'lmagan miqdorlar uchun statistikada keng foydalaniladi[13, b. 299].

Shuningdek, Fixed effects modeli statistik modellar sinfi bo'lib, unda mustaqil o'zgaruvchilarning darajalari (ya'ni, qiymatlari) qat'iy (ya'ni, doimiy) deb taxmin qilinadi va faqat bog'liq o'zgaruvchilar mustaqil o'zgaruvchilar darajalariga javoban o'zgaradi. Ekonometrika va statistika kabi ko'plab ilovalarda o'zgarmas effektlar modeli regressiya modeliga ishora qiladi, bunda guruh o'rtachalari o'zgarmas (tasodifiy bo'lmagan) bo'ladi[14].

Fixed effects estimator (FEE) o'zgarmas effektlar (vaqtni kamaytiruvchi o'zgaruvchilardan foydalanadi) quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

$$y_{it} - \bar{y}_i = \beta(x_{it} - \bar{x}_i) + (\alpha + \bar{\alpha}_i) + (u_{it} + \bar{u}_i) \quad (2)$$

Random effects estimator (REE) modeli – panel ma'lumotlari uchun qo'llaniladigan tasodifiy ta'sirlar modeli shaxslar o'rtasidagi farqlar o'zgarmasdan farqli ravishda tasodifiy ekanligini taxmin qiladi hamda tasodifiy effektlar vaqt o'tishi bilan o'zgarib turadigan va o'zgarmaydigan o'zgaruvchilarni ko'rib chiqishga imkon yaratadi.

Statistikada panel ma'lumotlari asosida Random effects estimator tasodifiy ta'sirlar modeli dispersiya komponentlari modeli deb ataladi, Random effects estimator modeli parametrlari tasodifiy o'zgaruvchilar bo'lgan statistik model hisoblanadi[15, b. 169-171].

Panel ma'lumotlari asosida tasodifiy effektlar modeli aralash modelning alohida holatidir. Bu umumlashtirilgan eng kichik kvadratlarining qo'llanilishi va asosiy g'oya teskari dispersiyani tortishi hisoblanadi.

Unga ko'ra model quyidagicha ifodalanadi:

$$y_{it} - \theta \bar{y}_i = \beta_0 + \beta_1(x_{1it} - \theta \bar{x}_{1i}) + \beta_2(x_{2it} - \theta \bar{x}_{2i}) + (\alpha_i - \theta) + (u_{it} + \theta) \quad (3)$$

θ – ko'rsatkichi Random effects estimator (tasodifiy effektlar farazi)da taxmin qilinuvchi hisoblanadi. Unga ko'ra: $\theta = 1 - \sqrt{\frac{\sigma_u^2}{\sigma_u^2 - T\sigma_u^2}}$ (4),

$\theta = 0$, bo'lganda *Pooled OLS* mos keladi (a_i bu yerda muhim emas);

$\theta = 1$ baholovchi ichidagi *Fixed effects*ga mos keladi (a_i bu yerda muhim emas)[16].

Asosiy qism. Tadqiqotda 14 ta hudud (Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahri) bo'yicha 12 yillik ma'lumotlar asosida nikohdan ajralishlarning panel ma'lumotlaridan foydalangan holda "Pooled OLS estimator (POLSE)", "Fixed effects estimator (FEE)", "Random effects estimator (REE)" modellari asosida ekonometrik tenglamalar ishlab chiqildi.

Panel ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan ekonometrik modellar bo'yicha Gaus Markovning asosiy shartlari hamda Durbin Watson, Shapiro Wilk, Breusch-Pagan va Hausman testlari tekshirildi. Shuningdek, tadqiqot bo'yicha panel ma'lumotlari bo'yicha ekonometrik modellarni ishlab chiqishda grafik jadvallar tuzildi, ko'rsatkichlarning bog'lanish yo'nalishi va zichligini tahlil qilindi.

Bizning gipotezamizga ko'ra, ishsizlar soni, aholining zichligi, aholi real daromadlarining ortishi nikohdan ajralishlar sonining oshishiga olib kelmoqda. Shuningdek, tashqi migratsiya va uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi nikohdan ajralishlar sonining oshishiga teskari ta'sir etishga aniqlandi.

Tadqiqotda ekonometrik modellarni ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlaridan foydalanildi.

Model bo'yicha mustaqil va bog'lik o'zgaruvchilar quyidagicha ifodalandi:

Y – nikohdan ajralishlar (natijaviy belgi);

$X1$ – ishsizlik darajasi (omil belgi);

$X2$ – aholi zichligi (omil belgi);

$X3$ – aholi real daromadlari;

$X4$ – tashqi mehnat migratsiyasi (omil belgi);

$X5$ – uy-joy bilan ta'minlanganlik (omil belgi).

Tadqiqotda 2011-2022 yillarda mamlakatimizdagi 14 ta hudud bo'yicha natijaviy belgi va omil belgilar ko'rsatkichlarining tahliliy grafik jadvali quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi (1-rasm).


1-rasmdagi grafik tahliliga ko'ra, nikohdan ajralishlar soni, ishsizlar soni, aholining zichligi, aholining real daromadlari, tashqi mehnat migratsiyasi va uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi grafik matritsa bo'yicha kuchli zichlik ta'siriga ega. Shuningdek, tadqiqot bo'yicha navbatdagi qadamda natijaviy belgi va omil belgilarining har biri bo'yicha o'zaro korrelatsion matritsasi tekshirildi (1-jadval).

1-jadval.

Natijaviy belgi va omil belgilar o'rtasida bog'lanishlarning korrelyatsion matritsasi¹

	Y	$X1$	$X2$	$X3$	$X4$	$X5$
Y	1.0000					
$X1$	0.6952	1.0000				
$X2$	0.6366	0.3508	1.0000			
$X3$	0.4365	0.3503	0.1359	1.0000		
$X4$	0.5388	0.8191	0.2028	0.4641	1.0000	
$X5$	0.1224	0.2130	0.0580	0.3980	0.1694	1.0000

¹ Stata dasturi asosida mualliflar tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.



1-rasm. Natijaviy belgi va omil belgilar o'rtasidagi bog'liqlikning grafik matritsasi¹.

Tadqiqot bo'yicha yuqoridagi jadvalda natijaviy belgi va omil belgilar o'rtasida korrelatsion o'zaro bog'liklik keltirilgan. Korrelatsion matritsaga ko'ra, ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikollinearlik mavjud emas.

Tadqiqotdagi modelning ishonchlilik koeffitsiyenti 67 foizni tashkil etib, ishlab chiqilgan ekonometrik tenglamalar sifat ko'rsatkichini ifodalaydi.

Navbatdagi qadamda panel ma'lumotlari asosida ekonometrik modellar Pooled OLS estimator (POLSE), Fixed effects estimator (FEE), Random effects estimator (REE) asosiy ko'rsatkichlari, Gaus Markovning muhim shartlari (Breusch Pagan, Durbin Watson, Shapiro Wilk) testlari va Hausman testlari ko'rsatkichlarini tekshirildi.

Shuningdek, model multikollinearlik ko'rsatkichini Vif testi bo'yicha tekshirildi (2-jadval).

2-jadval ma'lumotlaridan panel ma'lumotlari asosidagi ekonometrik modellar har bir ko'rsatkichlari va testlar bo'yicha tahlil qidindi.

1. Pooled OLS estimator (POLSE) modeli tahlili:

$$y_{it} = \alpha + \beta_1 x_{1it} + \dots + \beta_k x_{kit} + u_{it} \quad (1),$$

Tadqiqotda Pooled OLS estimator model bo'yicha ekonometrik tenglama ko'rsatkichlari tahlili qilindi. Quyidagi 3-jadvalda Pooled OLS estimator model bo'yicha barcha ko'rsatkichlari keltirilgan.

3-jadvaldan ko'rinib turibdiki, Pooled OLS estimator (POLSE) modeliga ko'ra omil belgilar koeffitsiyentlari mos ravishda 0.54, 0.16, 0.31, -0.08 va -0.39, standart xatoliklar 0.08, 0.01, 0.05, 0.04 va 0.14 qiymatini tashkil etgan. Tadqiqot bo'yicha ANOVA jadvalidagi haqiqiy qiymati $F=81.31$ ko'rsatkichi bilan yuqori qiymatni hosil qilgan.

¹ Stata dasturi asosida mualliflar tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

Tadqiqot bo'yicha panel ma'lumotlari asosidagi ekonometrik modellar ko'rsatkichlari¹

№	Model ko'rsatkichlari	1-model	2-model	3-model
		POLSE modeli	FEE modeli	REE modeli
1	Y (Natijaviy belgi)	*	*	*
2	X1 (omil belgi)	0.54 (0.08)	-0.35 (0.06)	-0.12 (0.07)
3	X2 (omil belgi)	0.16 (0.01)	5.92 (0.96)	0.22 (0.04)
4	X3 (omil belgi)	0.31 (0.05)	-0.10 (0.11)	0.41 (0.06)
5	X4 (omil belgi)	-0.08 (0.04)	0.08 (0.02)	0.07 (0.03)
6	X5 (omil belgi)	-0.39 (0.14)	-0.08 (0.22)	-0.42 (0.22)
5	F test	81.31 (0.0000)	92.89 (0.0000)	
7	R ²	0.71	0.50	
8	Chi-square			329.10 (0.0000)
9	Adj R ²	0.70		
10	Breusch Pagan	0.34		
11	Durbin Watson	0.54		
12	Vif	2.32		
14	Shapiro-Wilk W	0.27		
13	Hausman		p<0.05	p<0.05

Pooled OLS estimator (POLSE) modeli bo'yicha natijaviy va omil belgilarning ekonometrik tenglamasi²

Y	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
X1	.545	.081	.75	0	.386	.704	***
X2	.16	.017	9.48	0	.127	.194	**
X3	.315	.056	5.61	0	.204	.426	**
X4	-.087	.046	-1.89	.05	-.177	.004	*
X5	-.394	.147	-2.68	.008	-.683	-.104	**
Constant	-.054	.706	-0.08	.939	-1.448	1.34	
Mean dependent var		7.400	SD dependent var			0.614	
R-squared		0.715	Number of obs			168	
F-test		81.312	Prob > F			0.000	
Akaike crit. (AIC)		113.035	Bayesian crit. (BIC)			131.779	

*** p<.01, ** p<.05, * p<.1

¹ Stata dasturi asosida mualliflar tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

² Stata dasturi asosida mualliflar tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

$R\text{-squared}=0.71$ va tuzatilgan determinatsiya koeffitsenti $Adjusted R^2=0.70$ qiymatini tashkil etgan.

Shuningdek, tadqiqotda Pooled OLS modeli bo'yicha $H_0:y=0$, $H_1:y\neq 0$ $F<0.05$ va $t<0.05$, bosh gipoteza ma'noga ega emas $H_0:y=0$, biz bosh gipotezani rad etib muqobil gipotezaga o'tamiz va unga ko'ra muqobil gipoteza $H_1:y\neq 0$ statistik ahamiyatga ega.

Tadqiqotda ishlab chiqilgan Pooled OLS modeli quyidagi ko'rinishni hosil qildi.

$$Y=0.54X_1+0.16X_2+0.31X_3-0.08X_4-0.39X_5-0.54 \quad (5)$$

Biz navbatdagi qadamda Pooled OLS ekonometrik modeli bo'yicha Gaus Markov muhim shartlari tekshirdik.

Tadqiqot ko'rsatkichlarda kuzatuvlar soni 168 tani va belgilar sonidagi omillar 6 tani tashkil etib, unga ko'ra, Gaus Markovning ushbu sharti bajarilgan.

Tadqiqot bo'yicha ma'lumotlardagi emperik qiymatlar model nazariy qiymatlari yig'indisiga teng ekanligidan Gaus Markovning ushbu sharti ham bajarilgan (4-jadval).

4-javdal.

Pooled OLS ekonometrik tenglamasi bo'yicha Gaus Markov 2-sharti¹

O'zgaruvchi omillar	Kuzatuvlar soni	O'rtacha qiymati	Standart chetlanish	Minimum	Maksimum
Model	168	7.399613	9.71199	-10.26249	30.12592
Y	168	7.399613	.6141624	6.008813	8.62533

Navbatdagi qadamda Pooled OLS modeli bo'yicha Gaus Markovning shartlari bo'yicha Durbin Watson, Shapiro Willke va Breusch-Pagan testlari stata dasturi asosida tekshirildi va quyidagi natijalarga erishildi.

Unga ko'ra, Durbin Watson 0.54 qiymatini, Shapiro Willke 0.27, Breusch-Pagan 0.34 qiymatini tashkil etdi hamda test qiymatlariga ko'ra $H_0:y=0$, $H_1:y\neq 0$ $r>0.05$ bo'lganda bosh gipoteza ma'noga ega.

Tadqiqot bo'yicha muqobil gipotezani rad etdik, Durbin Watson Shapiro Willke va Breusch-Pagan testlari $r>0.05$ qiymatidan katta bo'lib, Gaus Markovning ushbu sharti ham bajarilgan.

Tadqiqot bo'yicha Gaus Markovning navbatdagi shartida model multikollinearligi holatini aniqlashda Vif testi orqali tekshirildi. Test natijasiga ko'ra Vif qiymati 2.32 qiymatini hosil qilib, ushbu holatda ishlab chiqilgan modelda multikollinearlik holati mavjud emas.

POLSE modeli tahlil bo'yicha $H_0:y=0$, $H_1:y\neq 0$, $r>10$ bo'lganda bosh gipoteza ma'noga ega bo'ladi. Tadqiqot bo'yicha muqobil gipoteza rad etildi. Vif testi $r<10$ qiymatidan kichikligini inobatga olib, Gaus Markovning ushbu sharti bajarilgan.

Tadqiqot bo'yicha Gaus Markovning navbatdagi shartiga ko'ra, ekonometrik modelning qoldiq belgilari va omil belgilari bog'lanmagan va gomoskadastik holati mavjud bo'lganligi uchun ushbu shart ham bajarilgan.

Tadqiqotga ko'ra, POLSE modeli bo'yicha ishlab chiqilgan ekonometrik tenglama Gaus Markovning muhim shartlaridan muvaffaqiyatli o'tdi.

2. Random effects estimator (REE) modeli tahlili quyidagicha:

$$y_{it}-\theta_{1i}=\beta_0+\beta_1(x_{1it}-\theta_{x_{1i}})+\beta_2(x_{2it}-\theta_{2i})+(a_i-\theta_i)+(u_{it}+\theta_i) \quad (6)$$

¹ Stata dasturi asosida mualliflar tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

Random effects estimator (REE) modeli bo'yicha natijaviy va omil belgilarning ekonometrik tenglamasi¹

Y	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf Interval]	Sig
X1	-.127	.073	-1.74	.082	-.269 .016	*
X2	.226	.045	5.06	0	.139 .314	***
X3	.418	.06	6.92	0	.299 .536	***
X4	.076	.034	2.25	.024	.01 .142	**
X5	-.425	.225	-1.89	.059	-.866 .016	*
Constant	4.405	.696	6.33	0	3.04 5.77	***
Mean dependent var		7.400	SD dependent var		0.614	
Overall r-squared		0.551	Number of obs		168	
Chi-square		329.098	Prob > chi2		0.000	
R-squared within		0.691	R-squared between		0.508	
*** $p < .01$, ** $p < .05$, * $p < .1$						

Random effects estimator (REE) model bo'yicha ekonometrik tenglama ko'rsatkichlari quyidagi 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval bo'yicha Random effects estimator (REE) modeliga ko'ra, omil belgilar mos ravishda -0.12 , 0.22 , 0.41 , 0.07 va -0.42 qiymatlarini tashkil etgan, standart xatoliklar 0.07 , 0.04 , 0.06 , 0.03 va 0.22 qiymatlariga ega bo'lgan. ANOVA jadvalidagi haqiqiy qiymati $Chi = 329,09$ qiymatni tashkil etgan va $R\text{-squared}=0.69$ qiymatni hosil qilgan.

Tadqiqot bo'yicha ishlab chiqilgan Random effects estimator (REE) model quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi:

$$Y = -0.12X_1 + 0.22X_2 + 0.42X_3 + 0.07X_4 - 0.42X_5 + 4.405 \quad (7)^2$$

Random effects estimator (REE) ekonometrik modeli asosida Hausman testi tekshirildi va test qiymati $p < 0.005$ dan kichik Hausman testi bo'yicha $H_0: y=0$, $H_1: y \neq 0$, $r > 0.05$ bo'lganda bosh gipoteza ma'noga ega emas. Tadqiqotda alternativ gipoteza ma'qullandi. Hausman testi $r > 0.05$ qiymatidan kattaligini inobatga olgan holda ushbu sharti bajarilmagan.

3. Fixed effects estimator (FEE) modeli tahlili

$$y_{it} - \bar{y} = \beta_1(x_{1it} - \bar{x}_{1i}) + \beta_2(x_{2it} - \bar{x}_{2i}) + (u_{it} + \epsilon_i) \quad (7)$$

Fixed effects estimator (FEE) modeli bo'yicha ekonometrik tenglama ko'rsatkichlari quyidagi 6-jadvalda keltirilgan.

6-jadvaldan ko'rinadiki, Fixed effects estimator (FEE) modeliga ko'ra omil belgilar mos ravishda -0.35 , 5.92 , -0.01 , 0.08 va -0.09 qiymatlarini tashkil etgan, standart xatoliklar 0.06 , 0.96 , 0.11 , 0.02 va 0.23 qiymatlariga ega bo'lgan.

ANOVA jadvalidagi haqiqiy qiymati $F=92.88$ qiymatini tashkil etib, yuqori qiymatni tashkil etgan hamda $R\text{-squared}=0.88$ qiymatni hosil qilgan. Tadqiqot bo'yicha ishlab chiqilgan Fixed effects estimator (FEE) modeli quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi:

$$Y = -0.03X_1 + 5.92X_2 - 0.01X_3 + 0.83X_4 - 0.09X_5 - 18.38 \quad (8)^3$$

¹ Stata dasturi asosida mustaqil ishlab chiqilgan.

² Stata dasturi asosida mualliflar tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

³ Stata dasturi asosida mualliflar tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

Fixed effects estimator (FEE) modeli tahlili¹

Y	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
X1	-.357	.069	-5.16	0	-.494	-.22	***
x2	5.923	.963	6.15	0	4.02	7.825	***
x3	-.1	.114	-0.88	.381	-.326	.125	
X4	.083	.029	2.82	.006	.025	.141	***
x5	-.09	.23	-0.39	.696	-.544	.364	
Constant	-18.383	3.976	-4.62	0	-26.24	-10.526	***
Mean dependent var		7.400	SD dependent var		0.614		
R-squared		0.757	Number of obs		168		
F-test		92.885	Prob > F		0.000		
Akaike crit. (AIC)		-153.648	Bayesian crit. (BIC)		-134.904		
*** $p < .01$, ** $p < .05$, * $p < .1$							

Fixed effects estimator (FEE) modeliga ko'ra Hausman testi tekshirildi va test qiymati $p < 0.005$ dan kichik, Hausman testi bo'yicha $H_0: y=0$, $H_1: y \neq 0$ $r > 0.05$ bo'lganda bosh gipoteza ma'noga ega emas. Tadqiqotda alternativ gipoteza ma'qullandi.

Hausman testi $r > 0.05$ qiymatidan kattaligini inobatga olgan holda ushbu sharti bajarilmagan.

Shuningdek, tadqiqot davomida nikohdan ajralishlarga ta'sir etuvchi omillar sifatida ish bilan band ayollar va oliy ta'limni bitirgan ayollarni panel ma'lumotlarida Random effects estimator (REE) modeli asosida ekonometrik modellashtirilganida quyidagilar namoyon bo'ldi.


Model bo'yicha mustaqil va bog'lik o'zgaruvchilar quyidagicha ifodalandi:

Y – nikohdan ajralishlar (natijaviy belgi);

X1 – ish bilan band ayollar (omil belgi);

X2 – oliy ta'limni bitirgan ayollar (omil belgi).

Tadqiqotga ko'ra, 2011-2022 yillarda mamlakatimizdagi 14 ta hudud bo'yicha natijaviy belgi va omil belgilar ko'rsatkichlarining tahliliy grafik jadvali quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi (2-rasm).



2-rasm. Natijaviy belgi va omil belgilar o'rtasidagi bog'liqlikning grafik matritsasi².

¹ Stata dasturi asosida mualliflar tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

² Stata dasturi asosida mualliflar tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

2-rasmdagi grafik tahliliga ko'ra, respublika hudularida nikohdan ajralishlar soni, ish bilan band ayollar va oliy ta'limni bitirgan ayollar grafik matritsa bo'yicha kuchli zichlik ta'siriga ega.

Navbatdagi qadamda natijaviy belgi va omil belgilarining har biri bo'yicha o'zaro korrelatsion matritsasini tekshirildi (7-jadval).

7-jadval.

Natijaviy belgi va omil belgilar o'rtasida bog'lanishlarning korrelyatsion matritsasi¹

	Y	X1	X2
Y	1.0000		
X1	0.6952	1.0000	
X2	0.6366	0.3508	1.0000

Yuqoridagi jadvalda natijaviy va omil belgilar o'rtasida o'zaro korrelatsion bog'liklik keltirilgan.

Korrelyatsion matritsaga ko'ra ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikollinearlik mavjud emas.

Tadqiqotdagi modelning ishonchlilik koeffitsenti 77 foizni tashkil etib, ishlab chiqilgan ekonometrik tenglamalar sifat ko'rsatkichini ifodalaydi.

Random effects estimator (REE) model bo'yicha ekonometrik tenglama 8-jadvalda keltirilgan.

8-jadval.

Random effects estimator (REE) modeli bo'yicha natijaviy va omil belgilarining ekonometrik tenglamasi²

Y	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
X2	1.084	.146	.44	0	.798	1.369	**
X7	.049	.06	0.82	.413	-.069	.168	
Constant	-6.852	1.87	-3.66	0	-10.517	3.187	**
Mean dependent var		7.400	SD dependenvar		0.614		
Overall r-squared		0.614	Number of obs		168		
Chi-square		58.176	Prob > chi2		0.000		
R-squared within		0.101	R-squared between		0.780		
*** $p < .01$, ** $p < .05$, * $p < .1$							

8-jadval bo'yicha Random effects estimator (REE) modeliga ko'ra omil belgilar mos ravishda 1.08 va 0.04 qiymatlarini tashkil etgan, standart xatoliklar 0.14 va 0.06 qiymatlariga ega bo'lgan.

ANOVA jadvalidagi haqiqiy qiymati $Chi = 58.18$ qiymatini tashkil etgan va $R\text{-squared} = 0.77$ qiymatni hosil qilgan.

¹ Stata dasturi asosida mualliflar tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

² Stata dasturi asosida mualliflar tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

Tadqiqot bo'yicha ishlab chiqilgan Random effects estimator (REE) model quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi.

$$Y = 1.08X_1 + 0.04X_2 - 6.85 \quad (9)$$

Random effects estimator (REE) ekonometrik modeli asosida Hausman testi tekshirildi va test qiymati 0.24 qiymatiga ega bo'ldi. Random effects estimator (REE) ekonometrik modeli Hausman testi bo'yicha $H_0: y=0$, $H_1: y \neq 0$ $r > 0.05$ bo'lganda bosh gipoteza ma'noga ega bo'ldi. Tadqiqotda alternativ gipoteza rad etildi. Hausman testi $r > 0.05$ qiymatidan kattaligini inobatga olgan holda ushbu sharti bajarilgan.

Xulosa va takliflar. Nikohdan ajralishlar soni, ishsizlar soni, aholining zichligi, aholining real daromadlari, tashqi migratsiya, uy joy bilan ta'minlanganlik darajasi, ish bilan band bo'lgan ayollar, oliy ta'limni bitirgan ayollar bilan o'zaro ta'sirini o'rganish bo'yicha olib borilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Panel ma'lumotlari asosida Pooled OLS estimator (POLSE) modeli ekonometrik tenglama $Y = 0.54X_1 + 0.16X_2 + 0.31X_3 - 0.08X_4 - 0.39X_5 - 0.54$ ga ko'ra:

- ishsizlar sonining 1,0 foizga ortishi nikohdan ajralishlar sonining 0,54 foizga;
- aholi zichligining 1,0 foizga ortishi nikohdan ajralishlar sonining 0,16 foizga;
- aholi real daromadlarining 1,0 foizga ortishi nikohdan ajralishlar sonining 0,31 foizga ortishiga olib keladi.

Shuningdek, tashqi migratsiya va uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasining ortishi nikohdan ajralishlar soniga teskari ta'sir etadi.

2. Panel ma'lumotlari asosida Random effects estimator (REE) modeli ekonometrik tenglama $Y = -0.12X_1 + 0.22X_2 + 0.42X_3 + 0.07X_4 - 0.42X_5 + 4.405$ ga ko'ra:

- hududlarda aholi zichligining 1,0 foizga ortishi nikohdan ajralishlar sonining 0,22 foizga ortishiga;
- aholi real daromadlarining 1,0 foizga ortishi nikohdan ajralishlar sonining 0,42 foizga;
- tashqi mehnat migratsiyasining 1,0 foizga ortishi nikohdan ajralishlar sonining 0,07 foizga ortishiga olib keladi.

Shuningdek, hududlarda ishsizlar soni va uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasining 1,0 foizga ortishi nikohdan ajralishlar soniniga teskari ta'sir etadi.

3. Panel ma'lumotlari asosida Fixed effects estimator (FEE) modeli ekonometrik tenglama $Y = -0.03X_1 + 5.92X_2 - 0.01X_3 + 0.83X_4 - 0.09X_5 - 18.38$ ga ko'ra:

- hududlardagi aholi zichligining 1,0 foizga ortishi nikohdan ajralishlar sonining 5,92 foizga;
- tashqi mehnat migratsiyasining 1,0 foizga ortishi nikohdan ajralishlar sonining 0,83 foizga orshishiga olib keladi.

Shuningdek, hududlarda ishsizlar soni, aholining real daromadlari va uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasining 1,0 foizga ortishi nikohdan ajralishlar soniniga teskari ta'sir etadi.

Tadqiqotda panel ma'lumotlari asosida yuqoridagi 3 ta model asosida ekonometrik tenglamalar ishlab chiqqilganida, bugungi kunda nikohdan ajralishlar soni va unga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillarga Pooled OLS estimator $Y = 0.54X_1 + 0.16X_2 + 0.31X_3 - 0.08X_4 - 0.39X_5 - 0.54$ modeli eng optimal model degan xulosaga kelindi.

Model ishlab chiqish jarayonida barcha ekonometrik shartlardan va testlardan muvaffaqiyatli o'tganligi ham alohida e'tiborga molik.

4. Panel ma'lumotlari asosida Random effects estimator (REE) modeli ekonometrik tenglama $Y = 1.08X_1 + 0.04X_2 - 6.85$ ga ko'ra:

- ish bilan band bo'lgan ayollar sonining 1,0 foizga ortishi nikohdan ajralishlar sonining 1,08 foizga;

– oliy ta'limni bitirgan ayollar sonining 1,0 foizga ortishi nikohdan ajralishlar sonining 0,04 foizga ortishiga olib keladi.

Random effects estimator (REE) modelini ishlab chiqish jarayonida barcha shartlardan va Hausman testidan muvaffaqiyatli o'tganligi ham alohida e'tiborga molik. Bundan ko'rinib turibdiki, ish bilan band ayollarning ekonometrik tenglama bo'yicha katta koeffitsiyentga ega bo'lishi ushbu omilning nikohdan ajralishlarga kuchli ta'sir ekanligidan dalolat bermoqda.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. KQ-177-IV-son 18.01.2021. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2020 yil 13 iyuldagi KQ-105-IV-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Erta turmush va erta tug'ruq holatlari hamda oilaviy ajrimlar bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish bo'yicha 2020-2021 yillarga mo'ljallangan kompleks chora-tadbirlar dasturining ijro etilishi to'g'risida (lex.uz)
2. Burgess, S., Carol, P., Aassve, A. (2003), "The Role of Income in Marriage and Divorce Transitions Among Young Americans", *Journal of Population Economics* 16. – pp.455-475.
3. Puiu A. I. The Econometric Analysis between Divorce Phenomenon and Economic-Social Variables in Romania // *Romanian Journal of Economics*. – 2019. – T. 48. – №. 1 (57). – S. 104-119.
4. Nunley, J. (2010), "Inflation and Other Aggregate Determinants of The Trend in U.S. Divorce Rates Since The 1960s." *Applied Economics* 42. – pp. 3367-3381.
5. Maysam, M. (2011), "The Relationship between Divorce and Economic-Social Variables in Iran." *British Journal of Arts and Social Sciences*, 1(2). – pp. 598-602
6. Su L. et al. Influence factors analysis of provincial divorce rate spatial distribution in China // *Discrete Dynamics in Nature and Society*. – 2018. – T. 2018.
7. Clarke L., Berrington A. Socio-demographic predictors of divorce. – 1999.
8. Demidova O.A. Leksiya modeli panel'nykh dannyx // <https://www.hse.ru/mirror/pubs/share/474587478.pdf>
9. Ishnazarov A. Fermer xo'jaliklari bog'dorchilik mahsulotlari hajmini panel ma'lumotlari asosida modellashtirish // *Ekonomika i obrazovaniye. Maxsus son* (2022): 495-504.
10. Ani Katchova. Panel Data Models. <https://www.sites.google.com>.
11. Adesete, Ahmed Adefemi "panel data regression models in eviews: Pooled OLS, Fixed or Random effect model? " 12.06.2017.
12. Vuko, Tina, and Marko Cular. "Finding determinants of audit delay by pooled OLS regression analysis." *Croatian Operational Research Review* (2014): 81-91.
13. Hedges, Larry V. "Fixed effects models." *The handbook of research synthesis* 285 (1994): 299.
14. Greene, W.H., 2011. *Econometric Analysis*, 7th ed., Prentice Hall.
15. Diggle, Peter J.; Heagerty, Patrick; Liang, Kung-Yee; Zeger, Scott L. (2002). *Analysis of Longitudinal Data* (2nd ed.). Oxford University Press. pp. 169-171. ISBN 0-19-852484-6.
16. <https://drive.google.com/file/d/1tlztG4GxEvVj1N7OhZnStpbBkwNKQ/view>

Xayriniso XUSANOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, sotsiologiya fanlari doktori (DSc)

e-mail: husanovahayriniso@gmail.com

IJTIMOY HIMOYA TIZIMIDA SOTSIOLOGIK POTSEDURALARNI QO'LLASH SAMARADORLIGI

Annotatsiya. Maqolada ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishda innovatsion yondashuvlar qo'llanilish samaradorligi sotsiologik tahlil qilingan. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniqlash va ularga moddiy ko'mak pullarini ajratish tizimi avtomatlashtirilib, ushbu jarayonda mutassaddi shaxslarning ishtiroki minimallashtirilish yo'llari ko'rsatilgan. Elektron tizim ushbu sohada suiiste'molliklarning oldini olishda raqamli iqtisodiyot yutuqlariga tayangan munosib yechim ekanligi asoslangan. Aholini ijtimoiy himoyalash tizimining tarkibiy elementlari bo'lgan manfaatdor vazirlik va idoralar o'rtasida to'siqlarsiz axborot hamda zaruriy ma'lumotlarni almashish tizimi ishga tushirilish ijtimoiy zarurat ekanligi alohida e'tirof etilgan. "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi orqali kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam tayinlash hamda to'lash mezonlari, ijtimoiy nafaqalarni tayinlashda ustuvorlik daromadi nisbatan pastroq bo'lgan oilalarga berilish zarurati asoslangan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy himoya, ilg'or modellar, liberal yondashuv, ijtimoiy risk, ijtimoiy ko'mak, ijtimoiy xizmat, ijtimoiy sug'urta, ijtimoiy davlat, subsidiya, dotatsiya.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ СОЦИОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕДУР В СИСТЕМЕ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ

Аннотация. В статье проведен социологический анализ эффективности применения инновационных подходов к совершенствованию системы социальной защиты. Автоматизирована система выявления социально незащищенных слоев населения и выделения им денег на материальную поддержку, намечены пути минимизации участия должностных лиц в этом процессе. Он основан на том факте, что электронная система является достойным решением, основанным на достижениях цифровой экономики в предотвращении злоупотреблений в этой области. Отдельно отмечена социальная необходимость внедрения системы беспрепятственного обмена информацией и необходимой информацией между заинтересованными министерствами и ведомствами, являющимися структурными элементами системы социальной защиты населения. Критерии назначения и выплаты социальных пособий и материальной помощи малообеспеченным семьям через информационную систему "Единый реестр социальной защиты", приоритет при назначении социальных пособий отдается семьям с относительно низким доходом.

Ключевые понятия: социальная защита, продвинутые модели, либеральный подход, социальная нестабильность, социальные риски, социальная помощь, социальная работа, социальная страхование, социальная справедливость, социальное государство, социальное благосостояние, субсидия, дотация.

THE EFFECTIVENESS OF THE USE OF SOCIOLOGICAL PROCEDURES IN THE SOCIAL PROTECTION SYSTEM

Abstract. The article presents a sociological analysis of the effectiveness of innovative approaches to improving the social protection system. The system of identifying socially vulnerable segments of the population and allocating money to them for material support has been automated, ways to minimize the participation of officials in this process have been outlined. It is based on the fact that the electronic system is a worthy solution based on the achievements of the digital economy in preventing abuse in this area. The social necessity of introducing a system of unhindered exchange of information and necessary information between interested ministries and departments, which are structural elements of the social protection system, was separately noted. Criteria for the appointment and payment of social benefits and material assistance to low-income families through the information system "Unified Register of Social Protection", priority in the appointment of social benefits is given to families with relatively low income.

Key words: social protection, advanced models, liberal approach, social instability, social risks, social assistance, social work, social insurance, social justice, welfare state, social welfare, subsidies, subsidies.

Kirish. Dunyo miqyosida aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyalash, ularning ish bilan bandligini ta'minlash orqali kambag'allikdan chiqarishga qaratilgan e'tibor yangi vazifalarni kun tartibiga qo'ymoqda. Ma'lumotlariga ko'ra, "...dunyo aholisining 47 foizi ijtimoiy himoyaning bitta turidan foydalana olsa, 53 foizi (4,1 milliard kishi) bunday yordamdan to'liq yoki qisman mahrumligicha qolib, davlatlar YAIMning atiga 12,8 foizi ijtimoiy himoya chora-tadbirlariga sarflanadi, yuqori daromadli davlatlarda bu ko'rsatkich 16,4 foizni tashkil etsa, past daromadli davlatlarda 1,1 foizni tashkil etmoqda"[1]. Bu aholini ijtimoiy himoyalash tizimini takomillashtirishda innovatsion tendensiyalarni ilmiy o'rganish zaruriyatini ilgari suradi.

Jahonning etakchi ilmiy markazlari va universitetlarida aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari samaradorligini tizimli tahlil qilish borasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, ijtimoiy himoya tizimida zamonaviy transformatsiyalar, dunyo davlatlarida muhtojlikning korrelyatsion tahlili, aholi ijtimoiy-demografik taqsimotiga ko'ra himoyalash tendensiyalari, universal ijtimoiy himoyadan individual yondashuvga o'tib borish, ijtimoiy himoya va inson kapitaliga sarmoya aloqadorligi, aholining yosh stratalari bo'yicha zamonaviy ijtimoiy tahlikalar, boqimandalik va ichki zahiralarni faollashtirish muammolari, ijtimoiy himoya tizimida raqamli islohotlar masalalarini ilmiy tadqiq qilish zaruratini ilgari surmoqda.

Yangi O'zbekistonda aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyalashga e'tibor qaratilmoqda. "Ijtimoiy himoya birgina ko'mak pullarini to'lash bilan cheklanmasligi kerak va muhtoj kishilarning "oyoqqa turib olishi"ga yordam berishi shart"[2]. Shu boisdan, aholini ijtimoiy himoyalash tizimini yanada takomillashtirishda mavjud tajribani tanqidiy-tahliliy o'rganish, ushbu sohadagi muammoli nuqtalarni aniqlash, ijtimoiy himoya tizimida differensiallashgan-preventiv texnologiyalarni faollashtirish orqali uning samaradorligini ta'minlash dolzarbligi oshib bormoqda. Shuningdek, ijtimoiy himoya tizimida tartib-tamoyillar, mezonlar va ko'rsatkichlar doirasini aniqlash, ijtimoiy himoyaning kompen-

satorlik va stimullovcilik funksiyalarini kun tartibiga chiqarishda ko'maklashadigan kompleks sotsiologik tadqiqotlarni yanada takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahonda olib borilgan tadqiqotlardan qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishish sohasida ijtimoiy himoya samaradorligini oshirish masalalarini ilmiy o'rganish (International Labour Office, Shveysariya), ijtimoiy himoya tizimining strategik asoslari (EU Social Protection Systems Programme, Finlyandiya), Osiyo va Tinch okeani havzasi davlatlarida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash (United Nations Economic and Social Commission for Asia and the Pacific, Tailand), ehtiyojmand qatlamlarni ijtimoiy himoyalashning tuzil-mali-funksional xususiyatlari (The Asian Development Bank, Tailand)[3], kambag'allik, ishsizlik, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, tabiiy ofat oqibatlar va boshqa krizislarda qo'llab-quvvatlashni tarmoqli rivojlantirish (The International Bank for Reconstruction and Development (IBRD), World Bank Group, AQSH)[4], aholining bazaviy ijtimoiy ehtiyojlar ta'minotini moliyalash va ijtimoiy himoya tizimi samaradorligini oshirish (The International Development Association, AQSH), ijtimoiy himoyada xalqaro ijtimoiy hamkorlik va global koordinatsiya (Social Protection Inter-agency Cooperation Board, AQSH) masalalarini qamrab oladi[5].

Dunyoda aholini ijtimoiy himoyalash bo'yicha qator, jumladan, ustuvor yo'nalishlar asosida tadqiqotlar olib borilmoqda: ijtimoiy himoyaning iyerarxik funktsionalligi, vertikal va gorizontaal strategiyalari, umumbashariy va milliy paradigmalari, sohani ilmiy tadqiq etishda multidistsiplinar pozitsiya, ijtimoiy himoyada universallikdan chekinish va individual-intellektual mezonlarning afzalligi, muhtojlikdan chiqarishda ichki subyektiv zahiralarni faollashtirish, stimullash tartibiga o'tish, muhtojlik omillarini fiziologik, ijtimoiy, ruhiy komponentlardan iborat yaxlitlikda baholash metodikalarini ishlab chiqish, sohada ijtimoiy tadbirkorlik ijtimoiy himoyaning ijtimoiy-texnologik, inersion-integratsion rivojlanish trayektoriyalari ilmiy-tadqiqot ishlarning dolzarb yo'nalishlari qatoridan joy olmoqda.


Tadqiqot metodologiyasi. Ijtimoiy himoya tushunchasining sotsiologik modelini shakllanishida ijtimoiy davlat kontsepsiyasi alohida ahamiyatga ega. Ushbu kontsepsiyaga muvofiq ijtimoiy himoya fuqarolarning farovon turmushiga tahdid soluvchi ijtimoiy tahlikalardan himoyalash mexanizmi sanaladi. Sotsiologik nuqtai-nazardan ijtimoiy himoya davlat ijtimoiy siyosatining institutsional tarmog'i bo'lib, u o'zida jamiyatning strategik taraqqiyot maqsadlarini ifodalaydi[6]. Uni sotsiologik o'rganish "Ijtimoiy himoya sotsiologiyasi" tarmoq yo'nalishini shartlaydi va quyidagi darajalar kesishmasida amalga oshiriladi (1-rasm):



1-rasm. Ijtimoiy himoya sotsiologiyasining tarkibiy tuzilishi.

1) umummetodologik daraja – ijtimoiy himoyani kontseptual o'rganishda multidisiplinar metodologiyaga tayanish; 2) tarmoq sotsiologiyasi – ijtimoiy himoya sotsiologiyasi doirasidagi ilmiy tadqiqotlar mahsuli bo'lgan maxsus nazariyalar; 3) empirik daraja – amaliy sotsiologik tadqiqot metodlari yordamida sohani sotsiologik diagnostikasini amalga oshirish[7]. Ushbu darajalar "Ijtimoiy himoya sotsiologiyasi"ning metodologik va metodik bazasini hosil qiladi. Shuningdek, "ijtimoiy himoya" tushunchasi falsafa, tarix, sotsiologiya, iqtisodiyot, demografiya, siyosatshunoslik, huquqshunoslik, psixologiyada fanlararo tadqiqotlarga turtki berdi. Natijada, multidistsiplinar loyihalarni amalga oshirish tendensiyasi organik metodologik hamkorlik va fanlararo konsensusni shartladi. Bu ilm-fan doirasida yaqqol sezilmoqda va ijtimoiy himoyaning zamonaviy mazmun-mohiyatini ilmiy o'rganishda integratsiyalashgan yondashuvni shakllantirmoqda. Ushbu yondashuvga muvofiq ijtimoiy himoya universal ilmiy obyekt sifatida bitta fan doirasida muxtor qola olmaydi. Aksincha, ko'p qirrali metodologiyaga tayanadi va multidistsiplinar simbiozni hosil qiladi.

Tahlil va natijalar. Statistik reallikdan kelib chiqib, 30-55/60 yoshli aholi qatlami Kun.uz ijtimoiy tarmog'ida o'tkazilgan onlayn anketali so'rovda ishchi obyekt sifatida tanlandi[8]. Bunda quyidagi ijtimoiy mezonlar asos bo'ldi; 1) o'rta yoshlilar sotsial mas'uliyatli, qat'iy fuqarolik pozitsiyasiga ega ijtimoiy yetuk shaxslar yig'indisi; 2) jamiyatda o'rnatilgan me'yorlarga mos holda shaxsiy va kasbiy hayotda barqarorlikni ta'minlab, kar'era pilla-poyasida faol harakatlanadi; 3) ularning zimmasida ikki karra mas'uliyat, ya'ni, o'sib kelayotgan farzandlar hamda qarib borayotgan ota-onasi borasida qayg'urish yotadi. Tadqiqotda respondentlarga "Kundalik hayot barqarorligiga tahdid soluvchi omillarni ko'rsating" savoli bilan murojaat etildi (2-rasm).




2-rasm. Kundalik hayot barqarorligiga tahdid soluvchi omillar, %.

Har ikkinchi respondent (46,2%) turmush barqarorligiga tahdid sifatida narx-navoning oshib ketishi/pulning qadsizlanishini ko'radi. Keyingi o'rinda ish joyining yo'qotilishi/oylik maoshning uzilib qolishi (26,4%) aniqlandi. 19,8% holatda yashab turgan hududning ijtimoiy-iqtisodiy qoloqligi/ish o'rinlari yaratilmaganligi bu muammolar qatoridan joy oldi. Kundalik iste'mol/to'y /marosimlarga muntazam sarf-harajatlar oshib ketishi (14,5%)

xuddi shunday ijtimoiy tahlikalar qatoridan o'rin olmoqda. 9,3% – respondentlar fikriga ko'ra, tadbirkorlik va kichik biznesning barbod bo'lishi/daromadning to'htab qolishi xavotirga sabab bo'lmoqda. 8,9% – so'ralganlar ishlashni istamaslik/o'z taqdiriga loqaydlik/boqimada kayfiyatda yashashga moyillikni ijtimoiy tahlikalar qatorida ko'radi. Tadqiqot natijalariga muvofiq ijtimoiy himoyaga muhtojlik Bartel shkalasi bo'yicha sotsiologik baholanib, ehtiyojmand qatlamlarda salomatlik darajasi va maishiy ijtimoiylashuv holatidan kelib chiqib, ularda ichki sub'ektiv zahiralarni faollashtirish orqali jamiyatdagi o'rni, maqomini oshirish zarurati asoslandi.

Tadqiqotda mamlakatimizda "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimida idoralararo elektron hamkorlik istiqbollari va integratsiyalashgan axborot tizimini takomillashtirish tendensiyalari aniqlandi. "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi samaradorligini ijtimoiy ko'rsatkichlarida baholang?" savoli bo'yicha ekspertlar fikriga ko'ra, davlat ijtimoiy xizmatlari va ijtimoiy yordam oluvchilarning doimiy yangilanib turiladigan yagona ma'lumot bazasi shakllantirildi (27%); ijtimoiy yordam tayinlash jarayoni maksimal shaffoflashdi (32%); ehtiyojmandlik darajasi belgilangan mezonlarga muvofiq obyektiv aniqlanmoqda (21%); muhtojlikni regional baholash dolzarblashmoqda (20%). Tizimda inson omilining ishtiroki juda kamligi bois suiste'molliklarni oldini olishning o'ziga xos mexanizmi bo'ldi va aholini ijtimoiy himoyalash tizimida raqamli texnologiyalar samaradorligini ta'minladi. Ijtimoiy himoyaning avtomatlashtirilgan tizimi "maqsadli" bo'lib, bir-biri bilan chambarchas bog'liq quyidagi ikki yo'nalishda amalga oshiriladi (3-rasm).



3-rasm. Ijtimoiy himoya yagona reyestri axborot tizimining funktsional imkoniyatlari.

Ijtimoiy himoyaning maqsadlilikini oshirishda ehtiyojmand aholi qatlamlari uchun qulay sharoit yaratishda ularning ijtimoiy mehnatda band bo'lganlarga to'liq bo'lmagan ish kunlari joriy etish, barqaror daromad va tibbiy xizmatni kafolatlaydigan ijtimoiy shartnomalar tuzish imkoniyatlarining sotsiologik jihatlarini kengaytirish tizimini yaratilishini shartlaydi. Ushbu innovatsion yangiliklar "Raqamli O'zbekiston-2030" davlat dasturi doirasida "elektron hukumat" tizimini takomillashtirishni anglatadi. BMT Inson taraqqiyoti dasturi doirasida Qozog'istonda 2022 yildan boshlab aholini adresli ijtimoiy himoyalashda raqamli texnologiyalarga asoslangan "Oilaning raqamli xaritasi" loyihasi ishga tushirildi[9]. Qo'shni davlat ijtimoiy himoya tizimida raqamli islohotlar mamlakatimizda joriy etilgan "Oilaning raqamli pasporti" texnologiyasining analogi bo'lib, ikkala holatda ham bu mexanizm ehtiyojmand oilalarga tezkor va samarali yordam ko'rsatishga mo'ljallangan innovatsion yechim bo'ldi.

Xulosa va takliflar. Ijtimoiy himoyaning yagona axborot tizimi ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy holatni o'rganishda differentsiallashgan-preventivlik tartibiga mutanosib bo'lmoqda. Ushbu tartib doirasida ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarining hayotiy ehtiyojlarini qondirishga hamda mahallalarda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan milliy ijtimoiy sug'urta xizmatlaridagi oilaviy ko'mak, "manfaatli taklif" loyihalarini jamoatchilik nazorati asosida yo'lga qo'yilishi ayni muddao sanaladi[10]. Ushbu tizim xalqaro amaliyotda keng qo'llanilib, ehtiyojmand kishining nafaqat moddiy yetishmovchilik holati, balki uni muhtojlikka tushurib yuborgan bevosita va bilvosita omillar tashxislanadi. Ehtiyojmand aholi qatlamlari uchun qulay sharoit yaratishda ularning ijtimoiy mehnatda band bo'lganlariga barqaror daromad va tibbiy xizmatni kafolatlovchi ijtimoiy shartnomalar tuzish imkoniyatlarining sotsiologik jihatlarini kengaytirish zarurati oshib boradi. Bunda ijtimoiy yordam, ijtimoiy xizmat va ijtimoiy sug'urta birligi asosida ko'rsatilayotgan ko'makning kompensatorlik hamda stimullovchi funksiyalari uyg'unlashib ketadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyalash tizimini yanada takomillashtirish, ijtimoiy tahlikalarni sotsiologik baholash metodikalarini ishlab chiqish, sohani axborotlash va raqamlashtirish tendensiyalarida inson omili ishtiroki, ijtimoiy yordamning jamg'arma samaradorligini oshirish jihatlarini chuqur tadqiq etishga bag'ishlangan maxsus ilmiy ishlarda manba sifatida foydalanishi bilan belgilanadi.

ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamining ehtiyojmandlik darajasini Bartel shkalasi bo'yicha aniqlash orqali sotsiologik baholash mezonlari (salomatlik, maishiy ijtimoiylashuv, ichki subyektiv zahiralarni faollashtirish, jamiyatdagi o'rni, maqomi) ishlab chiqilgan;

jamiyat ijtimoiy tuzilmasida ehtiyojmand aholi qatlamlarining hayot faoliyatini tashkil etish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishga yo'naltirilgan davlat, nodavlat, xususiy sektor hamda mahalla faoliyatini muvofiqlashtirish asosida yagona ijtimoiy eko-tizimni yo'lga qo'yilishi asoslantirilgan;

ehtiyojmand aholi qatlamlari uchun qulay sharoit yaratishda ularning ijtimoiy mehnatda band bo'lganlariga barqaror daromad va tibbiy xizmatni kafolatlaydigan ijtimoiy shartnomalar tuzish imkoniyatlarining sotsiologik jihatlarini kengaytirish tizimining yaratilishi asoslangan;

og'ir sharoitli oilalarda latent muammolarni yakka tartibda aniqlab, ularda ijtimoiy faollikni mahallalarda shakllantirish orqali ijtimoiy sotsiologik tizimini (tibbiy ko'rikdan o'tkazish, bepul dori-darmon, statsionar sharoitda sog'liqlari tiklanishi va tibbiy-ijtimoiy patronaj xizmatlari, sihatgoh va dam olish uylariga yo'llanmalar ajratish) tashkil etilishi asoslangan;

ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarining hayotiy ehtiyojlarini qondirishga hamda mahallalarda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan milliy ijtimoiy sug'urta xizmatlaridagi oilaviy ko'mak, "manfaatli taklif" loyihalarini jamoatchilik nazorati asosida yo'lga qo'yilishi asoslantirilgan.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. <https://www.ilo.org/global/research/global-reports/world-social-security-report/2020-22/lang--en/index.htm>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi / Xalq so'zi. 2020-yil 25-yanvar.
3. Всемирный доклад по мониторингу ОДВ. – Ташкент: Издательство ЮНЕСКО, 2021. – С. 12.

4. Доклад о социальной защите в мире в 2017-2019 годах. Обеспечение всеобщей социальной защиты для достижения Целей в области устойчивого развития / Группа технической поддержки по вопросам достойного труда и Бюро МОТ для стран Восточной Европы и Центральной Азии. – Москва: МОТ, 2018. – С. 32-33.

5. Социальное обеспечение для всех. Стратегия Международной организации труда. Создание минимальных уровней социальной защиты и всеобщих систем социального обеспечения. Международная организация труда, 2013. – С. 3-5.

6. Sodiqova Sh.M. Jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida keksalarni ijtimoiy himoyalashning sotsiologik tahlili. Sots. f.dok. dissert. – Toshkent:O'zMU, 2016. – B. 161.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini mustahkamlash" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 30-oktabrdagi 669-sonli Qarori Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 2020-yil 31-oktabr.

8. Dissertatsiya ishida muallif tomonidan ishlab chiqilgan "O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish tendentsiyalari" mavzusida on-layn anketali savolnomasi Kun.uz ijtimoiy tarmog'ida joylashtirildi va unda 1225 nafar respondent ishtirok etdi. Mazkur tadqiqotda tasodifiy tanlanma usuli qo'llanilib, unda respublikamizning ma'muriy-hududiy taqsimotga muvofiq aksariyat respondentlar Toshkent shahri 22% (266 nafar) va Samarqand viloyati 14% (176) nafar ishtirok etdi. Respondentlarning aksariyat ko'pchiligi 30-54 yosh (68,9%), ya'ni o'rta yoshli aholi qatlamiga mansubligi aniqlandi. (https://docs.google.com/forms/d/1lzkp3ujdN3_zlgz2Uvk1H7POAGNKDEwBmzSNSt).

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son).

10. Xusanova X.T. O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi:kontseptual asoslar va innovatsion tendentsiyalar. Monografiya. – Toshkent:KALEON-PRESS, 2021. – 168 b.

Gulnoz JIYANMURATOVA,

Doctoral student of the National University of Uzbekistan,

PhD in Sociology, associate professor

e-mail: g.jiyanmuratova@nuu.uz

Reviewed by DSc in Sociology, prof. M. Bekmurodov

THE ISSUE OF YOUTH TRUST IN POLITICAL INSTITUTIONS IN SOCIOLOGY

Abstract. In this article, the phenomenon of trust is considered as a social mechanism that ensures social development and social order. A comparative analysis of concepts close to the concept of «trust», such as «faith» and «confidence», which in some cases are used as synonyms, is carried out. Various views on the category of “trust” in sociology are analyzed: including as security (N. Luhmann, E. Giddens); as social capital (F. Fukuyama, R. Putnam, P. Bourdieu, J. Coleman); within the network (R. Barth, M. Granovetter, A. Portes); institutional (T. Skocpol, S. Nek, P. Kiefer) and sociocultural approaches (P. Sztompka). The dependence of the effectiveness of reforms carried out in society on the social activity of young people and the level of their trust in the authorities is substantiated.

Key words: youth, political institutions, power, trust, faith, confidence, security, social capital, network approach, institutional approach, sociocultural approach.

SOTSILOGIYADA YOSHLARNING SIYOSIY INSTITUTLARGA NISBATAN ISHONCHI MASALASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ishonch hodisasi ijtimoiy taraqqiyot va ijtimoiy tartibotni ta'minlovchi ijtimoiy mexanizm sifatida ko'rib chiqilgan. “Ishonch” (*trust*) tushunchasiga juda yaqin va ayrim holatlarda sinonim tarzda ishlatiladigan “imon-e'tiqod” (*faith*) va “qat'iy ishonch” (*confidence*) tushunchalarining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Sotsiologiyada “ishonch” kategoriyasiga turli xil: jumladan, xavfsizlik sifatidagi (N. Luman, E. Giddens); ijtimoiy kapital sifatidagi (F. Fukuyama, R. Patnem, P. Burdye, J. Koulman); tarmoqli yondashuv (R. Bart, M. Granovetter, A. Portes); institutsional yondashuv (T. Skochpol, S. Nek, P. Kifer); sotsiomadaniy yondashuv (P. Shtompka) doirasidagi qarashlar tahlil etilgan. Jamiyatda olib borilayotgan islohotlarning samarasi yoshlarning ijtimoiy faolligi va ularning hokimiyatga bo'lgan ishonch darajasiga bog'liqligi asoslangan.

Kalit so'zlar: yoshlar, siyosiy institutlar, hukumat, ishonch, imon-e'tiqod, komillilik, xavfsizlik, ijtimoiy kapital, tarmoqli yondashuv, institutsional yondashuv, sotsiomadaniy yondashuv.

ВОПРОС ДОВЕРИЯ МОЛОДЕЖИ К ПОЛИТИЧЕСКИМ ИНСТИТУТАМ В СОЦИОЛОГИИ

Аннотация. В данной статье феномен доверия рассматривается как социальный механизм, обеспечивающий социальное развитие и социальный порядок. Проведен сравнительный анализ близких понятию «доверие», таких как «вера» и «уверенность», которые в ряде случаев используются как синонимы. Анализируются различные взгляды к категории «доверие» в социологии: в том числе как безопасность (Н. Луман, Э. Гидденс); как социальный капитал (Ф. Фукуяма, Р. Патнем, П. Бурдьё, Дж. Коулман); в рамках сетевого (Р. Барт, М. Грановеттер, А. Портес); институционального (Т. Скочпол, С. Нек, П. Кифер) и социокультурного подходов (П. Штомпка). Обоснована зависимость эффективности проводимых в обществе реформ от социальной активности молодежи и уровня ее доверия к власти.

Ключевые слова: молодежь, политические институты, власть, доверие, вера, уверенность, безопасность, социальный капитал, сетевой подход, институциональный подход, социокультурный подход.

Introduction. Trust is a special regulatory phenomenon of relations between individuals and social groups and is an indicator of overall social stability.

There is no need to prove that the problem of trust is one of the pressing problems of modern sociological theories and one of the current areas of empirical sociological research. The problem of increasing trust in a modern society that has embarked on the path of democratization of public life, the search for new ways to overcome the “distrust syndrome” (lack of trust, crisis of confidence), which inevitably arises as a result of various reforms, is of particular importance.

Reforming all spheres of social life and, as a consequence, changing lifestyles has a significant impact on the views of young people on social reality, their involvement in socio-cultural, socio-economic and socio-political processes. The search for positive forms of cooperation between different age groups of government and government bodies, primarily with youth audiences, is becoming a requirement of the time. At the same time, the study of socio-political activity of young people acquires special importance and becomes one of the priority areas of activity of government bodies at all levels.

In our opinion, monitoring the dynamics of the level of trust/distrust among young people is no less important and necessary, since young people are the most mobile and active segment of the population. Under the influence of various (internal and external) factors, the processes of social status and group consciousness constantly change in them, while the mood of trust and the opposite distrust self-regulate the behavior of young people and perform important functions in comparison with them. The main one is to understand the nature of the objects of social reality, to eliminate the ambiguity that has arisen in relationships. Therefore, the ability of the authorities to effectively communicate with the younger generation is the primary task of socio-political and economic reforms.

Research Methodology. First of all, the problem of the relationship between the concept of “trust” and two related concepts that are very close to it in content - “faith” and

“confidence” is also very relevant, and this is mainly within the framework of philosophical and psychological sciences. According to sources, three psychological states of a person are called emotions (feelings), but these are cognitive-volitional and emotional processes that affect both intellectual, volitional, and emotional activity.

In order to avoid misunderstandings when translating some definitions of the concept of “trust” into the Uzbek language when using foreign sources in the issue we are studying, we considered it permissible to present below the relationships of these three concepts that are acceptable to us:

Trust is the assumption that something (or someone) can be trusted, that is, hoped in advance.

Faith (deep belief) is a decision (that is, a choice) to accept something as truth without evidence.

Confidence is an empirically proven form of something to believe in, that is, proven certain knowledge.

Trust is essentially an act of faith, which means that trust relationships are primarily characterized by uncertainty. Faith, unlike trust, cannot be measured empirically, although the methods used to measure trust are also the subject of much debate. In addition, there is an opinion that trust arises only as a reaction to uncertainty and risk in the life of society, and faith always exists as a clear and firm feeling of completeness.

Within the framework of sociology, N. Luhmann and E. Giddens considered trust in their works as security; F. Fukuyama, R. Putnam, P. Bourdieu, J. Coleman as social capital; R. Barth, M. Granovetter, A. Portes within the network approach; T. Skocpol, S. Neck, P. Kiefer within the framework of the institutional approach; P. Sztompka and others within the framework of the sociocultural approach.

Trust is a complex phenomenon of ambiguous nature and multi-level structure, studied by various social sciences. There are many definitions and concepts of trust, as well as assumptions about how it manifests itself and under what circumstances.

Some authors (for example, R. Hardin) believe that trust is “hope (opera) based on rational thinking and extensive knowledge of another person” [1, – P. 27]. It can only arise in current (based on correct information, honesty, sincerity, competence, professionalism, etc.) interpersonal relationships, since only such relationships can be based on knowledge of the opponent’s reliability. Thus, trust is defined as a quality of a person, his tendency to believe.

For P. Sztompka, trust is “a recognized guarantee of the uncertainty of the future actions of other people” [2, – P. 80]. That is, trust is the expectation of conscientious behavior of others, a “pledge” of uncertainty to compensate for the lack of information about the interaction partner.

F. Fukuyama defines trust as “the expectation among members of a community that other members will behave more or less predictably, honestly and with attention to the needs of others, in accordance with certain general norms” [3, – P. 52].

In general, many definitions of trust refer to the degree to which people (in each other, institutions and processes) come to trust under certain circumstances, and if actors, mechanisms or context change, the “quality” of trust (for example, the degree of trust – with little doubt, dislike, hostility, or complete loss of trust in something or someone) is based on the assumption that it will change. Trust plays the role of the basis of the social system, a necessary condition for the formation of social relations.

Trust naturally involves a certain level of risk, since the subjects of trust do not have complete information about each other and do not have control over the current and

future behavior of others. By trusting, a person takes on a risk, but this risk is inherent in the decision-making process itself. Confidence allows people to plan and carry out various activities. Without the basic experience of trust that develops during childhood and adolescence, a person will have difficulty functioning later in life.

In modern societies, people freely unite, create various “secondary” (voluntary) structures, where it is impossible to live without trust, since, on the one hand, it contributes to the functioning of a democratic society, and on the other hand, life with this is also problematic, because the basis for trust (criteria, conditions) are necessary, and they still need to be conquered. In short, the existence of trust in society cannot ensure people’s daily activities. Trust must be based on the reliable actions of persons and organizations that are objects of trust.

It is necessary to distinguish between interpersonal trust (in a specific person performing a social role) and social trust (a social benefit that can be used by all members of society). Knowledge collected through information sharing can be interpreted differently by individuals, groups and institutions and reflected in their expectations, which in turn influences the formation of trust and mistrust in society.

The confidence of young people is largely based on personal and family experience (as a result of personal socialization, evaluation of information, etc.). At the same time, society “accumulates” the previous experience of generations and “codifies” it into models of behavior. It mainly helps to build trust in human relationships or, on the contrary, it creates doubts, doubts, mistrust and uncertainty in interpersonal relationships.

Thus, trust is a condition for the effective interaction of various subjects, as well as a characteristic feature of a person’s relationships with other people, as well as a process characterized by certain stages of development and, ultimately, at all stages of this process, a comprehensive study of the dynamics of changes in the level of trust is required in order to timely introduce important adjustments.

R. Emerson and a number of sociologists (L. Molm, K. Cook, etc.) studied risk and trust in a social exchange network. In their opinion, as trust increases, risks in a social exchange network decrease. Currently, many sociologists are engaged in determining trust ratings of individual actors with the participation of social institutions.

Trust as security was considered in their works by N. Luhmann and E. Giddens. For Niklas Luhmann, trust is an important factor in the development of modern society, the level of trust is a necessary condition for the development of social communication, and social systems are usually formed only through communication. According to N. Luhmann, the simplest system of actions (interactions) consists of a sequence of connections; and social systems arise only from the need for selective coordination. In addition, social systems are formed only through communication, that is, it is assumed that initially “various electoral processes actively or reactively mutually determine each other” [4, – P. 13], that is, they trust each other. Thus, trust develops based on interdependent communication processes.

British sociologist Anthony Giddens considers trust an important feature of the postmodern era, characterized by complexity, uncertainty and risk. The period of modern “postmodern” society is characterized by an increase in the importance of thinking and self-reflection, a change in the human value system. E. Giddens defines trust as “the belief that a person or system can be relied upon for a specified set of results or events; this trust expresses trust in the honesty or love of another person or in the correctness of abstract principles (technical knowledge).” “[see: 5]. Thus, trust takes on particular importance in the modern world, as divided spatio-temporal relationships lead to feelings

of uncertainty, reflexivity and risk. In this context, E. Giddens emphasizes the widespread ontological uncertainty and indeterminacy as a consequence of the modern “postmodern” era.

Thus, for E. Giddens, faith is the connection between faith (faith without evidence) and firm conviction based on knowledge (confidence based on evidence). The scientist distinguishes between trust in people, based on reciprocity, responsibility and participation, and trust in “abstract systems” that ensure the reliability of everyday life [see: 6].

Most sociological interpretations of the category “trust” are based on the concept of social capital (F. Fukuyama, R. Putnam, P. Bourdieu, J. Coleman, etc.), where trust is a central element. F. Fukuyama interprets social capital as the basis of the potential of social interactions, developing as a result of the spread of trusting relationships in society. Acquiring social capital requires adapting to the moral norms of a particular society and mastering its values, such as loyalty, honesty and reliability.

By the concept of “radius of trust,” introduced by F. Fukuyama into scientific circulation, the scientist understands a certain circle of individuals and social groups that are part of a single system of trusting relationships participating in trusting relationships. Societies with lower levels of trust (radius) are characterized by nepotism, where family ties are the basis of all social interactions.

Societies with a high level and, therefore, a wide radius of trust, on the contrary, are prone to the formation of all kinds of voluntary associations and unions, in which there is a transition from a family organization (life, business, etc.) to large private enterprises (corporations, etc.). The level of trust inherent in each culture, according to F. Fukuyama, “predetermines the speed of formation of social capital” [3, – P. 52].

Social capital, on the one hand, is the result of the level of trust existing in society, and on the other hand, the achieved level of trust is an expression of the accumulation of social capital. For example, J. Coleman believes that the existence of trust contributes to the accumulation of social capital. At the same time, R. Putnam, on the contrary, is convinced that the accumulation of social capital is a condition for increasing the level of trust in society. According to P. Bourdieu, “Social capital is a set of reserves that a person or group possesses due to the presence, to varying degrees, of institutional relations of mutual knowledge and orientation” [7, – P. 14].

However, not every network is social capital. According to P. Sztompka, social capital arises only when network connections are formed voluntarily, “from below.” A network in which connections are not natural, but forced formation, can represent social capital only if interactions between people or groups of people occur on a voluntary basis, bypassing formally established relationships.

So, the theoretical problems of social capital, updated by J. Coleman, led to an empirical search for a real phenomenon. R. Putnam not only empirically substantiated the existence of this phenomenon, but also looked for its components [see: 8]. To do this, the scientist conducted comparative studies in 14 US states and introduced a multidimensional index of social capital. R. Putnam’s research shows a strong relationship between high levels of trust (i.e., high scores on the question “Do you think that most people can be trusted or should you be careful in your interactions with people?”), identified relationships, and other components of trust. index, which, according to the researcher, allows us to confirm that trust is the core of social capital.

The problem of trust within the network approach (R. Barth, M. Granovetter, A. Portes, etc.) defines social capital as a system of stable relationships between individuals, based

on mutual interests or facilitating the effective exchange of information, establishing strong social connections and creating trust, which helps resolve future conflicts and opens up the possibility of using the potential of this network [see: 9].

Within the framework of the institutional approach (T. Skocpol, S. Nek, P. Kiefer, etc.), trust is considered from the point of view of trust in a specific organization that creates social connections and relationships in society. Therefore, institutional trust largely depends on the effectiveness of the power and legal system of society, the level of its economic and moral development. It follows that a high level of institutional trust leads to stable development of society, and a low level leads to socio-political instability.

The connection between the levels of institutional and interpersonal trust can manifest itself in the following variations: a high level of interpersonal trust and a low level of institutional trust (i.e., society exists independently of government); high level of institutional trust and low level of interpersonal relationships (that is, society cannot function independently and is almost entirely dependent on the discretion of the government); average level of interpersonal and institutional trust (when society has significant social capital, and the state, in turn, contributes to its preservation and enhancement); lower level of interpersonal and institutional trust (when the state is unable to control and coordinate social processes, social relations are paralyzed due to mutual distrust) [see: 9].

Within the framework of the sociocultural approach, trust is considered as a cultural resource that allows realizing the potential of social interaction, that is, the phenomenon of trust is considered inseparable from the cultural characteristics of society.

Almost all human actions are directed towards the future, but the future is impossible to know and people are never 100% sure of it. At the same time, all members of society are subject to unique (but uncertain) circumstances, making trust a key tool for living in conditions of uncertainty. Based on this, trust includes two main components:

- accurate assumptions about how another person will behave in a certain future situation;

- firm faith, readiness for action (pledge).

Thus, the real sphere of trust is social phenomena, the peculiarity of which is their unpredictability and the impossibility of establishing complete control. When we talk about our interactions with other people, we can say that their future actions are unknown to us because we are unable to directly study the reasons for their actions.

In addition, people have the right to freedom of action, and they can always act completely differently from what is expected of them, and even strong predictions may not work out. Based on this, we can conclude that people live in conditions of uncertainty and the inability to fully predict the future actions of other people. Thus, we give the most general definition: “Trust is a guarantee against the uncertain future actions of other people” [2, - P. 80].

P. Sztompka introduces the concepts of “culture of trust”, “culture of mistrust”, “cultural trauma”, etc. A culture of trust contributes to the development of society, activates people’s initiative, increases the responsibility of government bodies, and ensures the transparency of all social structures. At the same time, a culture of mistrust, on the contrary, leads to social disorganization, general suspicion, passivity, arbitrariness of power, and deterioration of social processes [see: 2].

In transit (transitional) societies, first of all, spiritual ties are “hurt”, a normative anomaly appears, the uncertainty of structures and organizations increases, which causes a crisis of confidence in all social institutions. It can be overcome not only by blind

faith or fear, but also by cultural transformation - the development of trusting relationships [10, - P. 45-67]. Such “traumas” are especially felt due to the low level of education of young people and lack of desire to learn.

Thus, the effectiveness of social communications in various spheres of society depends on many factors, the key of which is trust. Trust is a key aspect of social life, especially everyday life. As a relatively independent category, trust fills various interactions between people with a common meaning, allows them to choose goals, and realize their interests and needs.

Conclusion/Recommendations. Analysis of some approaches to the study of trust allows us to identify two main directions in the study of social (generalized) trust: 1) reflects the culture of trust and social capital of society, their close connection and interdependence (macro level); 2) reveals a person’s inclination and willingness to trust (micro level).

Young people, first of all, respond to changes taking place in society. Due to their social and age characteristics, they do not have clearly defined models of trust primarily in “distant” and “alien” things. Young people tend to view trust as something “earned” over time through ongoing personal relationships.

Therefore, to increase the level of trust in society, it is necessary to unite the efforts of all participants in the process (citizens, business structures, the state), and not in the form of one-time integration, but systematically. “rebuild” trust.

An atmosphere of trust (the desire to maintain trust) must always exist and be maintained at the required level in society so that young people can evaluate the reliability, competence, potential benefits and losses of trusting objects (both individuals and institutions).

Today, sociologists [11], philosophers [12] and representatives of other social sciences are exploring problems of trust in the behavior of young people in our country. Also, some sociological research centers mainly study the level of trust in the activities of government agencies and economic institutions. However, the problems of developing a unified concept for studying and researching the general level of trust and the factors of its formation among modern youth, the definition of a “theoretical platform” are still poorly understood.

An analysis of the strategies used to study youth trust in political institutions shows the need to combine an interdisciplinary approach, including sociological, political science and psychological research methods, as well as quantitative and qualitative methods of collecting and processing information.

References:

1. Hardin R. Trust and Trustworthiness. – New York: Russell Sage Foundation, 2002. – 256 p.
2. Штомпка П. Доверие – основа общества. – М.: Логос, 2012 – 445 с.
3. Фукуяма Ф. Доверие: социальные добродетели и путь к процветанию: Пер. с англ. Д. Павловой и др. – М.: ООО «Издательство АСТ»: ЗАО НПП «Ермак», 2004. – 730 с.
4. Луман Н. Власть / пер. с нем. М.: Праксис, 2001.
5. Giddens A. The consequences of modernity. – Stanford: Stanford univ. press, 1990.
6. Luhman N. Familiarity, Confidence, Trust: Problems and Alternatives // Trust: Making and Breaking Cooperative Relations (electronic edition) / Ed. by D. Gambetta. – Oxford: University of Oxford, 2000. – Ch. 6. – P. 94-107.
7. Бурдые П. Социология политики. – М.: Социо-Логос, 1993.

8. Putnam R. D. Bowling Alone: The collapse and revival of American community. – N.Y.: Simon and Shuster, 2000.
9. Кухарчук Д.В. Феномен доверия как предмет социологического анализа: теоретические подходы // Сб. науч. трудов по итогам международной научно-практической конференции. – Ростов-на-Дону, 2016. – 94 с.
10. Штомпка П. Социальное изменение как травма // Социологические исследования. – 2001. – № 1. – С. 45-67.
11. Jiyanmuratova G.Sh. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati sharoitida yoshlar ijtimoiy-siyosiy faolligi dinamikasi // Журнал социальных исследований. – 2020. – Т. 3. – № 1.; Gulnoz J., Bunyod N. Absenteizm ijtimoiy hodisa sifatida. // Research and Publication. – 2023. – Т. 1. – № 11. – S. 4-10.
12. Ergashev I., Xudaynazarov A.U. O'zbekiston jamiyati boshqaruvida yoshlar faolligini oshirishning ma'naviy omillari // Журнал социальных исследований. – 2020. – Т. 3. – № 5.; Abdullayeva Z.N. Raqamlashgan jamiyatda ishonch kategoriyasining ahamiyati // Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. 1. – 2022. – С. 338-340.

Nargiza SALIYEVA,

Jizzax Sambxram universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tel.: +99891-526-00-01

TALABA-QIZLARNING INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda talaba qizlarga davlat siyosati darajasida e'tibor berilayotgani haqida bayon qilingan. Xususan, talaba-qizlarning IT sohasidagi intellektini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, qabul qilinayotgan farmon va qarorlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: IT texnologiyalar, siyosat, talaba-qizlar, dastur, farmon, oliy ta'lim, raqamli texnologiya.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТА СТУДЕНТОК

Аннотация. В статье рассказывается о том, что сегодня студенткам уделяется особое внимание на уровне государственной политики. В частности, были проанализированы реализуемые меры, принимаемые постановления и решения по развитию IT-интеллекта студенток.

Ключевые слова. IT технологии, политика, студентки, программа, постановление, высшее образование, цифровые технологии.

IMPROVING THE MECHANISMS FOR DEVELOPING THE INTELLIGENCE OF FEMALE STUDENTS

Abstract. The article tells that today students are given attention at the level of state policy. In particular, the measures being implemented, resolutions and decisions on the development of IT intelligence of female students were analyzed.

Key words. IT technologies, politics, students, program, resolution, higher education, digital technologies.

Kirish. Mamlakatimiz tarixida buyuk allomalar, ulug' bobolarimiz qatorida, bunday insonlarni dunyoga keltirib, tarbiyalagan, ulug'vor ishlarga ruhlantirgan fozila ayollar ham ko'p bo'lgan. Bugun ham xotin-qizlarimiz farzand tarbiyasida, turli sohalarda, mahallalarda fidoyilik ko'rsatmoqda. Ularning og'irini engil qilish, huquq va manfaatlarini ta'minlash maqsadida so'nggi yillarda bir qator qonunlar, farmon va qarorlar qabul qilindi. Xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini

oshirish davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida belgilangan. Avvalambor, yurt taraqqiyoti intellektual salohiyatli bilimli va intiluvchan yoshlarga bog'liq ekan, albatta bunday yoshlarni tarbiyalovchi ziyoli onalar bo'ladi.

Har qanday xalqning etuklik darajasini, avvalo, ayollarning ilmiy-madaniy kamoloti belgilab berishi, oqila va o'qimishli onalar millatning buyuk kelajagini yaratishlari, hammamizga yaxshi ayon. Shu bois donishmandlar: "Bitta qiz bolani o'qitsangiz – butun oilani o'qitgan bo'lasiz", deb bejiz ta'kidlamaganlar. Bugungi kunda talaba qizlarga berilyotgan e'tibor har yilgidanda jiddiylashdi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bu borada, avvalo, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Xotin-qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash milliy dasturi qabul qilindi. Ushbu hujjat doirasida poytaxtda xotin-qizlar uchun alohida universitet va joylarda uning texnikumlarini tashkil etish maqsad qilindi. Barcha talaba qizlarga ta'lim kontraktlarini to'lash uchun 7 yil muddatga foizsiz kredit berish tartibi joriy qilinadi. Hozirgi davrda opa-singillarimiz orasida o'nlab akademik va professorlar, fan doktorlari va fan nomzodlari, yuzlab iste'dodli tadqiqotchilar bor. Ilm-fan bilan shug'ullanish, ilmiy yangilik yaratish insondan matonat sabr va izlanish talab qilishi shubhasiz. Shuning uchun ham oila tashvishlari va farzand tarbiyasini ilmiy tadqiqot bilan birga olib borayotgan, bu borada amaliy yutuq va natijalarga erishayotgan olim ayollarni, talaba qizlarimizni chinakam matonat va jasorat sohibalari deb atasak bo'ladi[1].

Oliy ta'lim dargohlarida ta'lim jarayonida tadqiqotga asoslangan yondashuvdan faol foydalanish lozim va bu bilan ilmiy tadqiqotda talaba-qizlarning ko'nikmalarini rivojlantirish va IT-kompetensiyaga asoslangan ijodiy qobiliyatlarini va ijodiy fikrlashlarini shakllantirish mumkin. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari – ta'lim tizimidagi barcha muammolarga echim emas, balki raqamli avlod uchun ma'ruzalar va seminarlarni ma'lumotlarga boy va interaktiv qilib amalga oshirish vositasidir. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, o'qituvchilar talabalarning ehtiyojlariga yo'naltirilgan interfaol o'quv jarayonida asosiy rolni saqlab qoladi.

Ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalardan va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning metodik tizimi ishlab chiqilib, ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llanilayotgan bo'lsada, bu sohada yetarlicha muammolar mavjud. Xususan:

- ta'lim paradigmasining o'zgarishi (ko'p ta'lim olish emas, olingan ta'limni noodatiy hollarda qo'llay bilish) butun ta'lim tizimi maqsadi, mazmuni, tashkil etish shakli va vositalari, metodlarini qaytadan ko'rib chiqish, talabalar egallagan bilimlarini faoliyatga qo'llashni shakllantirish. Buning uchun innovatsion pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasi muhitida chuqur bilim berishga erishish.

- bugungi kungacha pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish institutlari dasturlarida ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasi muhitini shakllantirish va undan foydalanish jarayoni aks etmaganligi, bir tizimga keltirilmaganligi.

- professional ta'lim sohasida kadrlar tayyorlovchi yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari va kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tarmoq markaz (institut)larida innovatsion pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasi muhitining o'qituvchilar tayyorlashdagi ahamiyati va metodikasining puxta ishlab chiqilmaganligi.

- hozirgi vaqtda instituti hamda universitetlar talabala qizlarni o'qitishda axborot (shu jumladan kompyuter) texnologiyalaridan foydalanish mohiyatini tushunishga ikkita asosiy yondashuv ustunlik qiladi:

– ma’ruza va amaliy materialni illyustratsiya qilish qobiliyati hisobiga talabalarning mazmuni va axborot tayyorgarligini kengaytirish, o’rganilayotgan jarayon va hodisalarni modellashtirish, vizuallashtirish, taqlid qilish, hal qilingan o’quv, ilmiy va ilmiy vazifalarni hal qilish qobiliyati tufayli o’rganilayotgan fan sohasini chuqurlashtirish imkoniyati; amaliy masalalar;

– yig’ish, saqlash, tarqatish maqsadida birlashtirilgan usullar, ishlab chiqarish jarayonlari va dasturiy va apparat vositalari to’plami, talaba qizlarning kognitiv faolligini rivojlantirish va universitetning o’quv jarayonini takomillashtirish uchun ma’lumotlarni ko’rsatish va foydalanuvchilarga taqdim etish.

Ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat.

Birinchi, o’quv jarayonida potentsial bilim – bu talaba qizlarga taqdim etiladigan o’quv ma’lumotlari ko’rinishidagi ta’lim mazmuni va boshlang’ich bilimlarni egallash bilan kasbiy kompetensiyalar, ko’nikmalar va ko’nikmalarni shakllantirishni ta’minlaydigan vazifalar, topshiriqlar va mashqlar to’plami. professional tajriba. Shu bilan birga, talabalar tomonidan olingan ma’lumotlar axborot-pedagogik mahsulotga aylanadi.

Ikkinchi, axborot texnologiyalarining bir qismi sifatida o’rganishga nisbatan tizimni tashkil etuvchi komponent sifatida o’quv texnologiyasining o’zi haqiqiy pedagogik jarayonning loyihasi sifatida muhim rol o’ynaydi. Bunday komponent sifatida kompyuterlarning zaruriy ishlashini ta’minlaydigan dasturiy ta’minot tizimlari (ma’lumotlar bazasini boshqarish dasturlari, o’quv dasturlari, video kompyuter va ekspert tizimlarini boshqarish dasturlari, multimedia tizimlari) ishlatiladi.

Uchinchi, tarmoq texnologiyalari axborot texnologiyalarining muhim tarkibiy qismi hisoblanib, ulardan foydalanish avtomatlashtirilgan axborot tizimlari asosida qurilgan va hozirgi vaqtda tobora ko’proq foydalanilmoqda [3].

Kompyuter texnologiyalarining mohiyatidan kelib chiqib, ulardan foydalanishning asosiy maqsadlarini shakllantirish mumkin ko’rinadi, ularning asosiysi zamonaviy kompyuter, aloqa va dasturiy ta’minot asosida tashkil etilgan axborot muhitidan foydalanish orqali talabalarning bilim sifatini oshirishdir.

Asosiy maqsadlar bilan bir qatorda, universitetlarda talaba qizlarni o’qitishda kompyuter axborot texnologiyalarini qo’llashning barcha turlarini o’z ichiga olgan boshqa maqsadlar ham mavjud:

– talabaning individual xususiyatlariga yo’naltirilgan turli xil ta’lim shakllari, jumladan, masofaviy ta’limning mavjudligi;

– talabalarga o’z bilimlarini mustaqil nazorat qilish imkonini beruvchi bilimlarni tekshirish va tekshirishning turli turlarini o’tkazish imkoniyati;

– o’rganilayotgan fanlar va talabaning individual sifatlariga qarab o’quv jarayoni va aniq ta’lim vazifalarini modellashtirish imkoniyati;

– kasbiy faoliyatda talab qilinadigan kompetensiyalarni rivojlantirish uchun turli jarayonlarni bashorat qilish va optimallashtirish qobiliyati;

– bo’lajak mutaxassis uchun zamonaviy talablarga muvofiq global Internetning turli xil axborot xizmatlarini ishlab chiqish.

Axborot texnologiyalari talaba qizlarda ma’lum kasbiy va shaxsiy fazilatlarini shakllantirish imkonini beruvchi pedagogik texnologiyalarning bir turi sifatida qaralishi mumkin. Bu o’quv jarayonining turli funksiyalari bilan belgilanadi: o’qitish, rivojlantirish, faollashtirish, shakllantiruvchi, axborot, boshqaruv, nazorat qilish, hissiy-motivatsion, prognostik, modellashtirish, kognitiv-illyustrasiyalash, axborot texnologiyalariga xos bo’lgan telekommunikatsiya.

Axborot funksiyasi Internet orqali, axborot manbai sifatida universitetning lokal yoki korporativ tarmog'ining imkoniyatlari, uni qidirish, to'plash va uzatish vositasi sifatida amalga oshiriladi. Axborot texnologiyalari gies bugungi kunda mavjud bo'lgan, o'rganilayotgan muayyan fanlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan barcha turdagi ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin: vizual, ovoqli, video ma'lumotlar.

Faollashtirish funksiyasi talabalarni tashabbuskorlik va ijodkorlikka, faol munosabat va maxsus tayyorgarlikka undashni o'z ichiga oladi. Axborot texnologiyalaridan foydalanган holda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar davomida talabalarining faolligi o'qituvchi va talaba o'rtasida barqaror aloqani vujudga keltiradi, o'quv materialini o'zlashtirish sifatini oshiradi, talabaning o'quv jarayonida faol ishtirok etishiga imkon yaratadi.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida prezident farmonida ta'limni rivojlantirish, xususan, oliy ta'limga e'tibor borasida aniq maqsadlar belgilab berilgan.

– ta'lim muassasalarining QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishi uchun maqsadli dasturni ishlab chiqish.

– 10 ta salohiyatli oliy ta'lim muassasasini tanlash.

– salohiyati va o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, xalqaro reytinglarga kiritish bo'yicha 5 yilga mo'ljallangan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va tasdiqlash [2].

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, "raqamli iqtisodiyot" kelgusi besh yilda mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy drayveri sifatida belgilab olindi. Barcha soha va hududlarda "Raqqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish boshlandi. Ushbu loyihalarni to'liq amalga oshirish uchun sohada yuqori malakali kadrlarni tayyorlash dolzarb masala hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarining informatika va axborot texnologiyalari bilan bog'liq ta'lim yo'nalishlari bo'yicha imtiyozli diplomga ega bo'lgan bitiruvchilari mazkur oliy ta'lim muassasalarining magistraturasiga kirish imtihonlarisiz to'lov-kontrakt asosida qabul qilinadi;

Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risidagi prezident farmonida: Axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish "Raqqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi Farmonida ham xotin-qizlarimizning haq-huquqlarini himoya qilish, ularni oliy ta'limga yana-da ko'proq qamrab olishga alohida e'tibor qaratilgani ham bejiz emas. O'zbekistondagi IT sohasiga ixtisoslashgan Inha, Amity va Toshkent axborot texnologiyalari universitetlari talabalarining 30 foizini qizlar tashkil etmoqda. [9].

Qizlarda IT sohasiga bo'lgan qiziqish yildan yilga oshib bormoqda. Bunga misol sifatida 6 yil ilgari Toshkent shahrida ochilgan Inha universitetida qizlar ulushi 3 foiz bo'lganini aytish mumkin. Hozir esa bu raqqam 9 barobar oshgan. 5-6 yil oldin IT texnologiyalar desak, qizlar va ota-onalarda bu soha erkaklar uchun, degan stereotip bo'lgan. Bugun esa bu qarashlar o'zgardi. Qizlarimiz ko'zlari yonib, ITni o'rganmoqda. Hozirga kelib IT sohasida ayollar ishtiroki 30 foizga yetdi. Xususan, ITga ixtisoslashgan Inha, Amity, Toshkent axborot texnologiyalari universitetlari talabalarining 30 foizini qizlar tashkil etmoqda. Bu davlat rivoji uchun katta yutuq. Sababi tahlil qilganimizda qizlarda yigitlarga nisbatan ijodiy yondashuv kuchli bo'ladi. Ular mukammalroq ijod qila oladilar [1].

Axborot funksiyasi Internet orqali, axborot manbai sifatida universitetning lokal yoki korporativ tarmog'ining imkoniyatlari, uni qidirish, to'plash va uzatish vositasi sifatida amalga oshiriladi. Axborot texnologiyalari gies bugungi kunda mavjud bo'lgan, o'rganilayotgan muayyan fanlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan barcha turdagi ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin: vizual, ovoqli, video ma'lumotlar.

Axborot texnologiyalari sohasidagi kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar davlat organlari va tarmoq tashkilotlarini malakali IT-mutaxassislar bilan ta'minlash uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Shu bilan birga, respublikaning mehnat bozorida malakali kadrlar etishmovchiligi axborot texnologiyalari sohasidagi o'quv dasturlari va uslublarini takomillashtirish, ta'lim muassasalarining IT-kompaniyalar bilan o'zaro hamkorligini kuchaytirishni taqozo etmoqda.

Mazkur imkoniyatlar yaratilishi albatta talabalarda katta shijoat va bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi. Axborot texnologiyalari sohasida bilim olishni istagan yoshlar uchun imtiyozli kreditla ajratilishi ko'zda tutildi. Bu haqida prezident imzolagan yangi qarorda aytib o'tilgan.

2022-yil 1-oktyabrdan boshlab nodavlat ta'lim tashkilotlarining o'quv kurslarida yoshlarning axborot texnologiyalari sohasida tahsil olishi uchun ta'lim krediti ajratish tizimi yo'lga qo'yilsin, deyilgan Qaror matnida.

Oliygo'h, texnikum va kollejlarda o'qiyotgan qizlarga ta'lim kontraktlarini to'lash uchun 7 yil muddatga foizsiz kredit berish joriy qilinadi.

– yangi o'quv yilidan boshlab magistraturada o'qiyotgan qizlarning kontrakt pullari to'liq byudjetdan qoplab beriladi (23 ming nafar qizlarga 200 mlrd so'm);

– har yili 50 nafar qizlar nufuzli xorijiy oliygo'hlariga bakalavr va 10 nafari magistraturaga yuboriladi;

– har bir viloyatda ehtiyojmand oila vakillari, ota yoki onasini yo'qotgan 150 nafar qizlarning (jami 2,1 ming nafar) ta'lim kontrakti mahalliy byudjetdan to'lab beriladi;

– yosh farzandi bor talaba-qizlarga masofaviy o'qishga sharoit yaratiladi;

– doktorantura yo'nalishida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratiladi.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Xotin-qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash dasturi doirasida poytaxtda asosan xotin-qizlarni o'qitish uchun davlat-xususiy sherikchilik asosida to'qimachilik sohasida alohida universitet tashkil etiladi. joylarda uning texnikumlari ham ochiladi [8].

Har bir universitet bitiruvchisining kasbiy o'sishi tobora uning o'z ishida yangi ma'lumotlarni o'z vaqtida olish, etarli darajada idrok etish va samarali ishlatish, o'z faoliyatini tashxislash, rivojlanayotgan axborot holatidan xabardor bo'lish qobiliyatiga bog'liq. Axborot madaniyatini belgilaydigan shaxsning majburiy ko'nikmalari va qobiliyatlari to'plami quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

– shaxsning gumanistik yo'naltirilgan axborot qiymati va semantik sohasi (motivlar, ehtiyojlar, maqsadlar, intilishlar, qiziqishlar, dunyoqarash);

– axborot xulq-atvori va ijtimoiy-axborot faoliyatidagi ijodkorlik; u o'z nazariyalarini yaratishdan, axborot qonunlarini kashf etishdan, nostandart echimlarni izlashdan, mustaqillikning namoyon bo'lishidan, turli xil axborot vaziyatlarida o'zi uchun yangi muammoni ko'rish qobiliyatidan tortib ko'p jihatlarga ega [7].

Talaba-qizlar ishiga fanlarning mazmunini axborot texnologiyalari bilan o'zaro ta'sirini ixtiyoriy harakat sifatida kiritish axborot texnologiyalarini qo'llash sohasidagi o'quv

motivatsiyasini shakllantirishga samarali ta'sir qilmaydi. Bunday holda, axborot texnologiyalari faqat ular bilan ijobiy munosabatda bo'lgan, o'quv faoliyati tizimidan tashqarida shakllangan talabalarning motivatsiyasiga ta'sir qiladi.

So'nggi paytlarda talabalarning axborot kompetentsiyasini rivojlantirish muammosi pedagogika fanida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunga ikkita sabab sabab bo'ladi. Birinchi sabab zamonaviy jamiyatning axborotni analitik qayta ishlash asoslariga ega bo'lgan, axborot oqimlarida qanday harakat qilishni biladigan, uzluksiz o'z-o'zini o'rganishga qodir bo'lgan mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojining ortishi bilan bog'liq. Ikkinchi sabab-bu ta'rifning pedagogik nazariya va amaliyotda etarli darajada rivojlanmaganligi. Mavjud vaziyat universitetda o'qish jarayonida bo'lajak mutaxassisning axborot kompetentsiyasini shakllantirishning dolzarbligi va talaba-qizlarning o'z o'quv faoliyatini ratsionalizatsiya qilishga tayyor emasligi o'rtasida ziddiyat paydo bo'lishiga olib keldi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, talabalar axborot va kognitiv vazifalar turlarida sust harakat qilishlari, ularni hal qilish algoritmlarida qiyinchiliklarga duch kelishlari, axborotni qayta ishlash va tuzish ko'nikmalariga ega bo'lmasliklari, shuning uchun o'qituvchining asosiy vazifasi nafaqat intizomiy bilimlarni uzatish jarayoni, balki mustaqil ijodiy ishlarni tashkil etish uchun maxsus kurs va tizimni ishlab chiqishdir., birinchi navbatda, yosh bolalarda kurslar. Shu bilan birga, talaba-qizlar IT sohasida nafaqat bilim olishlari, balki ularni olish usullarini ham o'zlashtirishlari muhimdir.

Xulosa va takliflar. Axborot savodxonligi kelajakdagi mutaxassisning kerakli ma'lumot turini aniqlash, uni izlash, tanlash va tahlil qilish, kasbiy faoliyatda samarali foydalanish qobiliyatini anglatadi. Shuni ta'kidlash mumkinki, axborot savodxonligi tushunchasi, birinchi navbatda, talabalarning axborot bilan ishlashining texnologik tomonini qamrab oladi, shu bilan birga ish texnologiyasini tanlash mavjud texnik vositalar bilan belgilanadi. Bu holda foydalanuvchi savodxonligi-bu o'z sohasidagi axborot tizimlari va amaliy dasturlar paketlaridan (matn protsessorlari, elektron jadvallar, kompyuter yordamida loyihalash ma'lumotlar bazalari, Internet va boshqalar) foydalanish bo'yicha barqaror ko'nikmalarni egallash, nashr va taqdimotni malakali tayyorlash qobiliyatidir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, IT sohasiga qiziqish talaba qizlar orasida ham katta qizish va o'rganishga sabab bo'lmoqda. Universitetlarda talaba qizlar uchun yaratilayotgan sharoitlar, ayniqsa, aynan IT bo'yicha takomillashgan, ixtisoslashgan oliy ta'lim yurtlari talabalari orasida 50–60 foizini qizlar tashkil qilayotgani aniqlandi. Mamlakatimizda ushbu sohada qabul qilinayotgan qarorlar, yaratilayotgan keng va puxta imkoniyatlar talaba qizlar kelajagiga o'z ijobiy tas'irini ko'rsatishi shubhasiz.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6018-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" Farmoni.

3. Образцов, П.И. Дидактический комплекс информатционного обеспечения учебной дисциплины в системе дистанционного обучения [Текст] / П.И. Образцов // Открытое образование. – 2001.- №5. – С. 39-44.

4. Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida president farmoni.
5. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Xotin-qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash milliy" dasturi.
6. G'oziyev E.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent. 2007.
7. Анохин С.М. Педагогические условия подготовки студентов к использованию компьютерных технологий: автореф. дис.... канд. пед. наук. М, 2000.
8. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida.
9. "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.

Abdullo ABDUXALILOV,

O'zbekiston Milliy universiteti, Ijtimoiy ish kafedrası dotsenti,
sots.f.f.d. (PhD),

E-mail: abduxalilovabdullo81@gmail.com,

tel: 90 1757187

О'ЗБЕКISTONDA NOGIRONLIGI BOR SHAXSLARNI TURMUSH SIFATINI OSHIRISHGA QARATILGAN IJTIMOIY SIYOSATINING INSTITUTSIONAL ASOSLARINING TAHLILI

Аннотация. So'nggi yillarda O'zbekistonda nogironligi bor shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni turmush sifatini oshirish, umuman olganda inkyuziv jamiyat yaratishga qaratilgan keng ko'lamli institutsional islohotlar olib borilmoqda. Bunga so'nggi yillarda 25 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilinganligi yaqqol misol bo'la oladi. O'z navbatida, bugungi kunda O'zbekistonning milliy qonunchiligini Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasiga implimintatsiya qilish jarayonlarini ko'rish mumkin. Ushbu jarayonning samarali olib borilishi bevosita ilmiy tadqiqotlarga bog'liqdir.

Shundan kelib chiqib ushbu maqolada O'zbekistonda nogironligi bor shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan institutsional islohotlarning evolyutsiyasi qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati tahlil qilingan va qonunchilik bazasini takomillashtirish borasida konstruktiv taklif va tavsiyalar berilgan.

Калит so'zlar: nogironlik, nogironligi bo'lgan shaxs, davlat, ijtimoiy siyosat, institutsionalizm, universal dizayn, huquq, qonun, hukumat.

АНАЛИЗ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ ОСНОВ СОЦИАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ НАПРАВЛЕННОЙ НА ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ЖИЗНИ ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В последние годы в Республике Узбекистан проводятся широкомасштабные институциональные реформы, направленные на защиту прав и интересов лиц с инвалидностью, повышение качества их жизни, а также формирование инклюзивного общества. Свидетельством сказанного является то, что в Узбекистане в последние годы было принято более 25 нормативно правовых документов в сфере инвалидности. В свою очередь, в Узбекистане наблюдаются процессы имплементации национального законодательства, Конвенции ООН "о правах инвалидов". В этой связи большой роль играют научные исследования в данной сфере.

Исходя из этого, в данной статье была проанализирована эволюция институциональных реформ, суть и содержание принятых нормативно-правовых актов, а также даны конструктивные предложения, направленные на совершенствование институциональных реформ в сфере защиты прав и интересов лиц с инвалидностью.

Ключевые слова: инвалидность, лица с инвалидностью, государство, социальная политика, институционализм, универсальный дизайн, право, закон, правительство.

ANALYSIS OF THE INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF SOCIAL POLICY AIMED AT IMPROVING THE QUALITY OF LIFE OF PERSONS WITH DISABILITIES IN UZBEKISTAN

Abstract. In recent years, large-scale institutional reforms have been carried out in the Republic of Uzbekistan aimed at protecting the rights and interests of persons with disabilities, improving their quality of life, as well as the formation of an inclusive society. Evidence of this is that in recent years Uzbekistan has adopted more than 25 normative legal documents in the field of disability. In turn, Uzbekistan is witnessing the processes of implementation of national legislation, the UN Convention on the Rights of Persons with Disabilities. In this regard, scientific research in this field plays an important role.

Based on this, this article analyzes the evolution of institutional reforms, the essence and content of the adopted normative legal acts, as well as constructive proposals aimed at improving institutional reforms in the field of protecting the rights and interests of persons with disabilities.

Keywords: disability, persons with disabilities, the state, social policy, institutionalism, universal design, law, law, government.

Kirish. O'zbekiston mustaqilligining ilk yillaridanoq aholini ijtimoiy himoya qilish, turli xil qatlamlarni manfaatlarini uyg'unlashtirishga katta e'tibor berilganligini ko'rish mumkin. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, mamlakatimizda (Huquqiy demokratiya qaror topar ekan, unda Respublika aholisining barcha qatlamlari manfaatlari barcha ijtimoiy guruhlarning milliy va madaniy huquqlari muhofaza etiladi) [1].

Darhaqiqat, Mustaqillik yillarining ilk yillaridanoq aholining ijtimoiy himoyasi O'zbekistonning rivojlanishini ustuvor yo'nalishi sifatida ko'rila boshladi. Bunga O'zbekiston Mustaqillikka erishgadan so'ng birinchi qabul qilingan qonunlardan biri "O'zbekiston Respublikasida Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi qonuni yaqqol misol bo'la oladi.

Mavzuga doir adabiyotlar sharxi. So'nggi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy fanlar vakillari tomonidan O'zbekistonda nogironligi bor shaxslarni huquq va manfaatlarini himoya qilishga bag'ishlangan tadqiqotlarni ko'payganligini guvohi bo'lamiz. Ularga M.X.Ganieva[2], N.M.Latipova[3], L.R.Mo'minova[4], A.A.Abduxalilov[5], V.S.Alekseeva, Z.F.Uzakova[6] kabi olimlar tadqiqotlarini misol qilib keltirish mumkin. Aytish joizki, mazkur tadqiqotlarda asosiy e'tibor nogironligi bor bolalarni ijtimoiy hayotga

moslashtirishga qaratilgan bo'lib, turli xil sotsiologik tadqiqotlar o'tkazilgan. Mazkur maqolada O'zbekistonda nogironligi bor shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan institutsional islohotlar tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Nogironligi bor shaxslarga doir davlatning ijtimoiy siyosatini tubdan o'zgartirishga turtki bergan me'yoriy-huquqiy hujjatlardan biri 5006-sonli 2017-yil 1-avgust kuni qabul qilingan, "Nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, farmoyishi hisoblanadi[7]. Mazkur farmoyishda Nogironlarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish borasida prezident farmoni loyihasini ishlab chiqish komissiyasi tuzilishi qayd etilib, ushbu komissiya a'zolariga Nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatni shakllantirish borasida muhim vazifalar berildi. Komissiya tarkibiga nafaqat davlat hokimiyati organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va xalqaro tashkilotlar vakillari ham kirdi va o'z takliflarini berishdi.

Shuni aytib o'tish joizki, mazkur farmoyish 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasining falsafasi va mafkurasi negizida ishlab chiqildi[8].

Yuqorida keltirilgan Prezident farmoyishi asosida 2017-yil 1-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5270-sonli "Nogironligi bor shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", prezident farmoni qabul qilindi[10]. Shuni aytib o'tish joizki, mazkur farmon O'zbekiston Respublikasida Nogironlik sohasida yuritilayotgan ijtimoiy siyosatning institutsional asoslarini o'zgarishiga va uning modernezatsiyalashuviga sabab bo'ldi.

Shuni ham aytib o'tish joizki, ushbu farmonda Nogiron so'zi iste'moldan chiqarilib, "Nogironligi bor shaxs" iborasi bilan o'zgartirildi. Fikrimizcha, bu muhim qaror bo'ldi, chunki endilikda e'tibor muayyan shaxsning nogironligiga emas, birinchi navbatda, uning shaxsiga qaratildi. Yuqorida qayd etilganidek, ushbu farmonning qabul qilinishi, mamlakatimizda Nogironligi bo'lgan shaxslarga qaratilgan ijtimoiy siyosatning institutsional asoslarini yangi bosqichga olib chiqdi, aynan ushbu farmonga asoslanib Nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini oshirishga qaratilgan muhim me'yoriy huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Nogironligi bor shaxslarni huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qabul qilingan muhim qonunlardan biri, "Nogironligi bor shaxslar huquqlari to'g'risida"gi qonun hisoblanadi. Mazkur qonunning birinchi moddasida Nogironligi bor shaxslarni huquqlarini ta'minlash sohasidagi mynosabatlarni tartibga solish maqsad sifatida e'tirof etildi. Fikrimizcha, ushbu qonunning O'zbekiston qonunchiligidagi yangiligi shundaki, unda ilk marotaba nogironlik belgisiga ko'ra kamsitilishga yo'l qo'yilmaslik prinsipini kiritilganligidadir. Ushbu qonunning 6-moddasida Nogironlik belgisiga ko'ra kamsitishga yo'l qo'yilmaslik prinsipiga quyidagicha ta'rif beriladi: "Nogironligi bor shaxslarga nisbatan har qanday ajratib qo'yish, istisno etish cheklash, chetlash yoko afzal ko'rish shuningdek, nogironligi bor shaxslarni obyektlar va xizmatlardan foydalanish shart-sharoitlarini yaratishni rad etish hisoblanadi.

Nogironligi bor shaxslar uchun imkoniyati tengligini ta'minlashga, hamda ularni jamiyat va davlat hayotiga jalb etishga qaratilgan maxsus choralar, boshqa fuqarolar uchun kamsituvchi choralar hisoblanmaydi"[9]. O'z navbatida ta'kidlash joizki, nogironligi bor shaxslarni kamsitilishga yo'l qo'yilmaslik prinsipi maskur qonunning asosiy va muhim elementi hisoblanadi. Ushbu prinsipni amalga oshirish jarayonida aholining ongini o'zgartirish, aholi orasida nogironlikning pozitiv obrazini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunda ko'rsatilgan nogironligi bor shaxslarga nisbatan O'zbekiston siyosatining

asosiy yo'nalishlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi "Nogironligi bor shaxslar huquqlari to'g'risida"gi qonunning 11-moddasida keltirilgan Nogironligi bor shaxslar bo'yicha siyosatning asosiy yo'nalishlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasiga to'liq mos kelsada, unda ushbu xalqaro hujjatda keltirilgan ba'zi muhim tushunchalar o'z ifodasini topmaganligini ko'rish mumkin. Ularga biz quyidagilarni kiritishimiz mumkin. Bunga universal dizayn assistiv texnologiyalar, oqilona moslashuv kabi tushunchalar misol bo'la oladi.

Shuni ham aytib o'tish joizki, mazkur qonunda nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatni samaradorligini ta'minlash maqsadida tuzilgan nogironlik masalalari bo'yicha idoralararo kengash haqida gap boradi.

Aytish joizki, ushbu qonunning qabul qilinishi va amaliyotga tadbiiq etilishi jarayonlari, nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatni izchillik bilan davom etishiga sabab bo'ldi. Nogironligi bor shaxslarga qaratilgan ijtimoiy siyosatning asosiy jihatlari davlatimiz rahbari tomonidan xalqaro hamjamiyatga ham yetkazildi. O'zbekiston rahbari o'zining 2021-yil 22-fevral kuni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha 46-sessiya yuqori darajadagi segmenti ishidagi nutqida O'zbekistonning ijtimoiy siyosatida "nogironlik masalalari kelgusida ham davlat va jamiyat e'tiborida bo'lishini" ta'kidladi. Ushbu nutqning Nogironligi bor shaxslar masalasiga doir qismida O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagilarni bayon qildi. (Alohida ehtiyojga ega bo'lgan shaxslarni huquqlarini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratiladi. Yaqinda nogironligi bor shaxslar huquqlari to'g'risidagi qonun kuchga kirdi.

O'zbekiston parlamenti nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasini ratifikatsiya qilishi kutilmoqda). (Biz imkoniyatlari cheklangan shaxslarni o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish masalalari bo'yicha mintaqaviy kengashni tuzishni taklif etamiz)[10]. Bundan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy siyosiy islohotlarning negizida ehtiyojmand aholining huquq va manfaatlarini himoya qilish yotadi. Bunga O'zbekiston 2021-yil 7-iyunda Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasini ratifikatsiya qilganligi misol bo'la oladi. Aynan shu kuni O'zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilinishi to'g'risidagi qonun imzolandi[11]. Mazkur qonunda qayd etilishicha, O'zbekiston Respublikasi Nogironligi bor shaxslarni barcha sohalarda boshqalar bilan teng ravishda huquq layoqatiga ega ekanligini tan oladi[12].

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilinishi uzoq vaqt mobaynida kutilgan voqea sifatida nogironlik sohasi bo'yicha ekspertlar tomonidan talqin etildi. Ushbu Konvensiyani O'zbekiston Respublikasi 2009-yilda imzolagan edi. Uni ratifikatsiya qilish jarayoni esa 11 yilga cho'zildi. Aynan bu boradagi O'zbekiston Prezidentining kuchli irodasi, shu bilan birga mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan fuqorolik jamiyatining faol pozitsiyasi ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilinishiga imkon berdi. Shuni ham aytib o'tish joizki, mazkur Konvensiyani davlatimiz tomonidan ratifikatsiya qilinishi, nogironligi bor shaxslar huquqlarini ta'minlash borasidagi siyosiy jarayonlarda O'zbekistonni global aktorlaridan biriga aylantirdi. O'z navbatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasini ratifikatsiya qilinishi, mamlakatimizdagi qonunchilikni ushbu Konvensiyaga moslashtirishni taqazo etadi. Ana shundan kelib chiqib, O'zbekistonda keng jamoatchilikning muhokamalari asosida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasini implimintatsiya qilish rejasi qabul qilindi. Ushbu hujjat O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va qonunchilik palatasi shuningdek O'zbekiston Respublikasi Senatining qo'shma

qarori sifatida qabul qilindi. Mazkur hujjat Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasini bajarish borasidagi milliy harakatlar rejasi sifatida qabul qilinib, u 2023-2025-yillarga mo'ljallandi[13]. Nogironlik sohasiga doir qonunchilikni o'zgartirish masalalari, nogironligi bor shaxslar uchun to'siqsiz muhitni yaratish, nogironligi bor shaxslarni rehabilitatsiya va abilitatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari yoritilib davlat va nodavlat tashkilotlari faoliyatini Konvensiyaga muvofiq tarzda olib borish borasida bir qator tavsiyalar berilgan.

Tahlil va natijalar. Nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatning strategik ahamiyatini biz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining so'nggi ikki yil mobaynida Xalqaro Nogironlar kuniga bag'ishlangan, O'zbekiston xalqiga yo'llangan murojatnomalarida ko'rishimiz mumkin. Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston tarixida Nogironlik masalalari bo'yicha prezident tomonidan murojaatnoma hech qachon yo'llanilmagan edi. 2022-yil 3-dekabrda yo'llangan, murojatnomada O'zbekiston davlat rahbari o'z murojaatnomasida nogironlikni belgilashda allaqachon eskirgan tibbiy modeldan umum e'tirof etilgan, ijtimoiy modelga o'tish bosqichma bosqich vazifasi qo'yilganligini alohida ta'kidladi. Bundan buyon bino va inshootlarni qurish, ularni rekonstruksiya qilish, jamoat transporti axborot va aloqa vositalarini ishlab chiqishda nogironligi bor shaxslarni ulardan hech qanday moneliksiz foydalanishiga birlamchi ahamiyat qaratilishiga e'tibor qaratiladi deb ta'kidladi.

Bugungi kunda, deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekistonda Nogironligi bor shaxslarga jamiyat va davlat tomonidan ko'mak va yordam berish, ularni ijtimoiy siyosiy hayotga faol jalb etishga qaratilgan keng ko'lamli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi vaqtda ushbu toifaga mansub fuqorolarni qo'llab quvvatlashga moslashgan bir qator tuzilmalar, xususan O'zbekiston Nogironlar jamiyati, O'zbekiston Nogironlar Assotsiatsiyasi, O'zbekiston Ko'zi ojizlar jamiyati samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Eng muhimi taqdir taqazosini bilan nogiron bo'lib qolgan birorta yurtdoshimiz, davlat idoralarning mehr e'tiboridan chetda qolmasdan o'zlarining mehnat va qobiliyati bilan nafaqat hayotda o'z o'rnini egallab kelmoqda, balki o'zining matonati, sabr bardoshi va shukrona fazilatlarini bilan ko'pchilikka ibrat bo'lmoqda[14]. Darhaqiqat shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda keng ko'lamli islohotlar jarayonlarida Nogironlik sohasida faoliyat olib boruvchi jamoat tashkilotlari faol ishtirok etib kelmoqdalar. Qonunchilikni takomillashtirish borasidagi berilayotgan takliflari O'zbekiston Respublikasining hukumati, shuningdek, jamoatchilik tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi prezidenti ushbu murojaatnomasida ta'kidlashicha jamiyatimizning ajralmas bir qismi bo'lgan nogironligi bor fuqorolarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash maqsadida keyingi yillarda mamlakatimizda bir qator qonunlar hamda 25 dan ortiq boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, mustahkam qonuniy baza yaratildi. Bu esa mazkur toifa vakillariga tibbiy va ijtimoiy xizmat ko'rsatish, ularni bilim olishi, mehnat qilishi, malakali tibbiy xizmatlardan foydalanishi, o'z iste'dod va salohiyatini ro'yobga chiqarish, muhtasar qilib aytganda o'zlarining jamiyatimizning to'laqonli a'zosi deb his etishlari uchun qulay sharoitlar yaratilishini imkonini bermoqda [15]. Ushbu murojatnomada O'zbekiston Respublikasi prezidenti nogironligi bor shaxslarga qaratilgan ijtimoiy siyosatni istiqbolli yo'nalishlariga ham to'xtalib o'tdi. Bu borada O'zbekiston rahbari tomonidan bir qator jihatlarga e'tibor qaratildi. Ulardan biz quyidagilarni alohida ta'kidlashimiz mumkin. Nogironlikni belgilashda eskirib qolgan tibbiy modeldan umume'tirof etilgan, ijtimoiy modelga o'tish, bundan buyon bino va inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish, jamoat transporti axborot va aloqa vositalarini ishlab chiqishda, nogironligi bor shaxslar ulardan hech qanday moneliksiz foydalanishiga

birlamchi ahamiyat qaratiladi. Nogironligi bor shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash markazlaridagi qamrov hajmini ikki baravarga oshirish, ularni zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash borasida ishlar amalga oshiriladi[16].

Yuqorida keltirilgan muhim me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan birga yangi O'zbekistonda Nogironligi bor shaxslarni huquq va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan "Nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo'llab quvvatlash va bandligini ta'minlash, ehtiyojmand aholiga ta'lim berish sportni rivojlantirish borasida muhim O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan qarorlar qabul qilindi. Yana bir bu boradagi muhim qarorlardan biri O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya agentligini tashkil qilish qarori hisoblanib, 2023-yilning 1-iyunida "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi prezidentining farmonini e'tirof etish lozim.

Yangi O'zbekistonda Nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosat strategik ahamiyatga ega ekanligini quyidagi holatlar bilan asoslash mumkin.

1. So'ngi yillarda O'zbekistonda Nogironligi bor shaxslarga doir 25 dan ortiq me'yoriy huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

2. Mamlakatimizda nogironlikni eskirgan tibbiy modelidan umum e'tirof etilgan ijtimoiy modelga o'tish jarayonlari amalga oshirilmoqda.

3. So'ngi ikki yil mobaynida, O'zbekiston Respublikasi prezidenti xalqaro nogironlar kuniga bag'ishlangan o'z murojatnomalarini xalqqa yubormoqdalar.

4. Yangi O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasiga nogironlik borasidaga alohida 57-moddani kiritilishi shuningdek, ushbu konstitutsiyasida inklyuziv ta'limni joriy qilishning huquqiy maqomini belgilanishi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Fikrimizcha, nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatni institutsional jihatlarini yanada takomillashtirish uchun jamiyat va davlat tomonidan bir qator muhim vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

1. Nogironligi bor shaxslarni miqdori ularning turmush sharoiti borasida xolisona statistik ma'lumotlarni to'plash, hozirgi kunda Nogironlik sohasidagi berilayotgan statistik ma'lumotlar nogironligi bor shaxslarni turmush sifati va sharoiti aks ettirmagan holda bu borada turli xil tashkilotlar tomonidan berilayotgan ma'lumotlarda muayyan ziddiyatlar kuzatilmoqda. Agarda O'zbekiston Respublikasi davlat statistik qo'matasini 2022-yilga berilgan ma'lumotiga o'z e'tiborimizni qaratsak unda O'zbekistonda bugungi kunda 770 ming Nogironligi bor shaxslarni istiqomad qilishi qayd etilgan[17]. E'lon qilingan, nogironlikni ijtimoiy modeliga o'tish Konsepsiya loyihasida esa bugungi kunda O'zbekistonda istiqomad qilayotgan nogironligi bor shaxslarning soni 894 ming kishini tashkil qiladi deb keltirilgan[18]. 2018-yili Birlashgan Millatlar Tashkilotining agentliklari va Vashington guruhi mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan qisqa savollar metodikasi asosida O'zbekistonda Nogironligi bor shaxslarning holati o'rganildi. Shuni aytib o'tish joizki Vashington guruhi metodikasi muayyan insonning hayotida vujudga keladigan qiyinchiliklar asosida uning nogironligi aniqlanadi, ya'ni agar muayyan bir shaxs o'z hayotida, qandaydir funksiyalarni bajarish jarayonida biror bir qiyinchilikga duch kelsa unda u shaxsda nogironlik mavjud deb hisoblanadi. Vashington guruhining tadqiqodlariga ko'ra 2018-yili O'zbekistonda 2018-yilda "3 yosh va undan katta" aholisining 13,5 foizida muayyan nogironlikning alomatlari mavjud, ulardan 3,5 foizida og'ir nogironlikning alomatlari kuzatiladi. Tadqiqodchilarning fikriga ko'ra, nogironlik masalalari aholining katta qismiga o'z ta'sirini o'tkazadi. 45,1 xonadonda bitta bo'lsa ham nogironligi bor

shaxs istiqomad qiladi. 14 foizida esa og'ir holatda bo'lgan nogironligi bo'lgan shaxslar istiqomad qilinishi ainqlandi. Shuningdek, O'zbekistonda boshqa jahon davlatlari kabi nogironligi bor shaxslarning sonini ortib borishini tadqiqotlar ko'rsatmoqda[19]. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rish mumkinki, bugungi kunda O'zbekistonda Nogironlik masalalari bo'yicha statistik ma'lumotlarni to'plash metodikasi to'liq ishlab chiqilmagan, bu esa o'z navbatida mamlakatimizda Xalqaro hamjamiyat tomonidan qabul qilingan statistika metodikasini hisobga olgan holda O'zbekiston statistik me'zonlarini qayta ishlab chiqishni taqazo qiladi.

2. O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligini Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasiga muvofiqlashtirish.

3. Nogironligi bor shaxslar uchun to'siqsiz muhitni ta'minlash davlat dasturini ishlab chiqish.

4. Nogironligi bor shaxslarni mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan chora tadbirlarni joriy qilish.

5. Nogironligi bor shaxslar uchun ta'lim olish, mehnat qilish borasida teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan "O'zbekiston Respublikasining inklyuziv rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va qabul qilish.

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirilgan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi mexanizmlarni joriy qilish katta ahamiyatga ega:

1. O'zbekistonda to'siqsiz muhitni ta'minlash davlat dasturini qabul qilinishi, nogironligi bor shaxslarni huquqlarini amalga oshirishga katta yordam beradi.

2. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasiga muvofiqlashtirish maqsadida, "Universal dezayn, oqilona muhit, mobillik, assektiv texnologiyalar" kabi tushunchalarni kiritish maqsadga muvofiqdir.

3. O'zbekiston Respublikasini "Nogironligi bor shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonuniga, "nogironligi bor xotin-qizlar to'g'risida"gi moddani kiritilishi, ushbu qonunning Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasiga nisbatan muvofiqligini ta'minlanishiga olib keladi. Shuningdek nogironligi bor xotin-qizlarni huquq va manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

4. Eshitish qobiliyatini yo'qotgan nogironligi bor shaxslar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash maqsadida "O'zbekiston Respublikasi davlat tili to'g'risida"gi qonuniga imo ishora tili haqidagi moddani kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

5. Nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosiy qarorlarni qabul qilinishining samaradorligini oshirish uchun nogironlik muammolarini tadqiq etuvchi ilmiy markazlarni tashkil qilinishi yaxshi natija beradi.

6. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotida nogironligi bor shaxslarni ishtirokini kengaytirish maqsadida "Davlat boshqaruvini inklyuzivligini ta'minlash" Konsepsiyasini ishlab chiqilishi nogironligi bor shaxslar uchun o'z salohiyatini o'stirish va rivojlantirish imkonini oshiradi.

7. Davlat xizmatchilarini nogironligi bor shaxslar bilan ishlash, ularga xizmat ko'rsatish shu bilan birga o'z faoliyatida nogironligi bor shaxslarga tegishli bo'lgan qonunchilikni qo'llash ko'nikmalarini oshirish maqsadida, davlat va fuqorolar xizmatchilarini bu boradagi malakasini oshirishga qaratilgan ijtimoiy ta'lim o'quv markazini ochish maqsadga muvofiqdir.

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan mexanizmlarni joriy etilishi nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatning institutsional asoslarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuni aytib o'tish joizki, nogironlik sohasida olib borilayotgan

islohotlarga nisbatan nogironligi bor shaxslarning fikrini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero bugungi kunda Nogironlik sohasida olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning asosiy tamoyillaridan biri "Biz haqimizda bizsiz hech narsa" tamoyili hisoblanadi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O'zbekiston Milliy, Istiqlol, Iqtisodiyot, Siyosat, Mafkura. O'zbekiston nashryoti 1992-y. 11-bet.
2. Ганиева М.Х. Социокультурная адаптация детей с ограниченными возможностями как направление социальной защиты // Общественное мнение. Права человека. 2018г. №4. – Б.35-45.
3. Латипова Н.М. Социальная защита детей и семей в Узбекистане. Диссертация на соискание ученой степени доктора социологических наук (DSc). – Тошкент, 2020г.
4. Муминова Л.Р. Социальная защита детей в Узбекистане: наука и практика. // Сборник статей. – Тошкент: Specter Media Group, 2016г.
5. Абдухалилов А.А. Вопросы совершенствования социальной защиты лиц с инвалидностью в процессе государственного управления. // Материалы международной конференции "Социальная защита детей в Узбекистане: отечественный и зарубежный опыт". – Тошкент, 2018г.
6. Uzakova Z.F. Alohida ehtiyotli yoshlarning ijtimoiylashuvi, mehnatga integratsiyalashuvining o'ziga xos xususiyatlari. Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2019y.
7. Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5006-sonli farmoyishi 01.08.2017. <https://lex.uz/docs/-34-36.19.2.18.02.2023>.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Nogironligi bor shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 52-70 sonli farmoni. 01.12.2017. <https://lex.uz/docs/-34-36-19-2.18.02.2023>.
9. Nogironligi bor shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 52-70 sonli farmoni 14.01.2017. <https://lex.uz/docs/-34-36-19-2.18.02.2023>.
10. O'zbekiston Respublikasini Nogironligi bor shaxslar huquqlari to'g'risidagi qonuni 16. 10. 2020. 217-218.
11. BMT Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni. Xalq so'zi 8. 06.2021. 119.n.
12. BMT Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni. Xalq so'zi 8. 06.2021. 119.n.
13. [https://parlament.gov.uz-nyus-inson-huquqlari-O'zbekiston Inson huquqlari 2022./ sarhisob-istiqbol-rejalari.9.04.2023. murojat sanasi.](https://parlament.gov.uz-nyus-inson-huquqlari-O'zbekiston-Inson-huquqlari-2022/sarhisob-istiqbol-rejalari.9.04.2023.murojat-sanasi)
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Xalqaro nogironlar kuniga bag'ishlangan, O'zbekiston xalqiga murojaati, Xalq so'zi 3.02.2002 260.n
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Xalqaro nogironlar kuniga bag'ishlangan, O'zbekiston xalqiga murojaati, Xalq so'zi 3.02.2002 260.n
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Xalqaro nogironlar kuniga bag'ishlangan, O'zbekiston xalqiga murojaati, Xalq so'zi 3.02.2002 260.n
17. <https://lex.uz/docs/6480342>
18. <https://projekt.gov.uz.7.03.2023>.
19. <https://www.unicef.org/O'zbekiston> – 28.02.2023.

Shaxnoza RAXIMOVA,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti dotsenti v.b, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: shaxnoz10@mail.ru

YOSHLAR ORTASIDA AXBOROT ISTE'MOLI KOMPETENSIYASINI OSHIRISH MUAMMOLARI

Annotatsiya. Ushbu maqola yoshlar o'rtasida axborot madaniyati kompetensiyasini shakllantirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, maqolada axborot madaniyati tushunchalari, olimlarning ilmiy qarashlari, axborot madaniyatining predmeti sifatida shaxs tushunchasiga ijtimoiy va madaniy yondashuvlar tahlili keltirilgan. Bundan tashqari axborot madaniyati asoslarini rivojlantirish jarayoniga ta'sir qiluvchi asosiy tamoyillar yoritilgan. Maqola so'ngida axborot madaniyatini oshirishning sotsiologik echimlari bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: axborot madaniyati, kompetensiya, yoshlar, axborot kutubxona xizmati, mutolaa madaniyati, ta'lim, modernizatsiya, shaxs, hamkotlik, ko'nikma.

ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПОТРЕБЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. Данная статья посвящена вопросам формирования информационной культуры молодежи и компетентности потребления информации. В статье представлены понятия информационной культуры, научные взгляды ученых, анализ социокультурных подходов к понятию личности как субъекта информационной культуры. Кроме того, выделены основные принципы, влияющие на процесс развития основ информационной культуры. В конце статьи даны предложения и рекомендации по информационной культуре.

Ключевые слова: информационная культура, компетентность, молодежь, информационно-библиотечное обслуживание, культура чтения, образование, модернизация, личность, сотрудничество, навыки.

ISSUES OF INCREASING THE COMPETENCE OF INFORMATION CONSUMPTION AMONG YOUNG PEOPLE

Abstract. This article is devoted to the issues of developing information cultural competence among young people; the article presents the concepts of information culture, the scientific views of scientists, and an analysis of sociocultural approaches to the concept of personality as a subject of information culture.

In addition, the basic principles influencing the process of development of the foundations of information culture are highlighted. At the end of the article, suggestions and recommendations on information culture are given.

Keywords: information culture, competence, youth, information library service, reading culture, education, modernization, personality, cooperation, skills

Kirish. Hozirgi zamonda axborot texnika taraqqiyoti – shaxs, jamiyat, davlat hayoti va faoliyatiga borgan sari ta'siri kuchayib borishi bilan belgilanadi. Axborot sohasi, ya'ni axborotlar majmuasi, ma'lumot va axborotni yig'uvchi, tarqatuvchi vositalardan iborat tizim, shak-shubhasiz ijtimoiy munosabatlarni boshqaruvchi va yo'naltiruvchi muhim tarmoq sanaladi. Ma'lumotlar bilan ishlash usullari o'zgarishi va yangi axborot texnologiyalarni qo'llash sohaslarining kengayishi sharoitida axborot-psixologik tahdidlarning shaxs ongiga ta'siri ortib borishidan iborat.

Axborot olish va uni yetkazish, ta'sirchan jamoatchilik fikrini shakllantirish borasida ham raqobat keskin tus olgan bo'lib, jamiyatning axborotlashuvi jarayonida madaniyatlar almashinuvini ham tezlashtirib yubordi. Axborot madaniyati rivojlantirish va zamonaviy sharoitda uni xar bir shaxsda shakllantirib borish dolzarb masalalardan sanaladi.

So'nggi vaqtlarda axborot madaniyati tushunchasini shaxsning axborot va madaniyat komponentlarining integratsiyalashuvi vaziyatidek yaxlit qarash tendensiyasi kuchaymoqda. Axborot madaniyati umuminsoniy madaniyatning bir qirrasini sifatida qaralmoqda. Axborot madaniyati shaxsning o'quv, ilmiy-bilish, mustaqil ta'lim olish, dam olish va boshqa faoliyat jarayonida paydo bo'ladigan axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan, shaxsiy axborot faoliyatini samarali tashkil qilishni ta'minlaydigan bilimlar, malaka va ko'nikmalarning tizimlashtirilgan majmuasidir. Axborot madaniyati bugungi kunda insondan yangi kompetentlikni, jumladan, axborot-kommunikatsiya muloqotini tashkil etish, axborot muhiti bilan o'zaro hamkorlik qilish, adaptiv ijtimoiy texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini egallashni talab qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ilmiy tadqiqotlarda "axborot madaniyati" tushunchasining kelib chiqishi Gershunskiy B.S., Gendina N.I., Lopatina N.V., Starodubova G.A., Skvorsova L.V., Xangeldieva I.G., Karakozov S.D. va boshqalar asarlarida o'rganilgan[1]. Axborot madaniyatini rivojlantirish va ta'limni maxsus modernizatsiya qilishda, ko'pgina tadqiqotchilar madaniyatlararo muloqot samaradorligini va ta'limning ko'p madaniyatli xususiyatini ta'minlash uchun zarur shart-sharoit sifatida qarashadi. Orobinskiy A.M., Akulenko V.L., Zavyalova A.N., Zayseva O.B., Zaxarova O.A., Semyonov A.L., Tairova N.Yu., Kizik O.A., Kutkina O.P., A.S Medvedevalarning tadqiqot ishlari asosan axborot kompetentligini shakllantirishning psixologik-pedagogik jihatlariga bag'ishlangan [2].

Ushbu tadqiqotlarda tavsiflanishiga ko'ra, axborot madaniyatini shakllantirish – kompleks hal qilinishi lozim bo'lgan ko'pqirrali muammodir. Axborot madaniyati – axborotga bo'lgan munosabat, axborotga nisbatan dunyoqarashni shakllantirish metodologiyasini yaratishi, shaxsga axborot jamiyatining falsafasini tushuntirishi, axborot oqimi orasidan kerakli, zarur axborotlarni tanlab olish ko'nikmalarini shakllantirishi jihatidan muhim ahamiyatga egadir. Biroq shuni alohida ta'kidlash lozimki, shaxsning axborot olish malakalarini shakllantirish uzoq va tizimli yo'l tutishni talab etadi. Shuning uchun ham mazkur muammo faqatgina ma'lum bir davlat chegaralaridan chiqib, global xarakterga ega bo'lmoqda.

"Axborot olish" atamasi ilk bor XX asrning 70-yillarida paydo bo'lgan. Ushbu tushunchani rivojlantirish va ommaviylashtirish bo'yicha kutubxonachilar tashabbus ko'rsatdilar. Bu atama birinchi bor bibliograflar K.M.Voyxansk va B.A. Smirnovalarning "Kutubxonachilar va kitobxonlar axborot madaniyati xususida" va E.L.Shapironing "Axborot so'rovlarining noaniqliklarini kamaytirish yo'llari haqida" nomli maqolalarida fanga olib kirilgan. An'anaviy axborot madaniyati quyidagilardan tashkil topgan. 1. kutubxona-bibliografiya savodxonligi; 2. mutolaa madaniyati; 3. kompyuter savodxonligi.

Kutubxona-bibliografiya savodxonligi – kutubxona va axborot resurs markazining ma'lumot-bibliografiya fondi apparatini osonlik bilan yo'naltira olish ko'nikmasiga ega

bo'lgan malakali foydalanuvchini tayyorlash uchun zarur. Mutolaa madaniyati esa nashr etilgan ishlarni to'laqonli tushunish va qabul etishda foydalanuvchi uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar majmuasi hisoblanadi. Kompyuter savodxonligi – kompyuter bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lish materialni tezkor va samarali shakllantirish qobiliyatini, ma'lumot qidiruvi va ma'lumotni qayta ishlash bo'yicha salohiyatni rivojlantiradi va talab etadi.

Axborot madaniyati bu – axborot bilan maqsadni ko'zlagan holda ishlash ko'nikmasiga ega bo'lish, shuningdek, axborotni foydalanish uchun ola bilish, kompyuter axborot texnologiyasini, yangi texnik vosita va uslublarini tahlil qilish va uzatishni nazarda tutadi. Axborotni qidirish; axborotni saralash; axborotni tahlil qilish; axborotni qo'llash esa an'anaviy axborot madaniyatining asosiy belgilari hisoblanadi:

So'nggi yillarda jamiyat va har bir insonning yangi madaniyatini alohida belgilaydigan yagona axborot muhiti shakllanmoqda. Axborot ilmiy kategoriya hisoblanib, nafaqat borliqning umumiy shakllari yoki ularning aloqadorligi sababiy bog'liqligini qayd etadi, balki tabiat va jamiyatda ifodalanadigan voqea-hodisalarni bilishda quyidan yuqoriga rivojlanishning asosiy omillaridan hisoblanadi. Axborot madaniyatini egallash turli omillarga bog'liq bo'lib, u ko'pincha kasbiy madaniyat zamirida ifodalanishi mumkin. Chunki, tez sur'atlar raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, media vositalari bilan ishlash har bir sohaga kirib borayotganligini va kasbiy pog'onalarda o'sayotgan mutaxassis axborot madaniyatini kasbiy madaniyatning mahsuli sifatida ko'rishi mumkin. Jamiyatda insonning ishlab chiqarishdagi faoliyatining ahamiyati ortishi bilan axborot madaniyati umuminsoniy taraqqiyotga katta ta'sir ko'rsata oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Axborot madaniyati tadqiqotchilar tomonidan axborot jarayonlariga audiovizual, mantiqiy, konseptual-terminalogik, kommunikatsiya va tarmoq turlarining sintezi, axloqiy me'yorlar va qoidalar tizimiga asoslangan integral konsepsiya sifatida ishtirok etish qobiliyati sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv shaxslararo va madaniyatlararo munosabatlarning predmeti sifatida muayyan shaxsga qaratilgan bo'lib, ijtimoiy axborot yordamida shaxsning dunyoqarashini shakllantirish imkonini beradi. Bir qator zamonaviy olimlarning fikriga ko'ra, axborot madaniyatining predmeti sifatida shaxs tushunchasiga ijtimoiy yondashuv quyidagilarni o'z ichiga oladi:

bilimlarni olish, qayta ishlash va tizimlashtirishning zamonaviy vositalaridan foydalanish qobiliyati;

tabiat va jamiyatda axborot jarayonlarining mohiyati va rolini tushunish;

jamiyatdagi voqea va hodisalarni tahlil qilishda axborot yondashuvidan foydalanish ko'nikmalari;

turli axborot manbalari bilan ishlash qobiliyati;

tahlil va sintez qilingan axborotni qayta ishlash asoslari va boshqalar.

"Shaxsning axborot madaniyati" konsepsiyasini aniqlashda ijtimoiy-madaniy yondashuvning o'ziga xosligi quyidagilardan iborat:

ijtimoiy ahamiyatga ega axborotni o'zlashtirish jarayonida shaxsning ma'naviy dunyosini uyg'unlashtirishda;

dinamik o'zgaruvchan iqtisodiy, siyosiy, umumiy madaniy sharoitlarda ijtimoiy moslashish qobiliyati;

olingan ma'lumotlarni mustaqil ravishda talqin qilish;

tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda;

axborot jamiyatida ijtimoiy-madaniy faoliyat turlarini tanlashda, shaxsiy madaniyatni shakllantirishning bir qismi sifatida.

Shaxsning axborot madaniyatini shakllantirish va yuzaga kelish jarayoni axborot malakasi, madaniy qadriyatlarini, axborot tashabbuskorligi, hamda axborot texnologiyalari kabi asosiy toifalarining mazmun mohiyatini bilishni nazarda tutadi va boshqa quyidagi muhim vazifalar orqali ko'rib chiqiladi:

axborot ta'limida kuzatilishi mumkin bo'lgan kognitiv funktsiya;
umuminsoniy madaniy qadriyatlar va xulq-atvorni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim funktsiyasi;

muayyan ijtimoiy-madaniy vaziyatlarda sub'ektlarning o'zaro hamkorligini ta'minlaydigan axborot-kommunikatsiya funktsiyasi;

hulq-atvorning umumiy qabul qilingan namunalari o'zlashtirish orqali axloqiy me'yor va xatti-harakat qoidalarini shakllantirishga asoslangan tartibga solish funktsiyasi;

axborotni shaxsiy ehtiyojlarga moslashtirish qobiliyatining mexanizmini aks ettiruvchi tahliliy funktsiya;

aloqa jarayonlari orqali ijtimoiy-madaniy sohada ijodiy salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan madaniy funktsiya.

Axborot madaniyati asoslarini rivojlantirish jarayoniga ta'sir qiluvchi asosiy tamoyillar quyidagilardir:

ijtimoiy axborotni boshqarish jarayonini optimallashtirish bo'yicha izoh va qo'shimchalar;

konseptual modellar va axborot namunalari shakllantirishda axborotni iste'mol qilish va qayta ishlashning adekvatligi (mosligi);

ijtimoiy axborotning dolzarbligi;

axborotning asosiy tarkibiy qismlarini ajratish bilan axborotni tuzish, axborotni taqdim etishning mavjudligi;

muayyan axborotning o'z vaqtidaligi va uzluksizligi.

Axborot madaniyati axborot bilan maqsadli ishlash, axborotni rasmiy qo'lga kiritish, uni ilmiy uslublar yordamida qayta ishlash, o'z vaqtida uzatish, zamonaviy vositalar hamda usullarni qo'llay olish malakasi va ko'nikmasiga ega bo'lishdir. Zamonaviy jamiyatda axborot madaniyatining ahamiyati shundan iboratki, uning shakllanishi orqali shaxs tomonidan o'zini anglashning dolzarbligi uchun, shuningdek, madaniy salohiyatni, o'z-o'zini tarbiyalash va shaxslararo muloqotni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochiladi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi kunda jamiyatni axborotlashtirish darajasi davlatning rivojlanish darajasini baholashning asosiy mezonlaridan biri uning iqtisodiy va siyosiy salohiyatining eng muhim omilidir. Jamiyatni axborotlashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri shaxsning axborot madaniyatini shakllantirishdir. Bu borada chop etilgan bir qator hujjatlar guvohlik beradi. 2005 yilda Tunisda bo'lib o'tgan Xalqaro axborot sammiti, 2006 yilda Seulda IFLAning Butunjahon 72-kutubxonachilik va axborotlashtirish kongressida YuNESKOning ochiq forumi bo'lib o'tib, mazkur forumda boshqa bir qator muhim yo'nalishlar bilan birga axborot olish madaniyatini shakllantirish masalasi muhim yo'nalishlardan biri ekanligi tan olindi. Uni yanada rivojlantirish g'oyalari ilgari surildi. Butundunyo hamjamiyati tomonidan IFLA va YuNESKOning axborot madaniyatini shakllantirish borasidagi g'oyalari tan olinib, ma'qullandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev "Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlari"ga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida ta'lim, ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish yuzasidan qator vazifalarni belgilab berdi. Bular qatorida o'quvchi-

yoshlarning badiiy, ilmiy, tarixiy adabiyotlarni o'qishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish borasidagi quyidagi fikrlarini keltirish mumkin: "Hozirgi paytda hammamizning oldimizda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan masala, ya'ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo'lgan muhabbatini, ularning ma'naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi amalga oshirilmoqda"[3].

Prezidentimizning tomondan 2019 yilda qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni takomillashtirish to'g'risida"gi qarori bu boradagi ishlarni zamon talablari darajasiga ko'tardi. Qarorga ko'ra, 186 ta tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlari bosqichma-bosqich tashkil etildi. Ularda kitoblarning bosma nashrlaridan tashqari elektron variantlarini ham o'z ichiga oldi. Bu kitobxonlarga internet orqali masofadan axborot kutubxona xizmati ko'rsatish imkoniyatini berdi [4].

Shuningdek, 2019-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish konsepsiyasi, sohani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi hamda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi – axborot-resurs markazining tashkiliy tuzilmasi tasdiqlandi. Mustaqil ta'lim olish va muloqot doirasini kengaytirish usuli sifatida axborotdan foydalanish imkoniyatlarini yaratish, foydalanuvchilarga har qanday tashuvchilarda (bosma, multimedia va raqamli), shu jumladan Internet tarmog'i yordamida sifatli axborot manbalaridan foydalanish imkoniyatini yaratish, o'zining axborot-resurslarini yaratish va ularni doimiy to'ldirib borish orqali kitobxonlarga an'anaviy xizmat ko'rsatish usulidan ularni zamonaviy axborot-kutubxona xizmatlari bilan ta'minlashga o'tish va aholiga masofadan axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatishni rivojlantirish va modernizatsiya qilish asosiy vazifa etib belgilandi.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, shaxsning axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish uchun zamonaviy bosqichda axborot, kompyuter, AKT, media vositalarini birlashtirish lozim. Bundan tashqari shaxsning mediakompetentligini shakllantirish mediata'lim orqali amalga oshirilmoqda. Ushbu sohani rivojlantirish uchun me'yoriy-huquqiy, tashkiliy va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlar asosiy o'rin tutadi. Biroq, bugungi kunda axborot sohasida bir qator muammolar ham mavjud bo'lib, ijtimoiy tarmoqlardan, tezkor xabarlarini tarqatish texnik maydonchalaridan, ommaviy axborotlarni tarqatish, messengerlardan fuqarolarning shaxsga doir huquqlari, ularning shaxsiy hayoti to'g'risidagi axborotning konfidentsialligi qo'pol ravishda buzilishi holatlari ko'plab uchramoqda, shaxsning fiziologik va psixologik ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadigan nolegal axborotlar ham tarqatilmoqda. Ushbu muammolar O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi, "Jurnalistlarning kasbiy faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi, "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlarda belgilangan qoidalar amaliyotining samaradorligini ta'minlashni talab etadi.

Axborot madaniyati bugungi kunda insondan yangi kompetentlikni, jumladan, axborot-kommunikatsiya muloqotini tashkil etish, axborot muhiti bilan o'zaro hamkorlik qilish, moslashuvchan ijtimoiy texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini egallashni talab qilmoqda. Yuqorida ta'kidlangan xulosalardan kelib chiqqan holda quyidagi taklif va tavsiyalarni bildirish mumkin:

yoshlar o'rtasida axborotga nisbatan dunyoqarashni shakllantirish metodologiyasini yaratish;

yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishda axborot savodxonligi bo'yicha yo'riqnoma va standartlarni ishlab chiqib, uzluksiz ta'lim tizimiga joriy qilish;

axborot madaniyatini oshirishga oid tadbirlarni izchil ravishda yo'lga qo'yish;
axborot almashinuvi tezlashgan bir paytda axborotlashgan jamiyatning Internet muloqoti bo'yicha me'yoriy xujjatlarni ko'paytirish;

yoshlarning fan va ta'limga oid resurslarning analitik bazalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;

ta'lim sifatini oshirishda uzluksiz ma'naviy tarbiya va axborot madaniyati bo'yicha fakultativ darslarni tashkil etish;

yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishda daxldorlik tuyg'usini kuchaytirish;
vazirlik va idoralar, NNT, jamoat tashkilotlari ilmiy tekshirish institutlari va markazlar hamda oliy ta'lim muassalari va OAV bilan hamkorlikda axborot olish madaniyati va savodxonligi borasidagi ma'lumotlar almashinuvi platformasi ishlab chiqish.

yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishda axborot-kutubxona muassasalarining mavkeini oshirish, kutubxonalarda targ'ibot-tashviqot ishlarini ko'paytirish, foydalanuvchilar talabidan kelib chiqqan holda axborot-kutubxona muassasalari fondini to'ldirish va ta'minlash lozim.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartibintizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. / Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 47-b. <https://lex.uz/docs/4013413>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2017 yil 13 sentabrdagi "Kitob maxsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida" gi PQ-3271-sonli Qarori.O'zbekiston qonun xujjatlari to'plami. -Toshkent. 2017. № 38. -B.5.

3. Гендина Н.И. Информационная грамотность и информационная культура личности: международный и российский подходы к решению проблемы//Проблемы образования. – №5-2007. – С.58-69.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-4354- son Qarori.

5. Гречихин А.А. Информационная культура: опыт определения и типологического моделирования // Проблемы информационной культуры: сб.статей. – М.:1994. – С.12-39.

6. Гендина Н.И. Специальная цел и ответственное задание для школьной библиотеки: формирование информационной культуры учащихся // Школная библиотека.- 2004. – № 4. – С.33.

7. Umarov A.A. Mutolaa va axborot madaniyatini shakllantirishda axborot-kutubxona muassasalarining o'rni//Fan, ta'lim madaniyat va biznesda internet va axborot-kutubxona resurslari. IX Xalqaro konf.Central Asia 2015. -Toshkent: 2015.-B.189.

8. Медведева Е.А. Информационная культура как предмет преподавания в системе высшего образования // Информатизация и проблемы гуманитарного образования: межд.науч.конф.: тезисы докл. – Краснодар,1995. – С.67-68.

9. Очерет Ю. Формирование информационной культуры личности в условиях информационно-библиотечных учреждений. //Информационная культура в контекстеновой парадигмы образования: проблемы, поиски, решения. -Кемерово: ОблиУУ, 2001. -С.150

Akmal RAXIMJONOV,

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

"Huquqiy fanlar" kafedrası katta o‘qituvchisi

TA'SIS SHARTNOMASI VA KORPORATIV HUQUQ XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya. Muallif mazkur maqolada ta‘sis shartnomasi va korporativ huquq xususidagi huquqshunos olimlarning fikr va muloxazalarini amaldagi qonun xujjatlari va tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlar asosida nazariy va amaliy jixatdan taxlil etgan. Shuningdek, tashkiliy-huquqiy munosabatlarning eng muhim va asosiy qismi bo‘lgan korporativ munosabatlar uchun xos bo‘lgan va barcha korporatsiyalar amal qilishi lozim bo‘lgan umumiy qoidalarni qabul qilish, korporatsiya ko‘rinishidagi turli yuridik shaxslarga oid asosiy qoidalarni FKda ifodalash lozimligini asoslab berishga xarakat qilgan.

Kalit so‘zlar: yuridik shaxs, korporatsiya, shirkat, ta‘sis shartnomasi, korporativ huquq, huquq normalari, moliyaviy-huquqiy normalar, ma‘muriy-huquqiy normalar, mehnat-huquqiy normalar, fuqarolik-huquqiy normalar, korporativ normalar, sotsial normalar.

SOME CONSIDERATIONS REGARDING THE FOUNDING CONTRACT AND CORPORATE LAW

Abstract. In this article, the author analyzed the opinions and comments of legal scholars on the foundation contract and corporate law from the theoretical and practical point of view based on the current legal documents and scientific works of researchers. Also, it was intended to justify the adoption of general rules specific to corporate relations, which are the most important and fundamental part of organizational-legal relations and which all corporations must follow, and the need to express the basic rules regarding various legal entities in the form of a corporation in the FC.

Key words: legal entity, corporation, partnership, founding agreement, corporate law, legal norms, financial-legal norms, administrative-legal norms, labor-legal norms, civil-legal norms, corporate norms, social norms.

Kirish. Dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy sohada turli subyektlarning o‘zaro hamkorligi taraqqiyotning hal qiluvchi asosiy omili hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda bunday hamkorlikning tashkiliy-huquqiy mexanizmi tarixan tarkib topgan va amaliyotda o‘zini oqlamoqda. Tijorat va notijorat sheriklikning kompaniyalar va korporatsiyalar, jamoat fondlari faoliyatini tashkil etish, boshqarishdagi turli shakllari, usullari bunda yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘z tarixiy taraqqiyotida bozor tizimidan uzilib qolib, ma‘muriy tizimni boshidan kechirgan mamlakatlarda to‘laqonli bozor tizimi va fuqarolik jamiyati segmentlarini shakllantirishda tashkiliy-huquqiy munosabatlar tizimidan samarali foydalinishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularni mulkiy va shaxsiy munosabatlar bilan

uyg'unlashtirish mexanizmlarini joriy etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu esa, Yevropa Ittifoqi, AQSh, Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlarida vakillik, korporativ munosabatlari, yig'ilish qarorlarining fuqarolik huquq va burchlariga ta'sirining huquqiy asoslarini takomillashtirish dolzarblik kasb etayotganligidan dalolat bermoqda.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar fuqarolik huquqiy munosabatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Ayniqsa, fuqarolik huquqida yangi munosabatlarning vujudga kelishi fuqarolik huquqiy munosabatlar doirasining kengayishiga va shu bilan birga mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar izchilligini hamda barqarorligini ta'minlaydi. Shu ma'noda korporativ huquqiy munosabatlarni tartibga solishda qonun hujjatlarining roli beqiyosdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yurtimizda o'tgan yillar davomida bozor iqtisodiyoti sohasidagi o'zgarishlarning ishonchli qonunchilik bazasini shakllantirish borasida amalga oshirilgan ulkan ishlar hech kimga sir emas, albatta. Bularning barchasini e'tirof etgan holda, mavjud qonunlarimizning ko'pchiligini ularni qo'llash amaliyoti va mamlakatimizda bozor munosabatlarini rivojlanishining hozirgi davrdagi yangi real holatidan kelib chiqib, jiddiy qayta ko'rib chiqish zarur. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "O'tgan davrda qabul qilingan 400 yaqin yaxlit qonunlar hayotimizning barcha sohalarini huquqiy tartibga solish bilan birga, fuqarolarning huquq va manfaatlarini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Ayni vaqtda qonunlarning to'liqligi hayotiyli va to'g'ridan to'g'ri amalga oshirish mexanizmlariga ega ekani haqida so'z yuritganda bu borada hali ko'p ishlashimiz kerakligini ta'kidlash zarur. Afsuski, xozirgi kunda qonunlarning islohotlar samarasiga ta'siri yetarlicha sezilmayapti. Ularning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi roli pastligicha qolmoqda. Bu holat mamlakatimiz qonunchilik tizimiga fuqarolarimiz, tadbirkorlar, qolaversa, chet el investorlarining ishonchsizligini keltirib chiqarishi mumkinligini unutmashimiz kerak"[1, b. 8]. Yangi fuqarolik qonun-hujjatlari qabul qilinishi bilan jamiyatimizda ko'plab yangi fuqarolik-huquqiy munosabatlar vujudga keldi[2, b. 43-48]. Bunday huquqiy munosabatlar ma'muriy-buyruqbozlik tizimi uchun yot bo'lib, erkin bozor iqtisodiyotining keng amal qilishini ta'minlashga xizmat qilishi bilan harakterlidir. Shu bilan birga fuqarolik huquqi tomonidan tartibga solinadigan munosabatlar doirasi ham kengaydi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan yangi fuqarolik-huquqiy munosabatlardan biri korporativ huquqiy munosabat hisoblanadi.

Biz mazkur maqolada ta'sis shartnomasi va korporativ huquq xususida fikr va mulohaza yuritamiz. Bugungi kunda tashkiliy-huquqiy munosabatlarning eng muhim va asosiy qismi sifatida korporativ munosabatlarga alohida e'tibor qaratilar ekan, yuridik shaxslarni korporativ va nokorporativ yuridik shaxslarga ajratish va ularning huquqiy maqomi va faoliyatini ana shu nuqtai nazardan ham belgilash zaruriyati yuzaga keladi. Bunda korporativ munosabatlar uchun xos bo'lgan va barcha korporatsiyalar amal qilishi lozim bo'lgan umumiy qoidalarni qabul qilish, korporatsiya ko'rinishidagi turli yuridik shaxslarga oid alohida qonunlar bo'ysundirilishi lozim bo'lgan asosiy qoidalarni FKda ifodalash muhimdir. Bu esa, o'z navbatida, Fuqarolik kodeksida alohida "Korporatsiyalar" nomli bob kiritishni taqozo etadiki, bu holat tashkiliy-huquqiy munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish mexanizmini aniqlashtirish bilan birga uning izchilligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi[3, b. 105-114].

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'sis shartnomalari o'z harakateriga ko'ra korporativ normalar turkumiga kiradi[4, b. 81-90]. Korporativ huquq – bu shaxslar va mablag'lar (kapitallar) birlashuviga asoslangan tashkilotlarda ishlab chiqilgan xatti-harakat qoidalari tizimi bo'lib, ushbu tashkilot jamoasi va muassislari erki-irodasini ifodalaydi va tashkilot faoliyatini turli tomonlarini tartibga soladi. Boshqacha aytganda korporativ huquqni

firmaning ichki huquqi, ichki tashkiliy huquqi deb aytish mumkin. U yoki bu ijtimoiy (sotsial) foydali faoliyatni amalga oshirish uchun shaxslar va kapitallarni birlashtiruvchi muxtor (avtanom) tuzilma bo'lgan har qanday tashkilot o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarni amalga oshirish va xodimlar faoliyatini eng yuqori darajada samarali bo'lishini ta'minlash uchun o'z xodimlarining muayyan xatti-harakat qoidalarini shakllantirishga haqlidir. Keng ma'noda korporativ huquq xuddi shunday mazmunda tashkil etilishi mumkin.

Korporativ huquqni nisbatan torroq ma'noda tashkil etish ham mavjud AQSh, Kanada va ingliz tilida so'zlashuvchi boshqa mamlakatlarda korporativ huquq asosan aksionerlik huquqi, ya'ni ustav kapitali aksiyalarga bo'lingan korxonalar aksiyadorlik jamiyatlari ichida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi xatti-harakat qoidalari tizimi hisoblanadi[5, b. 289].

Haqiqatan ham ushbu mamlakatlarda kapitallarni birlashtiruvchi asosiy korporatsiyalar bo'lib, yirik-yirik aksiyadorlik jamiyatlari hisoblanadi. Yuksak texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etish sharoitlarida ushbu korporatsiyalar xo'jalik yuritishning samarali shakli ekanligini isbot qildi. Odatda AQShda davlat korxonalari kamdan-kam hollarda tashkil etilgan. Shirkatlar esa individual (yakka tartibdagi) mulkni shakli hisoblangan. Hozirgi vaqtda ham rivojlangan mamlakatlarda davlat sektorida jami yollanma mutaxassislarining 10% ishlaydi xolos[6, b. 189] Umuman olganda davlat korxonalari deyarli foyda-daromad olmasdan faoliyat ko'rsatadi. Bunday korxonalar odatda mudofaa-harbiy sanoat korxonalari, ko'priklar, dambalar, kanalizatsiya tizimlari qurilishi, ahlat-chiqindi to'plash, ommaviy kutubxonalar va shu kabi sotsial tuzilmalar ko'rinishida mavjud. Biroq, xususiylashtirish jarayoni ushbu sohalarga ham kirib bormoqda. Davlat boshqaruvi bilan bog'liq tarmoqlar bo'lgan sohalarda davlat tuzilmalari o'rniga xususiy firmalar tashkil etilmoqda (masalan, pochta xizmatlari ko'rsatish, shahar jamoat transporti, kutubxonalar, ahlat-chiqindi to'plash va x.k.).

G'arb mamlakatlarida shirkatlar to' XX-asrning 80 yillari o'rtalarigacha yuridik shaxs sifatida tan olinmagan, demak korporatsiya bo'lib hisoblanmagan. Biroq, so'ngi vaqtlarda yuridik shaxslar doirasiga va korporatsiyalar safiga shirkatlar ham de-yure bo'lmasa ham, de-fakto sifatida kiritila boshlandi. Xuddi shu sababli aksiyadorlik huquqi va korporativ huquqni ayniy tushunchalar sifatida qabul qilish to'g'ri emas. Korporativ huquq quyidagi belgilarga ega;

birinchidan, korporativ huquq huquq normalaridan iborat (ya'ni umumiy xarakterdagi xatti-harakat qoidalarini o'zida ifodalaydi). Normativlik – sof huquqiy hodisa emas, bu esa eng avvalo, korporativ normalar tashkilotda keng tarqalgan, tipik, tez-tez takrorlanib turadigan munosabatlarni tartibga soladi va nihoyat bunday normalar tashkilotning barcha a'zolariga yoxud ko'pchilik a'zolariga taalluqli bo'ladi. Masalan, kooperativ boshqaruv vakolatlari boshqaruv raisi va a'zolari qancha bo'lishidan, kimlar bo'lishidan qa'tiy nazar belgilab qo'yiladi va amalda bo'ladi;

ikkinchidan, korporativ huquq normalar tizimidan iborat, ularning har biri tashkilot faoliyatining muayyan tomonlarini tartibga soladi. Eng kamida korporativ normalarining to'rt xil blokini ajratib ko'rsatishi mumkin; a) moliyaviy-huquqiy normalar; b) ma'muriy-huquqiy normalar; v) mehnat-huquqiy normalar; g) fuqarolik-huquqiy normalar.

Albatta, bunday tabaqalashtirish mutloq bo'lmay shartli harakterga ega. So'nggi vaqtlarda korxonalarda axborot ma'muriyatlardan foydalanish bo'yicha munosabatlarni tartibga soluvchi korporativ normalar faol ravishda shakllanmoqda deb aytish mumkin. Bunday axborotlar, ma'lumotlar oshkora etilmaydigan axborotlar, tijorat sirlari ko'rinishida ta'sis shartnomalarida ham mujassamlanishi mumkin. Ayni vaqtda protsessual harakatlardagi normalar ham korporativ normalar safidan joy olmoqda deb aytish mumkin;

uchinchidan, korporativ normalar korporatsiya ishtirokchilari (muassislar, aksiyadorlar, yollanma xodimlar) uchun majburiy hisoblanadi. Korporatsiya a'zolari korporativ normalar ularga yoqish yoqmasligidan, ma'qullamasligidan qat'iy nazar, boshqacha aytganda ularning su'bektiv munosabatlaridan qat'iy nazar ishtirok etilishi shart. Ko'p hollarda korporativ normalar korporatsiya a'zolari tomonidan konsensus asosida yoxud ko'pchilik erki-irodasi asosida qabul qilinadi (masalan ta'sis shartnomasi). Demak, korporativ normalar korporatsiya a'zolari erki-irodasiga to'la yoxud deyarli to'liq mos keladi deb aytish mumkin;

to'rtinchidan, odatda korporativ normalar yozma shaklda mavjud bo'ladi, ularni ifodalanish shakli bo'lib korporativ hujjatlar hisoblanadi. Korxonada korporativ hujjatlarni yuridik kuchiga qarab korporativ hujjatlarning bir necha pog'onasi amal qiladi (masalan muassislarning ta'sis shartnomalari, umumiy yig'ilish hujjatlari, kuzatuv kengash hujjatlari, aksiyadorlik jamiyati boshqaruv hujjatlari, rahbarlik tomonidan chiqarilgan hujjatlar-farmoyishlar, qarorlar va hokozo).

Tahlil va natijalar. Bunday holatda korporativ hujjatlarning turli pog'onalari o'rtasida ziddiyat, kolliziya bo'lishi mumkinmi degan savol tug'iladi. Agarda korporatsiyaning huquqiy hujjatlar qabul qilishga haqli bo'lgan turli subyektlari o'rtasida vakolatlar doirasi aniq belgilanib va chegaralab qo'yilgan bo'lsa, bunday kolliziya bo'lishi oldi olinadi. Agarda muayyan sabablarga ko'ra bunday kolliziyalar vujudga kelsa (masalan, vakolatlar doirasi aniq belgilab qo'yilmaganligi sababli), bunday holatda birinchidan, qonun hujjatlarida belgilangan mezonlarga ko'ra, ikkinchidan, bir-biriga zid hujjatlar chiqargan organ vakolatlari va huquqiy maqomiga ko'ra va nihoyat, maqsadga muvofiqlik mezonlaridan kelib chiqqan holda ushbu kolliziyalar bartaraf etilishi lozim.

Ta'sis shartnomasi korporativ hujjatlar tizimiga kiradi. Demak, ta'sis shartnomalari ham boshqa korporativ hujjatlar bilan kollizion to'qnashganda qaysi hujjat ustivor kuchga ega ekanligini aniqlash masalasi muhim ahamiyatga ega bo'ladi[7, b. 631]. Ushbu muammo mazkur tadqiqot doirasiga kirgani sababli bu haqda to'xtab o'tish maqsadga muvofiqdir.

Fuqarolik kodeksida ta'sis shartnomasining ta'sir doirasi aniq-ravshan belgilab qo'yilgan. Shu sababli ta'sis shartnomasining ushbu doirasidagi normalari mutloq yuridik kuchga ega va boshqa turdagi korporativ hujjatlar bilan belgilanishi mumkin emas. Masalan, korxonada ustavida muassislar tarkibiga kirish va chiqishning bir hil tartibi, korxonada muassislari ta'sis shartnomasida korxonada muassislari tarkibiga kirish va chiqishning boshqa tartibi va shartlari belgilangan bo'lib korxonada ustavi va ta'sis shartnomasi o'rtasida o'ziga xos kolliziya vujudga kelsa, u xolda tabiiyki Fuqarolik kodeksiga asosan ta'sis shartnomasi ustivor kuchga ega bo'ladi[8, b. 159].

beshinchidan, korporativ normalar o'zaro bog'liq, yaxlit va uyg'un tizimni tashkil etadi. To'g'ri, ushbu tamoyilini xususiyatni T.Kashanina boshqacha talqin etadi. Ya'ni, uning fikricha korporativ normalar korporatsiyaning boshqaruv organlari tomonidan chiqariladi va uning muayyan avtonom tuzilma sifatidagi jamoa erki irodasini ifoda etadi. Hatto qaror (korporativ norma) jamoa umumiy yig'ini korporatsiyaning boshqa organlar tomonidan qabul qilingan taqdirda ular o'zaro uyg'un bo'lishi, hech bo'lmaganda korporatsiya hayotining tub ahamiyatiga ega bo'lgan masalalar bo'yicha (boshqaruv tizimi, foyda taqsimoti, jamoa shartnomasi) qabul qilgan qarorlarga zid bo'lmasligi lozim[9, b. 189]. Qanday bo'lganda ham, korporativ normalar o'zaro uyg'un, yaxlit tizimni tashkil etmog'i lozim.

oltinchidan, korporativ normalar rioya qilinmagan, buzilgan taqdirda majburlov kuchi bilan ta'minlanadi. Bunda majburlov ta'sir choralari ham korporatsiyaning o'zi tomonidan

va davlat tomonidan qo'llaniladi. Albatta, bunda eng avvalo korporatsiyaning o'zi tashabbuskor bo'ladi. Normativ normalarda nazarda tutilgan majburlov choralari qo'llaniladi. Agarda bunday choralar yetarli bo'lmasa yohud korporativ normalar ta'siri samara bermasa korporatsiya sud orqali manfaatlarini himoya qilish, davlatni majburlov kuchidan foydalanishga harakat qiladi. Ba'zan korporatsiya korporativ normani buzishi mumkin (masalan, aksionerga jamiyat tomonidan qandaydir sababga ko'ra aksionerchi dividend to'lanmasligi sababli aksionerni sudga murojaat qilishi), har qanday holatda ham korporativ norma sud qarori asosida, davlat majburlov kuchidan foydalangan holda ijro etiladi.

T.Kashanina korporativ huquqqa quyidagicha ta'rif beradi: korporativ huquq – bu korporativ boshqaruv organlari tomonidan o'rnatilgan normativ tizim bo'lib, u korporatsiya a'zolari erki-irodasini ifodalaydi, korporatsiya a'zolari (ishtirokchilari) uchun majburiy hisoblanadi, korporativ majburlov kuchi bilan, agar u yetarli bo'lmaganda esa davlatning majburlov kuchi bilan ta'minlanadi[10, b. 189].

Davlat va huquq nazariyasi bo'yicha mutaxassis professor Z.Islomov korporativ normalar mohiyatini va uning hususiyatini tadqiq etar ekan, o'ziga xos fikr mulohazalarni bayon etadi. Uning fikricha ijtimoiy munosabatlarni normativ tartibga solish tuzilishining tarkibiy qismi bo'lib korporativ normalar yoki jamoat tashkilotlarining normalari hisoblanadi. Jamoat tashkilotlarining normalari sotsial normalar turlaridan biridir. Korporativ normalarni boshqa sotsial normalardan o'ziga xos farqlari va ularni birlashtiruvchi umumiy hususiyatlari eng avvalo u tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlar turi va bu munosabatlarni tartibga solishni amalga oshirilishini ta'minlash shakllarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Jamoat tashkilotlari o'z faoliyatlarini yaxshiroq tashkil etish, ichki vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish maqsadlarida korporativ normalar yaratiladi, shu sababli ham ularni tom ma'noda jamoat tashkilotlarini normalari deb atash mumkin. Bundan korporativ normalarni eng asosiy hususiyati – ularning ta'sir doirasi u yoki bu jamoat tashkilotlarining doirasi bilan cheklanishi va shu sababli ham uning lokal xarakterga ega ekanligi kelib chiqadi. Shunday qilib, korporativ normalar yoki jamoat tashkilotlarining normalari jamoat tashkilotlarining ustavlarida, nizomlarida, qarorlarida ularni faoliyat maqsadlariga erishish uchun belgilab qo'yilgan hatti-harakat qoidalari hisoblanadi[11, b. 28]. Demak, korporativ normalar faqat ichki munosabatlarni tartibga soladi: Ushbu jamoat tashkilotlarining maqsad va vazifalari, organlarining vakolatlari, ularning huquq va majburiyatlari, ushbu tashkilotga a'zo bo'lib kirish va undan chiqish tartibi, normalarga rioya qilish kafolatlari va shu kabilar hisoblanadi[12, b. 592].

Z.Islomovning fikricha, jamoat tashkilotlarining normalari huquqiy va nohuquqiy guruhlarga bo'linadi. Jamoat tashkilotlarining huquqiy harakterdagi normalari jamoat birlashmalarining davlat topshirig'i (o'z vakolatlarini qisman berishi) asosida chiqarilgan hujjatlarda ham o'z ifodasini topishi mumkin. Barcha jamoat birlashmalari huquq ijodkorligida ishtirok etishi mumkin, biroq bu turlicha shakllarda va turlicha hajmlarda namoyon bo'ladi. Jamoat birlashmalarining normalarini amal qilishi huquq normalarini amal qilish bilan bir hil deb aytish mumkin. Ular siyosiy mazmunga ega, tashkiliy choralar, sanksiyalar yordamida ijrosi ta'minlanadi va h.k. Biroq, davlat faoliyati bilan korporativ normalarning bevosita aloqasi, bog'lanishi mavjud emasligini qayd etib o'tish lozim.

Xulosa va takliflar. Korporativ normalar huquqiy normalarga nisbatan o'zining kuchi, ta'sir doirasi, qat'iyligi bo'yicha ancha quyida turadi, biroq muayyan abzallikka ham ega: korporativ normalar faollik va tashabbuskorlikka asoslanadi va huquqiy tartibga solish doirasidan tashqarida ham ta'sir kuchiga ega.

Huquqshunos olimlarning fikricha, huquq normalari va jamoat tashkilotlari normalari o'rtasida quyidagi umumiyliklar mavjud; birinchidan, ular aniq-ravshan ifodalangan xatti-harakat qoidalari hisoblanadi; ikkinchidan, ular mahsus hujjatlarda mustahkamlab qo'yiladi; uchinchidan ular muayyan normalar tizimidan iborat bo'ladi. Ayni vaqtda ular o'rtasida muayyan farq-tafovutlar, o'ziga xosliklar ham mavjud. Bu ularning ta'minlanish darajasi bilan bog'liq. Huquq normalari davlat tomonidan o'rnatiladi va davlatning majburlov kuchi bilan ta'minlanadi. Jamoat tashkilotlarining normalari esa jamoat tashkilotlarining o'zlari tomonidan ta'minlanadi[13].

Albatta, muallif bu o'rinda korporativ normalarning mohiyati va mazmunini o'ziga xos tashkil etishga urinadi. Ushbu o'rinda shuni ham unitmaslik kerakki, korporativ normalar bo'yicha ushbu ilmiy mulohazalar o'zbek milliy huquq maktabi doirasida ilk marotaba bildirilgani bilan ham e'tiborga sazovordir. Uning ijobiy jihatlari eng avvalo korporativ normalarni jamoat birlashmalari ustavlari, nizomlarida mujassamlangan normalar tizimi sifatida namoyon bo'lishi ochib berilganidir. Biroq, korporativ normalar juda keng ma'noda tashkil etilib, jamoat tashkilotlari hujjati ma'nosida tushuntiriladi.

Iqtiboslar/Snoski/References:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – b. 8.
2. Topildiev V.R. The Implementation of Preliminary Contracts (Foreign Experience) // The American Journal of Political Science Law and Criminology 2021. – P. 43-48.
3. Topildiyev V.R. Fuqarolik qonunchiligida korporativ munosabatlarni takomillashtirish istiqbollari xususida ayrim mulohazalar. Yeurasian journal of law, finance and applied sciences. – Toshkent., 2022. – b. 105-114.
4. Topildiev V.R. Civil law problems of constituent contracts // Jamiyat va innovatsiyalar jurnali. №3 2021. – B. 81-90.
5. Topildiyev V.R. Tashkiliy munosabatlarni fuqarolik huquqiy talqini. Monografiya. – Toshkent: Mumtoz so`z, 2020. – 289 b.
6. Кашанина Т.В. Корпоративное право: учебное пособие для вузов. – Москва: Издательство Юрайт, 2023.189 с.
7. Topildiyev V.R. va mualliflar jamoasi. Shartnoma huquqi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2022. – 631 b.
8. Topildiyev V.R. Fuqarolik tashkiliy-huquqiy shartnomalar. Monografiya. – Toshkent: "Universitet", 2021. – 1 59 b.
9. Кашанина Т.В. Корпоративное право: учебное пособие для вузов. – Москва: Издательство Юрайт, 2023.189 с.
10. Кашанина Т.В. Корпоративное право: учебное пособие для вузов. – Москва: Издательство Юрайт, 2023.189 с.
11. Исломов З. Общество, государство, право. - Т., Адолат. 2001. -С. 28.
12. Topildiyev V.R. Fuqarolik huquqi. Darslik. -Т., "Yridik adabiyotlar publish" 2022. 592 b.
13. Исломов З. Общество, государство, право. - Т., Адолат. 2001.

Anora XAKIMOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti Sosiologiya kafedrasida tayanch doktoranti

E-mail: nora_ann99@inbox.ru

Tel.: +99891 500-04-46

ZAMONAVIY BOSHQARUV TIZIMINI SOTSIOLOGIK O'RGANISH SAMARADORLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqola sosiologik tadqiqotlarning turli bosqichlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga bag'ishlangan. Turli zamonaviy statistik paketlarning qiyosiy tahlili ilmiy asoslangan holda berilgan hamda sosiologik tadqiqotlar o'tkazish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: stat-ekspert, axborot texnologiyalari, sosiologik tadqiqot, statistik paketlar, stadia, statistica, stata, spss.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОЦИОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ

Аннотация. Данная статья посвящена эффективному использованию современных информационных технологий на различных этапах социологических исследований. Дан сравнительный анализ различных современных статистических пакетов на научной основе и освещены некоторые особенности использования современных информационных технологий в процессе проведения социологических исследований.

Ключевые слова: стат-эксперт, информационные технологии, социологическое исследование, программы, статистические пакеты, stadia, statistica, stata, spss.

THE EFFECTIVENESS OF THE SOCIOLOGICAL STUDY OF THE MANAGEMENT SYSTEM

Abstract. This article is devoted to the effective use of modern Information Technology at various stages of sociological research. A comparative analysis of various modern statistical packages is given on a scientific basis and highlights the peculiarities of using modern Information Technology in the process of conducting sociological research.

Key words: stat-expert, information technology, sociological research, software, statistical packages, stadia, statistica, stata, spss.

Kirish. Dunyo davlatlari boshqaruv amaliyoti tajribasida yosh rahbar kadrlarning boshqaruv madaniyati alohida ahamiyat kasb etmoqda. Zero, yosh rahbar kadrlar ilg'or texnologiyalarga moyil, innovasiyalarni qo'llab-quvvatlashga ishtiyoqmandligi bilan ajralib turadi. Yangi O'zbekistonda o'zining shaxsiy fikri, prinsiplari va sohaga yangicha yondashuvi bo'lgan yosh rahbar kadrlarni mas'uliyatli lavozimlarga tayinlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida "Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini "Xalq xizmatidagi davlat" tamoyili asosida tashkil etish" bandida, "davlat organlari rahbarlarining o'zi rahbarlik qilayotgan idora yoki tizim faoliyatida yo'l qo'yilgan jiddiy xato va kamchiliklar uchun siyosiy javobgarligi institutini joriy qilish" masalasi qo'yildi[1]. Zero, rahbar ijtimoiy shaxs sifatida ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish resurslarini birlashtirib, uning asosiy harakatlantiruvchi kuchini boshqaruvchi sifatida omilkorlik bilan ish yuritishi talab etiladi. Bu ayni vaqtda rahbarlikning samarali yo'llarini topish, boshqaruv tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish sohasida ilmiy tadqiqotlarga bo'lgan zaruratni oshiradi.

Boshqaruv faoliyatida samaradorlik muammosini sotsiologik nuqtai nazardan ijtimoiy madaniy omillar kesimida o'rganiladi. Ular yosh rahbar xodimda boshqaruv kompetensiyalari shakllanishining ijtimoiy jihatlariga ta'sir ko'rsatishini tavsiflaydi. Bunda, yosh rahbarlar boshqaruv faoliyatining samaradorligi "xalq xizmatchisi" sifatidagi ijtimoiy mavqaning mustahkamlanishi keng jamoatchilik fikri asosida sotsiologik asoslanishiga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Boshqaruv sohasida sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazishning o'ziga xosligi shundaki, tadqiqotchilar juda katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlashlari kerak bo'ladi. A.V.Mal'syevaning asarlarida jamiyatning ijtimoiy tuzilishi transformatsiyasining tahlili yuz minglab yozuvlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlar bazalariga, ommaviy sosiologik so'rovlar natijalariga va ekspert baholariga asoslanadi 1, 28-40-b. Bunday keng miqyosli ishlarni amalga oshirish juda ko'p vaqtni oladi va tadqiqotchidan aniqlikni talab qiladi, har bir bosqichda axborot texnologiyalaridan foydalanish esa ishning bir qismini avtomatlashtirish va natijalarning yanada aniqligini ta'minlash imkonini beradi.

Sosiologik tadqiqotlarni o'tkazish jarayonida turli xil dasturiy va texnik vositalardan foydalanish ko'plab muammolarni hal qilish, zamonaviy jamiyat hayotining turli sohalariga haqida turli xil ma'lumotlarni olish imkonini beradi 2, 90-97-b. 3, 116-120-b. Bugungi kunda bozorda tadqiqot dasturini tuzishdan tortib olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va bajarilgan ishlar bo'yicha hisobot tuzishgacha bo'lgan turli bosqichlarda sosiologik tadqiqotlar o'tkazish jarayonini osonlashtiradigan ko'plab maxsus dasturiy mahsulotlar mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi. Sotsiologik tadqiqotning asosiy bosqichlari uchtdan iborat: tayyorgarlik bosqichi, ma'lumotlarni yig'ish va ma'lumotlarni tahlil qilish. Ularning har birida u yoki bu tarzda turli xil axborot texnologiyalaridan foydalaniladi. Ushbu bosqichlarning har birida axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz.

Tadqiqotning birinchi bosqichi – tayyorgarlikdir va bu bosqichda tadqiqot vazifasini shakllantirish va uni tushunish, tadqiqot obyektini dastlabki o'rganish (uning tuzilishi, funksiyalari, maqsadlarini ko'rib chiqish) amalga oshiriladi. Tadqiqot rejasi tuziladi va dastur ishlab chiqiladi. Ushbu bosqichda foydalaniladigan asosiy texnik vositalardan biri bu jahon axborot tarmog'i hisoblanadigan Internetdir. Jiddiy ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish uchun esa ishonchli ma'lumot manbalari talab qilinadi, ular turli ma'lumotlar bazalari va sosiologik ma'lumotlar banklaridir.

Tayyorgarlik bosqichida tadqiqot dasturini ishlab chiqish amalga oshiriladi, bu jarayon katta hajmdagi qog'oz ishlarini nazarda tutadi. Bu jarayon tadqiqotning maqsadlari, vazifalarini tavsiflashni, muammoni aniqlash, savollarni shakllantirish, agar so'rov o'tkazish rejalashtirilgan bo'lsa, tadqiqotning dastlabki rejasini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichda ishlatiladigan eng mashhur vosita – turli xil matn muharrirlari, masalan, Microsoft Office Word, standart Windows, Notepad bloknotlari va boshqalardir. Ular barcha to'plangan ma'lumotlarni saqlash va tartibga solish imkonini beradi.

Tadqiqot dasturining oxirgi vazifalaridan biri so'rovnomanini ishlab chiqishdir. Bugungi kunda so'rovnomanini tuzish jarayonini osonlashtiradigan turli xil dasturlar va onlayn xizmatlar mavjud. Masalan, Microsoft Office, InfoPath kabi dasturlar bo'lib, ushbu dastur yordamida ma'lumotlarni tez yig'ish maqsadida turli elektron shakllar yaratish mumkin. Ushbu dastur yordamida siz ma'lumotlarni tez yig'ish uchun turli xil elektron shakllarni yaratishingiz mumkin. Foydalanuvchilarga shakllarni yaratish uchun ko'plab imkoniyatlar taqdim etiladi, shu jumladan turli shablonlar, boshidan shakllarni yaratish imkoniyati va boshqalar.

Anketalarni yaratish dasturlari orasida Interro-SL, iSpring QuizMaker kabilarni ajratib ko'rsatish mumkin. Bu dasturlar o'xshash funksiyalarga ega bo'lib, ular shuningdek, jadval va grafik ko'rinishda taqdim etilishi mumkin bo'lgan so'rov natijalari bo'yicha hisobotni tuzish imkoniyatini o'z ichiga olgan bir qator andozalarni taqdim etadi.

Bundan tashqari, tadqiqotchilar anketalarni yaratish uchun ko'pincha turli xil onlayn xizmatlardan foydalanadilar. Bunday xizmatlarning afzalligi respondentlarning to'liq anonimligidir. Bu o'z navbatida odamlarning so'rovnomada qatnashish istagini oshiradi. Sosiologlar orasida eng mashhur xizmatlar bu Google, WebAnketa, Anketyor, CreateSurvey, Anketolog, Aeterna servislari va boshqalardir.

Ular mashhurligining sabablaridan biri bu bir necha oddiy qadam yordamida oddiy anketa yaratish imkonidir. Shuningdek, bunday anketalarni to'ldirish jarayonida avtomatik tarzda birlamchi statistik ma'lumotlar shakllantiriladi. Google kabi ba'zi servislar so'rov natijalarini taqdim etish uchun turli ko'rgazmali qo'llanmalarni o'z ichiga oladi.

Sosiologik tadqiqotning keyingi bosqichi ma'lumotlar yig'ish yoki "dala" deb ataladigan bosqichdir. Ushbu bosqichda turli xil axborot texnologiyalaridan foydalanish intensivligi ma'lumotlarni yig'ishning qaysi usuli tanlanganiga bog'liq. Agar bu anketa yoki so'rov bo'lsa, yuqorida aytib o'tilganidek, savollarni tuzish uchun matn muharriri, maxsus dasturlar yoki onlayn servislar ishlatilishi mumkin.

Agar intervyu ma'lumot to'plash usuli sifatida tanlangan bo'lsa, bu yerda turli xil variantlardan foydalanish imkoni mavjud. Respondent bilan shaxsiy aloqada bo'lgan taqdirda, tadqiqotchiga ovoz yozish moslamasi, videokamera va boshqa texnik vositalar yordam beradi.

Fokus-guruhlarini o'tkazishda tadqiqotchiga video tasvirga olish ham katta yordam beradi. Fokus-guruh davomida moderator barcha ishtirokchilarni bir vaqtning o'zida kuzatib borish imkoniyatiga ega emas, shuning uchun muhokama paytida, asosan, audio va video yozuvlar amalga oshiriladi. Bu kelajakda fokus-guruh ishtirokchisining muayyan masalaga munosabatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Tadqiqotdan so'ng olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish bosqichi boshlanadi. Ushbu bosqichda tadqiqotchi so'rovnoma va so'rov natijasida olingan ma'lumotlar majmuasini tizimlashtirishi, videoyozuvlarni shifrlashi va har qanday miqdoriy ma'lumotlarni tartibga solishi kerak.

Sosiologik tadqiqotning dala bosqichining natijasi turli xil sifatli ma'lumotlar, ya'ni intervyu matnlari, guruh muhokamalari materiallari va boshqalar bo'lishi mumkin. Ushbu ma'lumotlarni tahlil qilish uchun Rossiya sosiologlar jamiyatining "Tizimli sotsiologiya" tadqiqot qo'mitasi Kontent-Analiz Pro tizimini ishlab chiqdi.

Ushbu dastur kontent tahlilning 2 turini amalga oshiradi: semantik va chastotali. Semantik – matnning ma’nosini, muallif tomonidan matnga kiritilgan matnning ma’noni tahlil qilish uchun mo’ljallangan. Chastotali – matnda turli fragmentlarning (so’zlar, jumlar va boshqalar) uchrash chastotasini tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu tizimning ko’plab analoglari mavjud bo’lib, bularga VAAL, Text Mining va boshqa dasturlar kiradi.

Miqdoriy ma’lumotlarni tahlil qilish uchun ko’plab turli xil ixtisoslashtirilgan dasturlar – statistik paketlar mavjud bo’lib, ularning har biri bir qator afzallik va kamchiliklarga ega. Turli vazifalarni amalga oshirish uchun turli statistik paketlardan foydalanish imkoni mavjud.

Turli statistik paketlar oddiy tavsiflovchi statistikadan asosiy komponentlar tahliligacha bo’lgan turli statistik usullarni o’z ichiga oladi. Mavjud tasnifga ko’ra, statistik paketlarning barcha turlarini mos ravishda uch guruhga bo’lish mumkin:

Integratsiyalashgan usulga yo’naltirilgan umumiy maqsadga ega paketlar. Bunday paketlarni universal deb ham atash mumkin, chunki ular aniq bir sohaga yo’naltirilmagan. Paketlar nisbatan sodda interfeysga ega, bu nafaqat professional tadqiqotchilar, balki oddiy foydalanuvchilarga ham paket bilan ishlash imkonini beradi. Ammo shu bilan birga, bunday paketlar statistik usullarning keng doirasini o’z ichiga oladi. Bu paketlar guruhiga SPSS, STATA, STATISTIKA va boshqalar kiradi.

Tahlil va natijalar. Ushbu paketlar biror bir sohada qo’llaniladigan statistikaning 1-2 bo’limining usullarini o’z ichiga oladi. Ko’pincha bu korrelyasiya – regressiya tahliliga, klaster yoki omil tahliliga qaratilgan tizimlardir. Statistik ma’lumotlarni qayta ishlash bo’yicha ixtisoslashtirilgan paketlarga ruslar tomonidan ishlab chiqarilgan STADIA, Olimp dasturlari va boshqalar kiradi. Xorijiy paketlar orasida SAS, BMDP ni ajratib ko’rsatish mumkin.

Mavzuga (yoki muammoga) yo’naltirilgan paketlar. Ushbu paketlar ma’lum bir mavzu bo’yicha muammolarni hal qilish uchun mo’ljallangan. Ular yuqori malakali mutaxassislar uchun ishlab chiqilgan. Ko’pincha, bu paketlar mualliflar jamoasining original ishlanmalarini o’z ichiga oladi. Bunday paketlarga BioStat, MESOSAUR, DATASCOPE lar kiradi.

Sosiologlar o’z ishlarida ko’pincha universal va kamroq ixtisoslashgan paketlardan foydalanadilar, ulardan eng keng tarqalgani xorijiy SPSS, STATA, STATISTICA, STATGRAPHICS, SYSTAT, S-PLUS paketlari va boshqalardir.

Rus analoglari orasida STADIA, EVRISTA, OLIMP: Stat-Ekspert, MESOSAUR, KLASS-MASTER va boshqalarni ajratib ko’rsatish mumkin. Muammoga yo’naltirilgan paketlar yuqori malakali mutaxassislar uchun mo’ljallanganligi sababli ular keng tarqalmagan va ko’pincha keng ko’lamli tadqiqotlarni o’tkazishda qo’llaniladi.

O’zbekistonda sanab o’tilgan paketlardan quyidagilar eng ko’p tarqalgan: SPSS, STATA, STATISTICA, STADIA va boshqalar. Ularning ba’zilarini batafsil ko’rib chiqish mumkin:

SPSS dasturi, yuqoridagi tasnifga ko’ra, umumiy maqsadli paketlarga tegishli, ammo unda ko’plab turli xil funksiyalar mavjud.

IBM SPSS Statistics – bu analitik jarayon uchun mahsulotlarning integratsiyalashgan oilasi. Ta’kidlash joizki, kompaniya deyarli har yili SPSSning yangi versiyasini chiqaradi, dizaynni o’zgartiradi va paket bilan ishlash uchun yangi xususiyatlarni kiritadi. SPSS dasturi modullardan tashkil topgan. Asosiy modulda ko’plab statistik jarayonlar bo’lib, u qo’shimcha modullar bilan to’ldirilishi mumkin.

STATA dasturi ham umumiy maqsadli statistik paketdir. Bu turli xil iqtisodiyot, tibbiyot, sotsiologiya kabi amaliy sohalardagi muammolarni hal qilish mo’ljallangan dastur. Mahsulotning birinchi versiyasi bozorda 1985 yilda paydo bo’lgan. Bugungi kunda dastur grafik, sxema, diagrammalarni tuzishni o’z ichiga olgan keng ko’lamli grafik funksiyalarni taqdim etadi. Hujjatlarga kiritish maqsadida grafiklarni turli formatlarda eksport qilish imkoni mavjud.

Yana bir mashhur statistik paket – bu StatSoft mahsuloti bo‘lgan STATISTICA dasturi. U umumiy maqsadli paketlarga tegishli. StatSoft Russia Amerikaning StatSoft Inc. kompaniyasining Rossiya va MDH mamlakatlaridagi eksklyuziv vakili hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Kompaniyaning asosiy mahsuloti STATISTICA paketi bo‘lib, uning birinchi taqdimoti 1997 yilda bo‘lib o‘tgan. STATISTICA Enterprise tizimi real vaqt rejimida ma’lumotlarni tahlil qilish, data mining, text mining, vizualizatsiya, sifat nazorati muammolarini hal qilish imkonini beradi.

STADIA dasturi maxsus uslubiy yo‘naltirilgan paketlar sarasiga kiradi. U 70-yillarning oxirida M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining yetakchi mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan.

SPSSdan farqli o‘laroq, paket millionlab kuzatuvlarni qayta ishlay olmaydi, biroq bir necha yuz yoki minglab respondentlarning tanlagan so‘rov ma’lumotlari bilan yaxshi ishlay oladi. Paket aniq statistik hisob-kitoblarga va amaliy statistikaning barcha sohalariga tegishli grafiklarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Statistik paketlardan tashqari, bugungi kunda keng qamrovli ma’lumotlarni tahlil qilish usullarini taqdim etadigan turli xil tahliliy platformalar vujudga kelyapti. Ushbu sohadagi eng mashhur ishlab chiqaruvchilarga BaseGroup Labs, Business Objects, Cognos, SAS, Oracle va boshqalar kiradi. Ushbu yo‘nalish nisbatan yosh va istiqbolli bo‘lib, bugungi kunda faol rivojlanmoqda.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, ishonch bilan aytishimiz mumkinki, axborot texnologiyalarining paydo bo‘lishi bilan sotsiologiyada tadqiqot ishlarini olib borish imkoniyatlari ancha kengaydi. Tadqiqotga tayyorgarlik jarayoni ancha takomillashtirildi. Global kompyuterlashtirish jarayoni qog‘ozbozlik hajmini qisqartirdi, bu esa o‘z navbatida tadqiqotni tayyorlashga sarflanadigan vaqtni sezilarli darajada qisqartirdi.

Tadqiqotni o‘tkazish tabiati sezilarli o‘zgarishlarga duch keldi. Sosiologiyaga axborot texnologiyalarining joriy etilishi bilan mavjud tadqiqot usullari takomillashtirildi va yangi, samaraliroqlari paydo bo‘ldi. Shu bilan birga, tadqiqot davomida olingan ma’lumotlarni qayta ishlash uchun ko‘plab imkoniyatlar yuzaga keldi. Shunday qilib, sotsiologiyaga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish ancha istiqbolli yo‘nalish bo‘lib, uni yanada rivojlantirish zamon talabidir.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmonining IV. Qonun ta‘minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish bo‘limining 78-band.

2. Малцева, А.В. Современные информационные технологии в обеспечении прикладных исследовательских задач в социально-культурной сфере. // Известия Алтайского государственного университета, 2009. №1.

3. Шилкина Н.Е. Неопределенность и риск как составляющие повседневной деятельности. // Вестник Орловского государственного университета. Серия: Новые гуманитарные исследования. 2011.№1(15).

4. Махныткина О.В. Оптимизация траектории развития слабоформализованного объекта с иерархической структурой. // Известия Алтайского государственного университета. 2013. №1-1(77).

5. Петрунин Ю.Ю. Информационные технологии анализа данных. - М.:КДУ.

6. Банк социологических данных ИС РАН [Электронный ресурс]. – URL: <http://www.isras.ru/Databank.html>

7. Единый архив экономических и социологических данных [Электронный ресурс].- URL: <http://sophist.hse.ru/>
8. Описание программы “ОЛИМП:СтатЭксперт” [Электронный ресурс].- URL: <http://www.kpress.ru/comp/1998/1/Rosexp/Rosexp.asp>
9. Решение сложных исследовательских и бизнес-задач с помощью анализа данных [Электронный ресурс]. - URL: <http://www-03.ibm.com/software/products/ru/spss-statistics>
10. Чураков, А.Н. Контент – Анализ Про (версия 1.6) [Электронный ресурс], 2011.- URL: <http://ecsocman.hse.ru/text/35480087/>
11. IBM SPSS Statistics [Электронный ресурс]. - URL: <http://www.predictivesolutions.ru/software/statistics.htm>
12. Which STATA is right for me? [Электронный ресурс]. - URL: <http://www.stata.com/products/which-stata-is-right-for-me/>

Равшанбек ИСЛАМБАЕВ,
соискатель кафедры "Социология" Национального университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека

ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО В ОБЛАСТИ ЗАНЯТОСТИ И ТРУДА: СОСТОЯНИЕ И ПРОБЛЕМЫ

Аннотация. В данной статье затрагиваются проблемы занятости, которые являются одними из основных целей макроэкономической политики любого государства. Рассматриваются Законодательства Узбекистана в области занятости и труда.

Ключевые слова: рынок труда, занятость населения, рабочая сила, безработица, экспорт рабочей силы.

BANDLIK VA MEHNAT SOHASIDAGI QONUNCHILIK: HOLAT VA MUAMMOLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada har qanday davlatning makroiqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biri bo'lgan bandlik muammolari ko'rib chiqiladi. O'zbekistonning bandlik va mehnat sohasidagi qonunchiligi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: mehnat bozori, bandlik, ishchi kuchi, ishsizlik, mehnat eksporti.

LEGISLATION IN THE FIELD OF EMPLOYMENT AND LABOR: STATUS AND PROBLEMS

Abstract. This article deals with the problems of employment, which are one of the main goals of the macroeconomic policy of any state. The legislation of Uzbekistan in the field of employment and labor is considered.

Key words: labor market, employment, labor force, unemployment, labor exports.

Введение. Важнейшей составной частью современной правовой системы является трудовое законодательство. Именно трудовое право в значительной мере отражает степень развития социальной составляющей экономики, и по тому, какие нормативно-правовые условия созданы для осуществления трудовых функций, можно судить об уровне развития страны в целом. Современное трудовое право в Узбекистане за прошедшие четверть века претерпело серьезные изменения. В процессе происходящих изменений социальной среды обновлялась и обогащалась его нормативная основа, формировались новые направления правового регулирования, переосмысливались традиционные понятия и конструкции. И этот процесс пока далек от завершения. В настоящее время неясно, распространяется ли действие Трудового Кодекса (минимальный размер оплаты труда, продолжитель-

ность рабочего дня, продолжительность отпуска, оплата сверхурочных работ, защита от безработицы, защита от увольнений и др.) и иного социального законодательства (пенсионное и медицинское страхование, нормы охраны труда и производственного травматизма и др.) на работников[1, с. 13], заключивших договоры гражданско-правового характера (договоры подряда), на работников кооперативов и другого контингента занятых, не подпадающих под категорию наемных работников. Не даны четкие и исчерпывающие определения понятия "наемный работник" и других категорий работников в Гражданском Кодексе[2] и в Законе "О занятости населения"[3]. В трудовом законодательстве отсутствуют понятия "временные и сезонные работники", "надомные работники", "удаленные работники" и др., не говоря уже о социальных гарантиях, которые законодательство должно пред усматривать для таких категорий работников. Довольно широкое распространение на рынках труда в Узбекистане, особенно в неформальном секторе, получило такое явление как заемный труд, но оно не нашло отражение в трудовом законодательстве. Легализация и регулирование заемного труда приобретает особую актуальность ввиду того, что на практике трудовые отношения такого рода формируются по инициативе органов государственной власти и управления во время проведения хлопкоуборочной кампании.

Сегодня трудовой договор как соглашение не использует полностью свое предназначение и свои возможности для юридического оформления и соблюдения интересов сторон трудовых отношений, обусловленных особенностями организации труда. Не определен круг социальных гарантий для работников, которые выполняют работы в рамках гражданско-правового договора, но сами не участвовали в его заключении. Имеют место противоречия, возникающие на практике при заключении срочных трудовых договоров. В настоящее время срочные трудовые договоры получили широкое распространение не только в частном секторе, но даже в бюджетных организациях. Непонятно, обязан ли работодатель заключать срочный трудовой договор независимо от желания сторон, или такой договор может быть заключен по соглашению сторон. За рубежом не предусматривает ведение трудовых книжек, трудовой стаж определяется на основе перечня документов, которые подтверждают трудовую деятельность работника. Как свидетельствует мировой опыт, в условиях рыночных отношений возрастает острота проблемы обеспечения занятости трудовых ресурсов. Особую актуальность она приобретает в странах с переходной экономикой, осуществляющих структурные преобразования, сопровождаемые высвобождением избыточной рабочей силы и увеличением числа лиц, активно ищущих работу[4].

Существующие требования к трудовому договору не отражают все многообразие видов и форм труда; для этого следует разработать примерные формы трудового договора, которые максимально отражают особенности гибких и нестандартных форм занятости[5]. В настоящее время многие из льгот, предоставляемых для женщин и молодежи при найме на работу, невыполнимы и невыполняемы, поскольку существенно повышают стоимость женского труда и труда молодых работников и могут служить причиной дискриминации при трудоустройстве и увольнении. Зачастую применяется дискриминационная норма, предоставляющая работодателям право увольнять работников пенсионного возраста. Кроме этого, не имеется единых нормативно-правовых принципов регулирования внешней и внутренней трудовой миграции, т.е. единого миграционного законодательства, регулирующего миграционные процессы на основе единых

принципов и правил, и реализации единой миграционной политики. Так, до сих пор не принят Закон Республики Узбекистан "О миграции", но идет процесс рассмотрения проекта закона "О внешней трудовой миграции"[6], разработанный в целях усиления правовых реформ, проводимых государством в этой области. На законодательном уровне данный документ регулирует все аспекты, связанные с выездом, трудоустройством, периодом работы, возвращением и реинтеграцией трудовых мигрантов. Узбекистан пока не присоединился к Международной организации по миграции и Конвенции №97 Международная организация труда "О трудовых мигрантах". Кроме этого, понятие "неформальная занятость" не определено в законодательстве в соответствии с международными стандартами. Деятельность профсоюзов координируется централизованно, в результате чего не имеется инициатив с их стороны, касающихся вопросов формирования политики заработной платы, позволяющей обеспечивать мотивацию труда работников. Председатели профкомитетов в организациях, как правило, являются подчиненными руководителей этих организаций и зачастую не заинтересованы в защите прав отдельных трудящихся.

Методология исследования. В Трудовом кодексе Республики Узбекистан установлены различные льготы и гарантии в отношении трудоустройства и трудовых отношений для молодежи и женщинам[7]. Женщинам гарантируется оплачиваемый отпуск по беременности и родам на срок до 140 дней и возможность работать по сниженной оплате на срок до одного года после рождения ребенка. Отпуск на праздники, отпуск по уходу за ребенком и в связи с семейной утратой также являются обязательными. Трудовой Кодекс Республики Узбекистан предоставляет ряд дополнительных льгот для лиц, совмещающих работу с обучением. Так, такие работники пользуются правом на дополнительный оплачиваемый отпуск (включая творческие отпуска); сокращенную рабочую неделю (5 рабочих дней из 6-дневной рабочей недели); преимущественное оставление на работе при прекращении трудового договора (в случае изменения технологии, организации производства и труда, сокращение работ); оплату проезда (для сдачи экзаменов, дипломного проекта, сессий и т.п.). В частности, выпускникам средних специальных профессиональных и высших учебных заведений, а также, обучавшимся по государственным грантам, поступившим на работу впервые, предоставляются гарантии того, что в случае прекращения трудового договора в течение 3 лет со дня окончания образовательного учреждения работодатель должен уведомить об этом местный орган по труду.

Также следует отметить, что Трудовой Кодекс Республики Узбекистан предоставляет соответствующие льготы и для лиц моложе 18 лет. Так, согласно статье 411 Трудового Кодекса Республики Узбекистан работодатель обязан принимать на работу лиц моложе 18 лет, направляемых местным органом по труду и другими органами на рабочие места в счет установленного минимального количества рабочих мест[8]. При этом таким лицам предоставляется дополнительный оплачиваемый отпуск, сокращенный рабочий день, облегченная материальная ответственность (только при умышленном причинении вреда), медицинский осмотр, а также гарантии того, что прекращение трудового договора с такими лицами возможно только с согласия местного органа по труду.

Анализ и результаты. Также, согласно Трудовому Кодексу Республики Узбекистан, запрещается применение труда лиц в возрасте до восемнадцати лет на работах с вредными и (или) опасными условиями труда, на подземных работах,

а также на работах, выполнение которых может причинить вред их жизни и здоровью, безопасности и нравственному развитию (работа в ночных кабаре и клубах, производство, перевозка и торговля спиртными напитками, табачными изделиями, наркотическими и психотропными веществами, токсическими препаратами и другие)[9]. Также законодательство предоставляет женщинам дополнительные льготы и гарантии:

- для женщин и лиц, занятых исполнением семейных обязанностей (статья 224– 238 Трудового Кодекса Республики Узбекистан);

- преимущественное право на перенесение или продление отпуска при наступлении отпуска по беременности и родам (статья 145 Трудового Кодекса Республики Узбекистан);

- преимущественное право на очередность предоставления отпусков (статья 144 Трудового Кодекса Республики Узбекистан);

- временный перевод беременных женщин и женщин, имеющих детей в возрасте до двух лет, на более легкую или исключаящую воздействие неблагоприятных производственных факторов работу (статья 94 Трудового Кодекса Республики Узбекистан);

- запрещение установления предварительного испытания для беременных женщин и женщин, имеющих детей в возрасте до двух лет, при приеме на работу (статья 84 Трудового Кодекса Республики Узбекистан);

- обязательное трудоустройство беременных женщин и женщин, имеющих детей в возрасте до трех лет, в случае ликвидации предприятия (статья 237 Трудового Кодекса Республики Узбекистан);

- регистрация безработных беременных женщин (если срок беременности не превышает 28 недель) государственной службой занятости в качестве ищущих работу на общих основаниях. Если государственная служба занятости не сможет обеспечить их работой в течение 10 дней, то с одиннадцатого дня они получают статус безработного. Беременным женщинам, независимо от наличия трудового стажа, выплачивается пособие по безработице сроком не более 26 календарных недель в течение 12-месячного периода в размере МЗП, установленной в Республике Узбекистан (статья 36-1 Закона о занятости населения Республики Узбекистан).

Узбекистан продолжает сотрудничество с Международной организацией по миграции, однако республика до сих пор не стала членом этой организации. Следовательно, не стандартизированы подходы к изучению миграции. Следует отметить, что вопросы внутренней трудовой миграции не решаются системным образом. Политика государства в этой области охватывает лишь отдельные вопросы упорядочения маятниковой трудовой миграции так называемых "мардикоров" внутри страны. Правительство Республики Узбекистан принимает активные меры по сокращению неформальной занятости путем упрощения налоговой системы посредством, например, введения единого налогового платежа и снижения налоговых ставок. Несмотря все эти усилия в Узбекистане имеется проблемы безработицы среди молодежи и женщин. Причинами безработицы среди молодежи являются: высокое демографическое давление на рынок труда[10]; недостаточное предложение новых рабочих мест на рынке труда Узбекистана; недостаточный уровень когнитивных и не когнитивных навыков у молодежи, полученных в колледжах и лицеях и являющихся важными для формирования навыков принимать рациональные решения в проблемных ситуациях; низкая производительность труда молодежи вследствие недостаточного опыта работы; недостаточный уровень

компетенций у молодых лиц, окончивших профессиональные учебные заведения, вследствие низкого качества обучения и неэффективного отбора абитуриентов (наличие теоретических знаний при отсутствии практических навыков); неразвитость механизмов социального партнерства в области обеспечения интеграции теории и практики в учебных заведениях, а также последующего трудоустройства их выпускников[11]; хроническое проявление нереализованности потенциала знаний, умений и навыков у многих молодых граждан из-за неправильного выбора профессии в условиях отсутствия действенной системы профессиональной ориентации молодежи; недостаточное соответствие структур квот подготовки кадров и потребностей экономики в них[12].

Заключение. В системе рынка труда осуществляются мероприятия по повышению общеобразовательного уровня безработных и обучению профессиям, имеющим устойчивый спрос на рынке труда[13, с. 379-387]. Для снижения уровня безработицы немаловажную роль играет и выяснение проблем, стоящих перед безработными. Основными проблемами для безработных являются: недостаток информации (о занятости, об обучении, о спросе рабочей силы на рынке труда, о рынке товаров и услуг); незнание своих прав и обязанностей; преодоление психологического барьера для повышения своей трудовой активности. Для повышения занятости нужно разработать следующие мероприятия: проведение маркетинговых исследований по изучению спроса на услуги и потребительские товары для подготовки работников и специалистов по спросу для предпринимательства; изучение спроса на рынке труда рабочей силы (количественные и качественные показатели); обучение новым профессиям и переобучение, согласно спросу на рынке труда; привлечение инвестиций, упрощение получения кредитов, обеспечение сырьем и оборудованием; создание новых рабочих мест; улучшение условий труда для женщин и создание для них бытовых услуг. Чтобы претворить в жизнь эти мероприятия, необходимо изучать сферу приложения труда населения. Основными направлениями для повышения занятости являются: частный бизнес (микробизнес, малые предприятия); бытовое обслуживание (сфера услуг) и торговля; сельское хозяйство (развитие новых видов животноводческих хозяйств в северных районах республики); промышленность; надомный труд (патент и т. д.).

Сноски/Iqtiboslar/References:

1. Устойчивая занятость в Узбекистане: Состояние, Проблемы и пути их решения. Устойчивая занятость в Узбекистане: состояние, проблемы и пути их решения. Аналитический доклад в рамках проекта Программы развития ООН "Поддержка стратегических исследований в целях устойчивого развития". – Ташкент., 2018. – С. 13.

2. "Гражданский кодекс Республики Узбекистан". 01.03.1997. <https://lex.uz/docs/111181>

3. Закон Республики Узбекистан "О занятости населения" от 20.10.2020 г. NЗРУ-642.

4. "Современное состояние рынка труда и проблемы занятости" Исмаилов К.С., Каракалпакский Государственный Университет, г. Нукус, Узбекистан, i.quwatbay@karsu.uz

5. Устойчивая занятость в Узбекистане: состояние, проблемы и пути их решения. Устойчивая занятость в Узбекистане: состояние, проблемы и пути их решения. Аналитический доклад в рамках проекта Программы развития ООН "Поддержка стратегических исследований в целях устойчивого развития". – Ташкент., 2018.

6. Постановление Законодательной палаты Олий Мажлиса Республики Узбекистан, "О проекте Закона Республики Узбекистан № пз-855 "О внешней трудовой миграции"" от 15.02.2022 г. № 1838-IV <https://parliament.gov.uz/ru/events/chamber/37171/>

7. Трудовой кодекс Республики Узбекистан. Раздел II Глава 14, статья 247-1 ТК РУз.

8. Трудовой кодекс Республики Узбекистан. Раздел VI Глава 25, статья 411 ТК РУз

9. Трудовой кодекс Республики Узбекистан. Раздел VI Глава 25, статья 412 ТК РУз

10. В 2016 г. коэффициент рождаемости на 1000 человек в республике составлял 22,8 промилле, а ежегодный естественный прирост населения – чуть менее 600 тыс. человек. В развитых странах уровень рождаемости составляет менее 14 промилле. Источник: данные Госкомстата РУз и статистических органов соответствующих стран.

11. Существующая практика трудоустройства выпускников профессиональных колледжей на основе подписания четырехсторонних договоров между родителями, администрацией колледжа, местным хокимиятом и работодателем не оправдывает себя и является мерой административного принуждения, что противоречит принципам частного предпринимательства. Работодатели зачастую не заинтересованы трудоустраивать выпускников, компетенции которых недостаточны или не соответствуют требованиям рабочего места

12. Исследование, проведенное ВБ в 2013 г., показало, что промышленные предприятия испытывали наибольшие затруднения в поиске требуемых специалистов среди имеющейся рабочей силы, причем 49% работодателей говорят об отсутствии достаточного количества квалифицированных специалистов с высшим образованием. В структуре занятых низкой остается доля населения с высшим образованием и высшим инженерно-техническим образованием. Источник: Ajwad et al. (2014). "The Skills Road: Skills for Employability in Uzbekistan". World Bank. Washington, DC

13. Kalmuratov B. S. Development strategy of an innovative management of the industrial complex of the Republic of Uzbekistan // Theoretical & Applied Science. 2021. №1 (93). – P. 379-387.

Sherzod BOBOYEV,

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy univesiteti

Sotsiologiya kafedrası mustaqil izlanuvchisi

XAYRIYA FONDLARI, XAYRIYA TASHKILOTLARI VA ULARNING SHAKLLANISH TARIXI

Annotatsiya. Mazkur maqolada xayriya tushunchasi, xayriya tashkilotlari va ularning dunyo miqyosida, jumladan Rim imperiyasi, AQSh, Buyuk Britaniya, Rossiya tarixida rivojlanish haqida so'z boradi. Shuningdek, islomda vaqf tushunchasi mamlakatimizda xayriya faoliyatining turli shakllari to'g'risida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Xayriya, xayriya subyektlari, xayriya tashkilotlari, xayriya fondlari, metsenatlik, cherkov, protestantizm, lyuteranizmga, kambag'allik, ko'ngillilar, ijtimoiy himoya, gumanitar yordam, insonparvarlik.

БЛАГОТВОРИТЕЛЬНЫЕ ФОНДЫ, БЛАГОТВОРИТЕЛЬНЫЕ ОРГАНИЗАЦИИ И ИСТОРИЯ ИХ СТАНОВЛЕНИЯ

Аннотация. В данной статье говорится о понятии благотворительности, благотворительных организациях и их развитии в мире, включая историю Римской империи, США, Великобритании и России. Также понятие вакфа в исламе обсуждалось применительно к различным формам благотворительной деятельности в нашей стране.

Ключевые слова: благотворительность, благотворительные организации, благотворительные организации, благотворительные фонды, меценатство, церковь, протестантизм, лютеранство, бедность, волонтеры, социальная защита, гуманитарная помощь, гуманизм.

CHARITABLE FOUNDATIONS, CHARITABLE ORGANIZATIONS AND THE HISTORY OF THEIR FORMATION

Abstract. This article talks about the concept of charity, charitable organizations and their development in the world, including the history of the Roman Empire, the USA, Great Britain and Russia. Also, the concept of "waqf" in Islam was discussed in relation to various forms of charitable activities in our country.

Key words: charity, charitable organizations, charitable organizations, charitable foundations, patronage, church, Protestantism, Lutheranism, poverty, volunteers, social protection, humanitarian aid, humanism.

Xayriya – bu muhtojlarga ixtiyoriy va bepul yordam hisoblanib, ko‘pincha notijorat tashkilotlar fondlar tomonidan muvofiqlashtiriladi. Ammo bu borada har qanday shaxs yoki kompaniyalar ham yordam berishi mumkin. Xayriyaning asosiy xususiyati haqida gapirilganda ixtiyoriy turdagi, vaqt va joyni, shuningdek, (maqsadli) yordamning mazmunini tanlashdir. Qo‘shniga rahm-shafqatning namoyon bo‘lishi va kambag‘allar hamda muhtojlarga yordam berishga shoshilishning axloqiy burchi o‘rtasida farq bor. Xayriya yordami odatda bepul yoki katta chegirma bilan amalga oshiriladi. Insonlar o‘z narsalarini bepul berishlari yoki xayriya fondlariga o‘z hissalarini qo‘shish yoki zaif toifalar vakillari: qariyalar, yolg‘iz ota-onalar yoki nogironlarga turli chegirmalar berish orqali xayriya faoliyatini amalga oshiradilar. Xayriya tashkiloti – bu butun jamiyat yoki ayrim toifadagi shaxslar manfaatlarini ko‘zlab xayriya faoliyati orqali xayriya maqsadlarini amalga oshirish uchun tashkil yetilgan nodavlat (nodavlat va munitsipal bo‘lmagan) notijorat tashkilot[1]. Xayriya tashkilotlari jamoat tashkilotlari (birlashmalar), fondlar, muassasalar va xayriya tashkilotlari uchun qonunlarda nazarda tutilgan boshqa shakllarda tashkil yetiladi. Xayriya tashkiloti, agar uning asoschisi xayriya tashkiloti bo‘lsa, muassasa shaklida tashkil yetilishi mumkin. Fond (ingliz fondi; lotin tilidan fransuz fond. fundus-foundation) – fuqarolar va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan xayriya, madaniy, ma‘rifiy yoki boshqa ijtimoiy, ijtimoiy foydali maqsadlarni ko‘zlagan holda ixtiyoriy mulkiy badallar asosida tashkil yetilgan notijorat tashkilot[2]. Fondlar turli xil ijtimoiy yo‘naltirilgan dasturlarni amalga oshiradilar yoki grantlarni tarqatadilar. Fondlar faoliyati uning ustav hujjatlarida belgilanadi. Fondlar o‘z faoliyati uchun bir necha usul bilan mablag to‘plashlari mumkin; tashkilotlar va jismoniy shaxslardan xayriya mablag‘larini olish; boshqa xayriya fondlaridan grantlar va maqsadli mablag oling; o‘z mablag‘larini qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilish, ularni depozitda saqlang va hokazo; qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa moliyaviy faoliyatni amalga oshirish.

Xayriya fondlari – bu xayriya tashkilotining o‘ziga xos sohasi bo‘lib, moliyalashtirishdan boshqa yordam ko‘rsatmaydi. Bu yerdagi xodimlarning asosiy qismi ma‘lumot tarqatish, fuqarolarni jalb qilishga urinish va xayr-ehsonlar to‘plamini tashkil yetish bilan shug‘ullanadigan ko‘ngillilardir. Xayriya faoliyatining tarixiga yuzlanadigan bo‘lsak Qadimgi Misr, Xitoy va Hindistonda xayr-ehson fazilatli narsalardan biri sifatida qabul qilingan fidoyilik, muhtojlarga yordam berish kabi insoniy fazilatlariga xayriya sifatida qaralgan edi. Qadimgi yunonlar ishlab chiqarishda band bo‘lgan kambag‘allarga yordam berish uchun xayriya tizimini yaratdilar, chunki aholining bu qismi jamiyatning iqtisodiy hayoti uchun muhim edi.

Xayriya haqida birinchi eslatmalardan biri qadimgi Rim fuqarolaridan birining nomi bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin, keyinchalik u mashhur nomga aylandi – Gay Cilnius Metsenat. Aynan u Sezar Avgustning o‘g‘li boshchiligidagi Rimning tiklanishi uchun fuqarolik nizolari davrida imperatorni jamoat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga mas‘ul bo‘lgan. "Rim patrisining idealligi shundaki, u o‘sha vaqtlardagi san‘at imkoniyatlarini oldindan ko‘ra bilgan va bu uning jamoat masalalaridan uzoqlashishiga sabab bo‘lgan. U o‘z hisobidan xalq ta‘limini tashkil yetish va boshqarishni o‘z zimmasiga oldi garchi u birinchi navbatda "mafura va milliy g‘oya" bilan fahrlansa ham[3]. Shunga qaramay, Gay Cilnius Metsenat bu masalada shaxsiy misol edi xolos.

XVI-XVIII asrlarda Yevropa mamlakatlarida esa qashshoqlik va tilanchilikni tartibga solishning qonunchilikdagi yondashuvlari paydo bo‘lib boshladi. Bu borada, protestantizm va lyuteranizmga asos solgan Martin Lyuter sadaqalarning nazoratsiz taqsimlanishiga qarshi chiqdi va aholining eng kambag‘al qatlamlariga beriladigan yordam jamoat o‘zini o‘zi boshqarishdan kelib chiqishi kerak degan fikrga keldi. Davlat shakllari

paydo bo'lib, xayriyaga ixtisoslashtirilgan ijtimoiy institutlar (sadaqa uylari, boshpana) yaratishga urinishlar olib borildi, qashshoqlik va tilanchilikni tartibga solishning qonunchilik yondashuvlari paydo bo'la boshladi. Shu ma'noda, XIX-asr oxiridagi amerikalik tadbirkorlar orasida amerikalik kashshoflar ruhi hukmronlik qildi, hududlarni rivojlantirdi, shaharlar qurdi, yangi joylarni ochib, ularni ko'chmanchilar bilan to'ldirdi. Yangi korxonalar tashkil etgan bu tadbirkorlar yangi universitetlar, muzeylar, kutubxonalar va xayriya tashkilotlarini tashkil etishda ham xuddi shunday fikrda edilar. Katta xayriya ishlarida namoyon bo'ladigan bu individual tadbirkorlik ruhi boshqa mamlakatlarga qaraganda Qo'shma Shtatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Shu sababli, tadbirkorlik impulsi xayriya faoliyatida qanday amalga oshirilganligi tafsilotlarini ko'rish uchun Amerika tarixiga murojaat qilish mantiqan to'g'ri bo'ladi.

XVI asrning boshlarida Angliyada kambag'allarga yordam berish bo'yicha ijtimoiy dasturlar zamonaviy ma'noda amalga oshirila boshlandi, bu jamoat xayriya faoliyatining boshlanishiga aylandi va keyinchalik davlat xayriya fondlarining paydo bo'lishiga yordam berdi. Biroq, "professional" tilanchilar sonining ko'payishiga olib kelishi mumkinligi sababli xususiy xayriya taqiqlandi. Qirolicha Yelizavetaning Kambag'allik xaqidagi qonuni (1601) mavjud bo'lgan kambag'allarga yordam amaliyotlarini rasmiylashtirdi. Qonun tuman darajasida boshqariladigan va kommunal to'lovlar hisobidan moliyalashtiriladigan tizimni yaratdi. 1782 yilda Tomas Gilbert faqat kambag'al keksalar va nogironlarga uylar taqdim etilgan akti qabul qildi va ishlash imkoni bo'lganlar uchun uylardan tashqarida yordam tizimi yaratildi. Bu esa kam maoshli ishchilarga pul yordami ko'rsatadigan Spinhamland tizimini rivojlantirish uchun asos bo'ldi. Kambag'allar to'g'risidagi qonun tizimi Maltus va D.Rikardo tomonidan erkin bozorni buzishi bilan tanqid qilindi. Bu iqtisodchilarning fikriga ko'ra, bunday qonunlar aqlsizlarni rag'batlantirgan biroq mehnat-sevar va aqlli insonlarning daromadlarini bir qismidan mahrum qilgan. Yagona davlat tizimi va xorijiy boshqaruvning qulashi davrida xayriya vazifalari o'z zimmasiga olgan cherkov birinchi o'ringa chiqdi va cherkov-monastir xayriya tizimi ishlab chiqildi xamda mustahkamlandi. Xayriya faoliyatining muhim belgisi bu – faoliyatning ixtiyoriy xususiyatidir. Bu zudlik bilan muhtoj bo'lganlarga shaxsiy xizmat sifatida tovarlarni pul yoki boshqa shaklda ixtiyoriy ravishda berish harakati. Xayriya, shuningdek, har qanday ijtimoiy ahamiyatga yega faoliyat shakllarini rag'batlantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi mumkin (masalan, atrof-muhitni muhofaza qilish, madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish). Moddiy, moliyaviy, tashkiliy va boshqa yordam ham jismoniy, ham yuridik shaxslar tomonidan ko'rsatilishi mumkin.

1917 yildan keyin Rossiyada milliy xayriya an'analari bilan keskin tanaffus yuz berdi. Shaxsning barcha g'amxo'rliqi shaxsga emas, aksincha, davlatga yo'naltirildi. Rossiya davlatining zamonaviy rivojlanish bosqichi iqtisodiyotni rejali boshqaruvning bozor tamoyillariga tez yo'naltirish, yetarli darajada samarali bo'lmagan ijtimoiy siyosatni amalga oshirish natijasida, odamlar farovonligi darajasining keskin yomonlashuvi, yuqori tabiiy qatlam aholisining keskin kamayishi, odamlarning jismoniy va ruhiy salomatligining yomonlashishiga sabab bo'ldi. Sovet davrida yetarlicha rivojlangan korxonalarining ijtimoiy sohasi tugatilib, hududiy hokimiyat balansiga o'tkazildi. Rossiyada xayriya ishlarining qonuniy tiklanishi o'tgan asrning 90 yildagi "Jamoat birlashmalari to'g'risida" gi Qonuniga muvofiq amalga oshirildi o'tdi, unga ko'ra ushbu uyushmalar o'zlarining mablaglarini xayriya maqsadlariga hatto bu tashkilot ustavida ko'zda tutilmagan bo'lsa ham yo'naltirish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Shu paytdan boshlab aksariyat xayriya tashkilotlari ixtiyoriy ravishda davlat ishtirokisiz tashkil yetildi. 1992 yil holatiga ko'ra esa xayriya tashkilotlari soni Rossiyada 118 donani tashkil etdi.

Rivojlangan keng ko'lamli xayriya tizimiga ega bo'lgan va bu xayriya mablag'larini boshqarish uchun maxsus yaratilgan ulkan jamg'armalar tashkil etilgan Amerika boshqa mamlakatlar orasida istisno hisoblanadi. Hatto ketma-ket taqqoslashlar shuni ko'rsatadiki, Yevropada mamlakatlari AQSh kabi miqyosda xususiy tizimli xayriya ishlarini rivojlantirmagan. Yevropa mamlakatlari o'zlarining barcha pullarini xayriya maqsadlariga berishga unchalik moyil bo'lmaganlar, ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri merosxo'rlar bo'lmasa ham, barcha pullarni oilada qoldirishga harakat qilishdi. Bu erda boshqa ko'plab omillar, xususan, iqtisodiy rivojlanish tezligi ham muhim bo'lgan. AQShda XIX asrning oxiriga kelib kapital to'planishi tez sur'atlar bilan sodir bo'ldi, Yevropada esa bunday bo'lmagan. Umuman olganda, Yevropa boshqa tarixiy an'analarida bo'lgani kabi, Amerika Qo'shma Shtatlaridan unchalik farq qilmaydi, xususan, u yerdagi oilaviy moliya uzoq tarixga ega va an'analariga asoslangan. Amerika va Yevropada yevropalik ishbiarmonlar, amerikaliklardan farqli o'laroq, o'z mablag'larini rejalashtirishda ko'p avlodlarni o'ylaydilar. Agar Yevropada shaxsiy qo'llarda boylikning bunday tez to'planishi bo'lsa, u sanoat inqilobi davrida Britaniyada bo'lgan. XX asrning boshlariga kelib, jamg'armalarni tashkil etish kabi yirik xayriya strategiyalari shakllana boshlaganida, Yevropada Amerikadan farqli o'laroq, "oson pul" va "yangi boylar"[4] ko'p emas edi.

XIX asr oxiridagi amerikalik tadbirkorlar orasida amerikalik "pioner" ruhi hukmronlik qildi, hududlarni rivojlantirdi, shaharlar qurdi, yangi joylarni ochib, ularni hindulardan tortib, oq ko'chmanchilar bilan to'ldirdi. Yangi korxonalar tashkil etgan bu tadbirkorlar yangi universitetlar, muzeylar, kutubxonalar va xayriya tashkilotlarini tashkil etishga ham xuddi shunday munosabatda bo'lishdi. Katta xayriya ishlarida namoyon bo'ladigan bu individual tadbirkorlik ruhi boshqa mamlakatlarga qaraganda Qo'shma Shtatlarda yaqqol namoyon bo'ldi. Shu sababli, tadbirkorlik impulsi xayriya faoliyatida qanday amalga oshirilganligi tafsilotlarini ko'rish uchun Amerika tarixiga murojaat qilish mantiqan to'g'ridir[5].

Vaqf tashkilotlari qadimda musulmon mamlakatlarida xilma-xil va son-sanoqsiz bo'lgan. Mazkur muassasalar ta'bir joiz bo'lsa, islom sivilizatsiyasining nechog'li oliyjanob va hassosligini aks ettiruvchi yuzlab rangda jilolanuvchi in'ikosidan biri edi[6]. Islomiy vaqflar jamiyat a'zolarini ijtimoiy birdamlik soyaboni ostida jamlab turgan. Boylar va ehtiyojmandlar o'rtasidagi do'st-birodarlik tushunchasini mustahkamlash uchun o'ziga xos ko'prik vazifasini o'tagan. Qadimdan badavlat musulmonlar dunyo va oxirat yaxshiliklarini qo'lga kiritish uchun infoq-ehsonlar qilishda peshqadam bo'lganlar. Vaqflar ijtimoiy himoyaning barcha turini o'zida qamrab olgan. Vaqf shifoxonalari, vaqf madrasalari, vaqf mehmonxonalar, rabotlar, masjidlar, yo'llar, ko'priklar, ehtiyoj sohiblarini taom bilan ta'minlovchi vaqflar, qarzdorlarga yordam beruvchi vaqflar, musofirlar uchun ajratilgan vaqflar va boshqa ko'plab yo'nalishda faoliyat yurituvchi vaqf tashkilotlari bor edi. Ular xayriya faoliyatining zamonaviy amaliyoti o'z ichiga xayriyaning turli shakllari va ko'rinishlarini qamrab oladi va ular ijtimoiy ishtiroki xususiyatlari bilan farqlanadilar, jumladan: Xayriya faoliyati maqsadlariga ko'ra quyidagilarni ajratish mumkin:

1. Insonparvarlik loyihalarini amalga oshirish bilan bog'liq xayriya faolligi, jumladan: ta'lim va madaniyat sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan loyihalar; tarixiy merosni saqlashga yo'naltirilgan loyihalar; farovon yashash muhitini ta'minlashga (yaratishga) yo'naltirilgan loyihalar; ijtimoiy tashabbuslarni qo'llabquvvatlash (rivojlantirish)ga yo'naltirilgan loyihalar; aholining salomatligini saqlashga yo'naltirilgan loyihalar.

2. Muhtojlarga ijtimoiy yordamni amalga oshirish bilan bog'liq xayriya faolligi, jumladan, kam ta'minlangan farzandli oilalarga ijtimoiy yordam; urush faxriylari, zaxiraga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarga ijtimoiy yordam; keksa insonlar, yolg'iz pensionerlarga ijtimoiy yordam; nogironlar, nogironligi bo'lgan bo'lgan bolalarga ijtimoiy yordam; yetim

bolalar, noqobil oilalardagi o'smirlarga ijtimoiy yordam; tabiiy ofatlardan zarar ko'rgan insonlarga ijtimoiy yordam; ishsizlarga ijtimoiy yordam; og'ir hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan boshqa muhtoj insonlar (qochoqlar; uysizlar, zo'ravonlik qurbonlari va boshqalar)ga ijtimoiy yordam.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%>
2. Britaniya Ensiklopediyasi – Encyclopedia Britannica BRE, 2006.
3. Векслер А. Ф. Зачем бизнесу спонсорство и благотворительность. / А. Векслер, Г. Тулчинский. – М.: Вершина, 2006. С.37.
4. <https://ashanakbf.com/info/international.php?ID=298> Благотворительность в мире. История и система.
5. <https://ashanakbf.com/info/international.php?ID=298> Благотворительность в мире. История и система.
6. <https://vaqf.uz/uz/lists/view/366> Vaqfning lug'aviy va fiqhiy ta'rifi.

Umidjon XOMIDJONOV,

O'zbekiston Milliy Universiteti tayanch doktoranti

email: umidjon.xamidjonov.80@bk.ru

O'ZBEKISTON MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI

Annotatsiya. Maqolada yurtimiz mustaqiligidan dastlabki yillaridan boshlab, maktab ta'limi tizimida amalga oshirilgan islohatlar, ishlab chiqilgan meyoriy huquqiy hujjatlar yutuq va kamchiliklar yoritib berilgan. Shuningdek, Yangi O'zbekistonda ta'limning ustuvor strategik ahamiyat kasb etishi, ta'lim sohasi va inson kapitaliga davlat byudjetidan ajratilayotgan xarajatlar dinamikasi hamda yaratib berilayotgan imkoniyatlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: inson kapitali, ta'lim xarajatlari, ta'lim standartlari, mehnat bozori, zamonaviy kompetensiya, PISA, taraqqiyot strategiyasi, kreativ fikrlash, sarmoya.

МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В СИСТЕМЕ ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В статье освещаются достижения и недостатки, достигнутые с первых лет независимости нашей страны, реформы, проведенные в системе школьного образования, разработанные нормативные документы. Также прогнозируется приоритетное стратегическое значение образования в новом Узбекистане, динамика расходов, выделяемых на сектор образования и человеческий капитал из государственного бюджета, создаваемые возможности.

Ключевые слова: человеческий капитал, затраты на образование, образовательные стандарты, рынок труда, современные компетенции, PISA, стратегия развития, креативное мышление, инвестиции

MECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF HUMAN CAPITAL IN THE SCHOOL EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN

Abstract. The article highlights the achievements and shortcomings achieved since the first years of independence of our country, the reforms carried out in the school education system, the developed regulatory documents. It also predicts the priority strategic importance of education in the new Uzbekistan, the dynamics of expenditures allocated to the education sector and human capital from the state budget, the opportunities created.

Keywords: human capital, education costs, educational standards, labor market, modern competencies, PISA, development strategy, creative thinking, investments.

Kirish. Ma'lumki, so'nggi vaqtda O'zbekistonda ta'lim sohasi jamiyatni isloh etish va yangilash siyosatini amalga oshirishning hal qiluvchi bo'g'iniga aylandi. Ta'lim mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, mamlakatni jahon hamjamiyatiga integrasiyalashning majburiy sharti sifatida namoyon bo'lmoqda. Zero ta'lim olish har bir insonni ajralmas huquqi sifatida e'tirof etiladi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 50-moddasida har kim ta'lim olish huquqiga ega ekanligi hamda davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir[1].

Mustaqilikning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush faravonligini oshirish, ta'lim sohasini isloh qilish kabi vazifalarga muhim ahamiyat qaratilib kelindi. Ammo tadqiqotchilarning fikriga ko'ra sobiq sovet tuzumdan saqlanib qolgan ta'lim sohasi mamlakatning yangi iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish strategiyasi talablariga to'la javob bera olmas edi.

O'zbekistonda 1990-yillar birinchi yarmi davomida ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishi ish bilan bandlik darajasi kamayishiga sabab bo'ldi. Bu esa aholi real daromadlarini sezilarli darajada pasayishiga olib keldi. Aslida O'zbekiston davlat mustaqilligining dastlabki yillarida umumta'lim tizimini tubdan o'zgartirish imkoniyati mavjud emas edi. Mazkur davrdagi ta'lim tizimidagi jiddiy muammolarni moliyaviy resurslar yetishmasligi bilan bog'lash mumkin. Bu esa o'z navbatida sohadan malakali kadrlarning ketib qolishi, ta'lim sifati, o'quvchilarning darslarga qatnashish darajasining pasayib ketishiga olib keldi. Hukumat tomonidan cheklangan moliyaviy resurslar sharoitida ta'lim sohasini moliyalash miqdorining ozayishi, o'qituvchilar ish haqi va turmush darajasining keskin tushib ketishiga sabab bo'ldi. Natijada esa malakali pedagog kadrlar tirikchilik o'tkazish uchun boshqa faoliyat sohalari, xususan tadbirkorlik va savdo sohalari ishlaganiga majbur bo'lishdi. O'sha davrlarda, maktab ta'limi tizimida yangi pedagog kadrlar oqimining keskin kamayib ketganligi va sohada o'qituvchilarning yetishmasligi holatlari kuzatildi. Shuningdek, maktablarda moddiy-texnika bazasining nochorligi, o'quv laboratoriya jihozlarning jismonan eskirganligi, o'quvchilarning yangi darsliklar bilan ta'minlash imkoniyatlarini cheklanganligini kuzatish mumkin edi.

